ISSN 2181-3035
10/12/2023. №21



ILM-FAN MUAMMOLARI TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

KITOB
ILM
TADQIQOT
TAHLIL
FAN
TA'LIM
YANGI O'ZBEKISTON
INNOVATSIYA
MAKTAB
BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS

doi
zenodo
CYBERLENINKA
OPEN ACCESS
Google Scholar

@TALQINVATADQIQOTLAR

KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- TALABALAR
- MAGISTRANTLAR
- DOKTARANTLAR
- YOSH OLIMLAR
- O'QITUVCHILAR

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Psixologiya fanlari

TALQINVATADQIQOTLAR.UZ
+99891-152-93-14

Ushbu ilmiy konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktarantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan har oyda tashkil etib boriladi.

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida”

mavzusidagi 21-sonli respublika ilmiy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

10-dekabr, 2023-yil

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi tahrir kengashi:

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg‘ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

THE CHARACTERISTICS OF MODERN FAIRY TALES

Jurayeva Dilorom Rakhmonovna

1st year Master student of Turkistan New Innovational University

Jalilova Lola Jalilovna

PhD, associate professor, Bukhara State University

A literary genre known as “modern fairy tale” brings back the classic fairy tale elements by setting them in modern times, frequently with updated characters, motifs, and themes. These stories often combine fantasy with contemporary settings, offering a modern audience a new perspective on traditional storytelling.

Modern fairy tales are not just about princesses, castles, and fantastical animals like traditional fairy tales are. Rather, they might include modern cultural allusions, technological advancements, and urban settings while keeping the enchantment and morality that are associated with classic stories. Modern fairy tales create narratives that connect with readers of today while holding onto the magic of traditional folklore by doing this.

While keeping the essence of enthralling storytelling for modern audiences, modern fairy tales differ from traditional fairy tales in a number of important ways. Modern fairy tales have the following essential elements:

a. Modern fairy tales, in contrast to classic ones, frequently take place in cities or the present day. They bring in current social issues and ideals, which makes it possible to subtly weave themes like empowerment, diversity, and identity into the stories.

b. Protagonists are frequently portrayed as self-reliant, strong, and proactive in controlling their own destinies, particularly when they are female characters. This is in contrast to traditional fairy tales, where characters frequently play passive roles.

c. Contemporary fairy tales frequently incorporate various cultural elements and retell classic tales to reflect the diversity of today's society. They also frequently

adapt and reinterpret traditional folklore. This makes it possible for modern storytelling to depict global myths and legends more broadly.

d. Contemporary fairy tales can explore the emotional and psychological terrain of their characters, providing a window into their inner conflicts, anxieties, and personal development. Their experiences gain layers of realism and relatability from this psychological depth.

e. A lot of contemporary fairy tales incorporate magical realism into their narratives, skillfully fusing fantastical events with the characters' regular lives. This blend of fantasy and reality creates awe in the known while providing an engrossing storytelling experience.

f. While traditional fairy tales frequently had clear moral lessons at the end, contemporary fairy tales present more complex and alternative endings. These conclusions may leave room for multiple interpretations, ambiguity, or nuanced moral reflections, allowing readers to consider various points of view on the difficulties of life.

By incorporating these elements, contemporary fairy tales expand and modify classic storytelling cliches, appealing to modern sensibilities and giving stories a newfound relevance and inclusivity.

The development of the modern fairy tale genre offers narratives that speak to the intricacies and aspirations of the contemporary world, reflecting a continuum of the enchanting storytelling tradition.

In order to set modern fairy tales apart from traditional folklore and give them a contemporary relevance, depth, and resonance, a variety of narrative strategies are used in these stories. The following are some typical narrative techniques seen in contemporary fairy tales:

A predetermined phrase that appears at both the start and the conclusion of the story: Most fairy tales start with *"once upon a time"* or *"a long time ago"* and they conclude with the reader being informed that the characters *"lived happily ever after"*. Fairy tales typically have a happy ending in which the hero overcomes adversity and are set in the past, but not in a specific historical period.

Repetition is often used extensively, which helps people remember and narrate the story while also giving it a particular rhythm. Events frequently take place in groups of three or seven, and specific phrases or words may be repeated.

For example characters who possess magic powers which they use for good or evil, or objects which can be used to make a wish. Some characters are able to change shape, such as the frog who is transformed into a prince.

Fairies, elves, and other mythical or magical characters are common in fairy tales. Character types that are typical: hero, villain, assistant.

Modern fairy tales revitalize traditional storytelling paradigms by utilizing these narrative techniques to create compelling, emotionally poignant, and thought-provoking stories that address the intricacies and goals of modern society.

In the conclusion, the fairy-tale genre broadens to encompass a great deal of enduring tales and cherished characters. Throughout history, fairy tales have possessed a special power to impart wisdom to their audience about life, expectations, and the value of different virtues that are relevant to the period and culture in which they are told. The stories have a way of captivating readers with their primal urges, darkness, and warped perceptions, illuminating the sometimes unsettling emotions that we are all capable of. Age, culture, and time all dissolve into fairy tales. The genre's enduring appeal accounts for its remarkable capacity to touch people's hearts.

References:

1. Dahl, Roald. Revolting Rhymes. London: Jonathan Cape, 1982.

2. Propp, Vladimir. “Folklore and Literature.” The Classic Fairy Tales. Ed. Maria Tatar. New York: Norton & Company, 1999. 378-386. Print

3. Tatar, Maria, ed. The Classic Fairy Tales. New York: Norton & Company, 1999. Print

4. Lapine, James, and Stephen Sondheim. Into the Woods. Broadway Script. 1986. Retrieved 1 April 2015. Web. Leprince de Beaumont. “Beauty and the Beast.” The Classic Fairy Tales. Ed. Maria Tatar. New York: Norton & Company, 1999. 32-42. Print

O’ZBEKISTONDA BOSHLANG’ICH TA’LIM MODERNIZATSIYASIGA YO’NALTIRILGAN DAVLAT SIYOSATI VA UNING ASOSIY JIHATLARI

Abdujalilova Ruxsora Nodirbek qizi

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va ayniqsa boshlang’ich ta’lim modernizatsiyasiga yo’naltirilgan davlat siyosati uning asosiy prinsiplari haqida keng yoritilgan.O'quv tarbiya jarayonida pedagogning ahamiyati va zamon talabiga xos yetuk kadrlar yetishtirish haqida aytib o’tilgan.

Kalit so’zlar. Ta’lim, texnologiya, islohot, modernizatsiya, innovatsiya, integratsiya, ta’lim islohoti, ta’lim konsepsiyasi, uzluksiz ta’lim.

Hozirgi raqamli texnologiyalar va global o’zgarishlar davrida yuksak taraqqiy etayotgan mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta’lim tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalash ta’lim sohasidagi davlat siyosatining eng dolzarb va eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda.Ta’lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko’tarish, shuningdek uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o’quv jarayoni nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilgan.Shu bilan birgalikda Yangi O’zbekistonimizning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida sifatli ta’limni boshqarish va modernizatsiyalash muhim ahamiyatga ega.Shu jihatdan uzluksiz ta’lim sifatini oshirishning tizimli shaklini ishlab chiqish dolzarb bo’lib turibdi. Ta’lim tizimi amaliyotida sodir bo’layotgan muammolarni hisobga olgan holda hamda xorij mamlakatlarining ilg’or tajribalari asnosida umumiy o’rta ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ya’ni takomillashtirish, yoshlarda bilim, dunyoqarash, ma’naviy ongini shakllantirish masalalari muhokama qilinmoqda.Ayniqsa,

yurtimizda boshlang’ich ta’lim modernizatsiyasiga yo’naltirilgan davlat siyosati, uning asosiy jihatlari va yo’nalishlarini nazarda tutishimiz mumkin.

E’tibor beradigan bo’lsek, maktabgacha va maktab ta’limini modernizatsiyalash bosqichlari doimiy ravishda yangilanib borishni talab qiladi.Chunki texnologik jarayon kundan-kunga rivojlanib bormoqda.Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari, ayniqsa internet tizimi ancha ildamlab ketganini inobatga olish zarur. Turli darsliklarni yaratish, ularni chop etishda ham o’zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Yana bir muammoni hal etish juda muhim hisoblanadi, ya’ni bu-pedagoglar va professor o’qituvchilar tarkibining mutaxassislik darajasi va maxsus bilimlari bo’lib, ta’lim jarayoniga, ayniqsa boshlang’ich ta’lim sohasida yetuk malakali kadrlarni jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Zero, biz kabi pedagoglarning oldida yoshlarga tarbiya berish, ta’lim sifatini talabga javob bera oladigan holatda yanada yuksaltirish, turli sohalarda yetuk kadrlarni tayyorlash bo’yicha murakkab vazifalar turibdi.Hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o’ynashini inobatga olgan holda, davlatimiz ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh negizi va yetakchi omili sifatida o’z e’tiborini ta’limga qaratmoqda.Birinchidan, ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ikkinchidan, ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi, uchinchidan, ta’lim sohasida kamsitishlarga yo’l qo’yilmasligi, to’rtinchidan, ta’lim olishga doir keng imkoniyatlarning ta’minlanishi, beshinchidan, ta’limning uzluksizligi va izchilligi, umumiy o’rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi, oltinchidan, davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning barcha uchun ochiqligi, ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag’batlantirilishi, ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvining uyg’unligi;bularning barchasi ta’lim modernizatsiyasiga yo’naltirilgan davlat siyosatining asosiy jihatlari va prinsiplari hisoblanadi.

Muhtaram yurtboshimiz SH.Mirziyoyev o’zining “Tanqidiy tahlil, qat’y tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”asarida ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish,

ta’limning yangi zamonaviy usullarini, zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish borasida bir qator vazifalarni amalga oshirishga e’tibor qaratdilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta’lim-tarbiya jarayoni zamon kutayotgan talablarga javob berishi undan orqada qolmasligi muhim ahamiyatga ega.Ayniqsa boshlang’ich ta’lim sohasini modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda innovatsiya va integratsiyalash, ta’lim sohasidagi o’ziga xoslik mustaqil O’zbekistonimizni yanada taraqqiyot yo’lidan rivojlanib borishini kafolatlab beradi.Zero, ta’lim sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Vinogradova N.F.Boshlang`ich ta`limni modernizatsiya qilish va maqsalarni belgilash muammolari / "Rus maktabini yangilash" 4-Umumrossiya masofaviy avgust pedagogik konferensiyasing ma`ruzalari (2002 yil 26 avgust - 10 sentabr_.- http://www.eidos.ru/conf/

2. Yo`ldoshev J, -., Xasanov S. "Pedagogik texnologiya".Toshkent., "Moliya-iqtisod"., 2009

3. Azizxodjayeva N.H "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat"-Toshkent, TDPU, 2003, 174bet.

UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABLARDA TA’LIM TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurazzoqova Dildora Otabek qizi

Qo`qon DPI 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekistondagi va jahondagi maktablarning dars jarayonlari, ta’lim sohasini takomillashtirish va maktablarni o’zidayoq yoshlarni oliy ta’limga tayyorlash, o`quvchilarga ta’lim texnologiyalari orqali o’quvchilarni dars jarayonlariga qiziqtirish, hozirgi kunda maktab tizimida zamonaviy texnologiyalarni o’rni qandayligi, maktab ta’limida raqamli texnologiyalarni qo’llanishi, ta’im tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlashdan iborat bo`lib, yoshlarni ta’lim sifatini oshirish va ularni yetuk mutasasis qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Mutaxasis kadrlarni tayyorlash, texnikka, texnologiya, maqsadli motivlashtirish, tashkiliy ijrochilik funksiyasi, o’qitish metodikasi.

Jahonda har bir mamlakat o’z mezonlari asosida ta’lim tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli davlatlarda ta’lim olish turlicha bo’ladi. Ta’lim tizimiga asos solinayotganda mamlakatning tarixiy an’analari, bugungi kun talablari inobatga olinadi. Xorijiy davlatlarda o’qitish metodikalari juda murakkab va raqamli texnologiyalar takomillashgan. Dastur sifatlari ham puxta reja asosida tuzilgan hisoblanadi. Xorijiy davlatlar kabi biz ham o’qitish texnologiyalariga e’tibor berish orqali yosh avlodga beriladigan ta’liim sifatini oshirga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilash lozim.

Joriy 2023-yil 2-noyabr kuni ta’lim to’grisida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida bo’lib o’tgan vidioselektor yig’lishida mamlakatimizda ta’lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi. 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili’’ deb e’lon qilindi. Davlatimiz rahbari taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatimiz

qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir degan g`oyani ilgari surdi. Ilgari surilgan ushbu g`oyada “O’zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag’lar yo’naltirilmoqda. Hammamiz aziz farzandlarimiz hayotini va taqdirini o’qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlar, kelajak bunyodkorlari bo’lgan bu mo’tabar zotlarga munosib hurmat-extirom ko’rsatishimiz kerak” dedi Prezidentimiz. Prezident tomonidan ta’kidlagandek, biz pedagoglar oldiga umumta’lim maktablarda raqamli texnologiyalarni qo’llashimiz, raqamli texnologiyalarni o’z o’rnida ishlatishni bilish lozimligini ko`rsatadi.

2023-yilda yurtimizda ta’lim sifatini oshirish bo’yicha ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ikki smenali maktablar sonini qisqartirish, 70 ta yangi zamonaviy maktab qurilishi, 460 ta umumta’lim maktablarni kengaytirish masalasi ko`zda tutilgan. Bundan tashqari xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanadi, kelgusi besh yil ichida ularning soni mingtaga yetkaziladi. 2023-yildan maktab ta’limi xalqaro ta’lim dasturlari butunlay isloh qilish, kelgusi yildan boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun bepul ovqatlanish Qoraqalpog’iston va Xorazm kabi boshqa viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etiladi va uning uchun 2, 3 trillion so’m ajratildi. Unga javoban maktablarda ta’lim sifatini oshirish uchun pedagoglarni ta’limiga e’tibor berish, yetuk kadrlar chiqarish sistemasi bo’yicha ishlab ularni texnologiya nimaligi o’rgatishimiz zarur deb o`ylaymiz. Umumta’lim maktablarda asosiy masala sifatida davomadga emas, balki ta’lim sifatini oshirishga qarashim lozim. Maktab darsliklarini yosh avlodga maktabda o’rgatishim, o’quv kurslarda emas, Prezdentimizni yaratib bergan sharoitlaridan oqilana foydalangan holda yurtimizga yetuk kadrlar tayyorlashga harakat qilishimiz biz pedagoglarni oldidagi dolzarb vazifa bolishi kerak. Ta’lim bo’yicha nazariyamizni kengaytirish va yana qanday usullarda foydalanishimiz mumkinligi haqida o’ylashimiz va uni yosh avlodlarga to’g’ri tadbiq qilib berishimiz zarur. Maktablarda sinf xonalarga va shart-sharoitlarga ham e’tibor bergan xolda yosh avlodga sifatli ta’lim berishimiz lozimdir. O’quvchilarni o’quv kuslarda emas

balki, maktablarni o`zida oliy ta’limga tayyorlashimiz maqsadga muvofiqdir. Oliy ta’limda o’qib borgan kadrlarni ma’sulyatligiga va o’z ustida ishlay oladigan kadrlarni ishga jalb qilishimiz, maktablarda o’tiladigan darslarni qiziqarli metotlardan foydalangan holda o’quvchilarimizni dars mashg`ulotlariga qiziqtirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda xorijiy davlatlar tajribasidan o`rganib, o`qitish texnologiyalarini o’zimizning ta’lim tizimiga joriy etish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish bo’yicha isloxatlar qilmoqdamiz.

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki, o’quvchilarni darslarni o’z vaqtida o’zlashtirib borayotganligini ota-onalar ham kuzatib borishsa maqsadga muvoffiq bo’ladi. Lekin buning o’rniga maktablarda dars sifati yaxshi emas deb o’quv kuslari bilan chalg’itib qo’yishmoqda. Shu bois biz avvalo maktab ta’limini yaxshilab bersakgina ota - onalarimiz farzandlarini kurslarga emas maktabga yuborishadi deb o’ylaymiz. E’tiborimizni qaratgan holda shunday muammolarni bartaraf qilishga bor kuchimizi sarflashimiz zarur. Yangi O’zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi degan ezgu g’oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So’nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Peezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib kelishi bilan ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog’i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o’quv qo’llanmalar yaratildi. Jumladan, chet tili, axborat texnologiyalari, matematika, kimyo, biologiya bo’yicha milliy va xalqaro sertifikati bor o’qituvchilarga ustama, chekka hududga borib ishlagan muallimlarga alohida to’lov joriy etildi. Tahlillar natijasida 6 million so’mdan 10 million so’mgacha maosh oladigan o’qituvchilar soni 23 mingga yetdi. 10 milliondan so’mdan yuqori oluvchi oqituvchilar soni 1mingdan oshdi. Shu bilan birga maktab ta’limi sohasida dolzarb masala sifatida bugungi kunda boshlang’ich sinflarga 11 ta, yuqori sinflarda 16 ta fan o’tiladi. Lekin o’quvchilar aniq bir yo’nalishda chuqur bilimga ega bo’lmay maktabni bitirmoqda. O’tgan o`quv yilida 220 ming muallimdan 86 ming nafari yoki 37 %ning bilim va ko’nikmasi “qoniqarsiz” deb baholangan. Bu esa hozir talab yuqori bo’lgan informatika, ingliz tili, fizika, matematika va kimyo fanlari o’qituvchilarida bo’lgani dolzarb masala sifatida ko`rish mumkin. Shu bois yuqori sinf o’quvchilarni darsliklari 16 tadan 11 taga qisqartirilgani bugungi kunda

maktablarda ta’lim sifatini oshirish uchun kasb-hunar egallash istagidagi o’quvchilarga maktabning o’zida tayyor mutaxasis bo’lib yetishish imkoniyatini yaratish zarurati tug’ildi. Yana bir masala sifatida hozirgi kun maktablarda bola soni sinf xonalarida 20 ta 24 ta o’qilishi zarur bo’lgan bir paytda 40 ta 41 ta o’quvchi o’tiribdi shu masalalarni ham hal qilsak bolalarni bilim sifati oshadi degan fikrdamiz.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarda islohatlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edilar. Shu maqsadda butun ta’lim tizimini takomillashtirmoqda. Maktabgacha ta’lim rivojlantirilyotganini maktab saboqlari puxta zamin bo’lmoqda. Umumiy o’rta ta’lim sifati ilg’or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Yurtimizda matematika, fizika, kimyo va biologiya darslarining 10 % amaliy mashg’ulotga ajratilgan. Rivojlangan davlatlarda bu ko’rsatgich 30-50 %ni tashkil etadi.

Xorijiy davlatlarni biri Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo’lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog’oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo’lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o’rnatilgan. Yaponiya o’rta maktablarining saviyasi AQSH o’rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqorida ko’rinib turibdiki yaponiyada ta’lim tizimi ham shaklan ham mazmunan ham yuksak uyg’unlik kasb etgan. E’tiborli yana bir tomoni – yaponiyada faqat milliy an’analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg’or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o’zlashtirilgan. Bunday tajribalar respublikamiz ta’lim tizimini yanada yuqori pog’onaga ko’tarishda qo’l kelishi shubhasizdir.

Amerika qo’shma shtatlari ta’lim tizimi; Amerikada o’rta ta’lim 12 ta bo’lib boshlang’ich o’rta va quyi maktablarga bo’linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o’quvchilarning 88 foizi o’qiydi. Ta’lim muassasalarini davlat va shahar byudjetlari moliyalashtiradi. qo’shma shtatlarda yalpi ichki maxsulotning 7.5 % har yili ta’limga sarflanadi. 12 % o’quvchilar xususiy maktablarga boradi. Ularning moddiy resurslari ota-onalari turli mablag’lar va

xayriya mablag’lari hisobidan shakllantiradi. Odatda har bir sinfda televizor kompyuter mavjud bo’lib, yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlangandir. Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3 sinf o’quvchilariga o’yinchoq metotlarini qo’llashadi. Bu metotda bolalar o’yinchog’ini ta’riflaydi. Bu metodlarni qo’llashdan maqsad bolalarni uyalchanglik va omma oldida nutqini rivojlantirishdan iborat. Amerikada ta’lim haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimlarini puxtaligi tekshirishga va nazorat qilishga qiyinchilik tug’diradi. Shu sababli boy moddiy texnik baza va tajribaga ega bo’lgan davlatda butunlay sovodsiz bo’lgan bolalar ham topiladi. Aqshda ta’lim tizimining maqbul tomonlariining ijobiy qo’llanishi muhim kasb etadi.

Yuqorida keltirilganda xorijiy davlatlarni texnologiyalarini o’zimizning umumta’lim maktablarda keng qo’llash lozimdir. Qachonki biz pedagoglar ta’limga ma’suliyat bilan qarasak, yosh avlod ham buni his qiladi. Yosh avlodga biz to’g’ri ta’limga yo’naltira bilishimiz zarur bo`ladi. Qayd etilgan mazkur vazifalarga malaka oshiruvchi o’qituvchilarni ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishsiz erishib bo’lmasligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu sababli ham malaka oshiruvchi o’qituvchilarni ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda ilmiy izlanishlar haqidagi bilimlar va ko’nikmalarni yangicha yondashuvda qilishlari maqsadga muvofiqdir. O’quvchilarimizni maktabga chiqmasdan turib maktabgacha ta’limlarda bolalarni kitobga mehr quyishga o’rgatish lozimligi ko`rinadi. Hozirgi kunda kitob o’qiydigan yoshlarimiz soni kamayib ketmoqda. Shuni hisobga olgan holda keng ko’lamli tadbirlar bellashuvlar o’tkazib o’quvchilarni bu tanlovlarda qatnashishlarni ta’minlash zarur deb hisoblaymiz. Yosh avlodlarimizni o’z yo’lini topib olishlari, ularni bilim yo’lida to`g’ri borishlarida biz pedagoglarni o’rni juda kattadir. Shu bios pedagoglar o’z ustida doimiy ravishda ishlab turishni taqazo etadi. Shu bilan birga bo’lajak mutaxasislarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan o’quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usularidan foydalana oladigan qilib hamda o’zidagi pedagogik mahoratini va ko’nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy tashkil qila oladigan bo’lishlari, shuningdek, ularni mustaqil

ravishda o’z ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda ilmiy – pedagogik va kasbga doir qobilyatining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlar singari o’quvchilarni ta’lim-tarbiyasini shu bilan birga madaniyatiga ham ahamiyat berishimiz zarurdir. Boshqa mamlakatlar ilmini o’rganaman deb ba’zi yoshlarni ularni madaniyatini ham ko’r-ko’rona qo’llamoqda. Shu bois ularga ta’lim nima? madiniyat nima? degan savollar bo’yicha alohida tushintirishlar olib borishimiz darkor. Yurtboshimiz tomonidan yaratilgan sharoitlarni biz bo`lajak pedagoglar yoshlardan mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdek vazifalarni xal qilmoq lozim. Maktablarda ta’lim sifatini oshirish maqsadida olib borilayotgan tadbirlarda barcha o’quvchilarni muntazam qatnashi borishlarini ta’minlash va ularni o`zqtida rag’batlantirib borish lozimdir. Shu kungacha yurtimizdan yirik olimlar, faylasuflar, shoirlar, yozuvchilar chiqqan bunday sharoitda yana shunday allomalarni yetishtirish biz pedagoglarni qo’lida hisoblanadi. Biz peagoglar doim yangiliklar yo`lida maqsadli ishlarni olib borishimiz va ularni yoshlar bilan bo’lishib turishimiz kerakki, zero mazkur izlanishlar yosh avlod yangilik yaratuvchi, izlanuvchi o’quvchilar sirasidan bo’lsin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz maktablarda bilim sifatini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni to’g’ri va samarali qo’llashimiz, belgilangan vazifalarni barchasi O’zbekiston kelajagi bo’lgan yoshlarning bilim va tajribaga ega bo’lishi, psixologik yondashuvlar asosida maktabdagi dars jarayonlarini chuqurlashtirib, munosib kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Maktab ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol shaxsni tarbiyalab, oliy ta’limga tayyorlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etishini anglagan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada taraqqiy ettirish, farzandlarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish yo’lida tizimli ishlarni amalga oshirilib borilishi maqsadga muvoffiq. Shu bilan birga o`quvchilarni maktablarga qamrab olishda nafaqat davlat, balkim nodavlat ta’lim tashkilotlar sonini yanada ko’paytirish, ularda olib borilayotgan ta’lim – tarbiya jarayonini qat’iy nazorat qilish, sohaga yetuk, malakali va tajribali kadrlarni jalb etish g’oyatda muhimligini ta’kidlamoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amalga joriy etish chora – tadbirlari to’g’risida” gi 422-sonli Qarori.

2. To’lqin Eshbek. Media ta’lim yangi ta’lim usuli sifatida. Maqola 2022-yil.

3. Ochilov M. Yangi pedagogika texnologiyalari. Qarshi 2000-yil

4. Ismoilova D.M. Ta’lim soxasida prognoz qilish ilmiy – Pedagogik muammo sifatida. 2020-y.

IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI

Axmedova Ummu Gulsum Shermatjon qizi
Qo’qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston to’qimachilik sanoatida mahalliy qimmatbaho ipak matolari ya’ni o’zbek olima ayollarning milliy brendiga aylangan atlas, adras matolarimiz, ularning ahamiyatli tomonlariga doir ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilingan. Bugungi kunda yurtimiz pilla yetishtirish va ipak tolasi ishlab chiqarish bo’yicha dunyoda Xitoy, Yaponiya va Hindistondan keyin to’rtinchi o’rinda turadi. To’qimachilik sanoatida bugungi kunda kelib 4000 artikuldan ortiq gazlamalar tayyorlanadi.

Kalit so’zlar: Pilla, ipak, mato, to’qimachilik, gazlama, shoyi, tabiy tola, ipakchilik.

Dunyoda pilla yetishtirish va xom ipak ishlab chiqarish bo’yicha O’zbekiston Xitoy, Yaponiya va Hindistondan keyin to’rtinchi o’rinni egallaydi. O’zbekiston ipakchilik sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Ipakchilik Markaziy Osiyo Respublikalariga eramizdan avvalgi IV-V asrlarda, Kavkaz mintaqalariga VII, o’rta rus o’lkalariga, esa XVII asrlarda kelgan. Hozirgi kunda yetishtirilayotgan pilla respublikaning hamma pillachilik korxonalarini to’liq ta’minlash bilan birga uni chet elga sotish imkoniyatini ham beradi. Pillachilik hozirda Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Brazilya, Tayvan, Pokiston, Suriya, Turkiya, Ispaniya, Misr, va boshqa mamlakatlarda rivojlangan.

Yer yuzining har qanday burchagida qiyosi topilmaydigan atlas, adras, matolari rango-rang va xush bichimligi bilan kishini maftun etadi. Chunki, xalqimizning nafaqat zamonaviy, balki qadim o’tmishdan so’zlaguvchi, bejirim bu kabi matolarimizga so’ngi yillarda xorijliklarda ham qiziqishi ortib, dunyoning eng mashhur dizaynerlari tomonidan yaratilayotgan liboslar kollektsiyalaridan munosib joy egallamoqda.

Tabiy ipak jahonda ishlab chiqariladigan to’qimachilik tolalarining faqatgina 0, 5%ni tashkil etadi, lekin ipak va ipak gazlamalarining texnika va maishiy turmushda keng qo’llanilishi tufayli jahon bozorida tabiiy ipakka bo’lgan talab juda yuqori hisoblanadi.

Mamlakatimizda ipakchilik tarmog’ining rivojlanish bosqichlari qadim tarixga borib taqaladi. Ipak qurtini yetishtirish va ipakni yigirish amalyoti bundan 4000 yil oldin O’zbekistonni janubida, shuningdek, zarafshon daryosi bo’ylarida rivoj topgan. Ajdodlarimiz tomonidan bir necha ming yil ilgari tamal toshi qo’yilgan pilla yetishtirish an’analarining bardavomliga bejiz emas. Boisi, ushbu tarmoq uzoq yillar davomida xalqimizning asosiy mehnat mashgd’ulotlaridan, daromad manbalaridan biri bo’lib kegan.

O’zbekiston iqlimi keskin o’zgaruvchan kontinental iqlimga ega bo`lgan davlatdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqli hisoblanadi. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqoriligi, bahor va kuz fasllarida yog’ingarchilik ko’p bo’lganligi tufayli o’rtacha nisbiy namlik 30 – 40 % gacha ko’tariladi.

Loyhalanayotgan ob’yekt paketini tanlanayotganda mavsum albatta inobatga olinishi lozim. Ipak tolali gazlamalar asosan bahor – yoz mavsumida kiyiladi. Sun’iy tolali gazlamalar esa fasllarning sovuq kunlarida kuz va qish fasllarida kiyiladi. Sun’iy gazlamalar pishitilmagan viskoza va atsetat iplar, krep va moskrep iplardan turli nisbatlarda har xil o’rilishda to’qiladi. Ipak tolaga sun’iy tolalar aralashtirilgan gazlamalar assortimentiga bluzkalar, ko’ylaklik gazlamalar, paltolik og’ir gazlamalar kiradi. Sun’iy gazlamalar asortimentimenting ko’p qismi 11-17 teksli, eng yupqa gazlamalar 6-8, 5 teksli iplardan to’qiladi. 1 metr kvadrat gazlamaning masasi 80 gramdan 200 gramgacha bo’ladi. Sun’iy tolalardan to’qilgan gazlamalar havo o’tkazuvchanligi past bo’ladi, lekin rang mustahkamligi tabiiy tolalardan to’qilgan gazlamalardan yuqori bo’ladi. Krep usulda pishitilgan iplarni qo’llash gazlamalarning g’ijimlanuvchanligini kamaytiradi. Moskreplardan to’qilgan gazlamalar unchalik g’ijimlanmaydi, barmoqlarga junga o’xshab ko’rinadi, lekin xo’llanganda ancha

kirishadi. Namlab isitib ishlov berishda gazlamalarning tola tarkibiga e’tibor berish lozimdir.

Tabiiy ipak deb oqsil ajratuvchi bezlari yordamida turli xildagi bo’g’im oyoqlilar turiga, hashoratlar sinfiga, tanga qanotlilar guruhiga kiruvchi va o’zining bir davr yashashi mobaynida: tuxum, qurt, g’umbak, va kapalak kabi 4 bosqichni o’tovchi jonivorlar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotga aytiladi. Sanoatda ishalab chiqariladigan ipakning asosiy qismi ya’ni 90% dan ko’prog’ini BOMBYX MORI turidagi tut ipak qurtidan olinadi.

Tabiiy ipak eng qimmatbaho, mexanik va fizik xossalari yuqori, tashqi ko’rinishi ko’rkam, oson bo’yaluvchanlik xususiyatlarga ega bo’lgan to’qimachilik xom ashyosidir. Biroq uni ishlab chiqarish, dastlabki ishlov berish uchun sarflanadugan mehnat o’ta yuqoridir. Shuning uchun ham boshqa turdagi to’qimachilik sanoati xom-ashyolariga nisbatan qimmatbaho va chegaralangan miqdorda qo’llaniladi.

Ipak gazlamalari ko’pincha yo’g’onligi 1, 5-2, 3 teksli ingichka xom ipakdan, pishitilgan tabiiy ipak va ba’zi gazlamalargina ipak kalava ipdan polotno o’rolishida to’qiladi tabiiy krep gazlamalar ishlab chiqarishda gazlamalardan mayda naqshli sirt hosil qiladigan ipak-krep ishlatiladi. 1metr kvadrat eng yupqa gazlamaning massasi 14-22g, 1 m kv gazlamaning o’rtacha massasi 50-60g.

Tabiiy shoyi gazlamalari asosan sidirg’a yoki gul bosilgan tarzda ishlab chiqariladi, nisbiy zichligi uncha katta bo’lmay, asoasn ayollar ko’ylaklari va murakkab modelli koftalar tikish uchun ishlatiladi. Preyskurant bo’yicha tabiiy shoyi gazlamalar gruppasi krep, atlas, jakkard, tukli va maxsus kichik guruxlarga bo’linadi. Tabiiy ipakdan to’qilgan gazlamalar osongina cho’zilishi, qiyshayishi va titilishi tufayli ularning tikuvchilikda foydalanish yoki buyum ishlab chiqarish qiyin ish hisoblanadi. Shoyi gazlamalarning sirti silliq bo’lganligi sababli detallar sirpanib ketaveradi va bichish murakkablashadi. Bunday gazlamzlarni tikishda 75-85 nomerli ignalar, 80-100 nomerli paxta iplar yoki 65 nomerli ipak iplardan ishlatish tavsiya qilinadi.

Ipakdan to’qilgan matolar Respublikamiz ko’rkiga va sanat darajasiga aylangan hamda o’zinng chiroyi bilan ajralib turadigan milliy liboslarimiz, ya’ni atlas, adras, beqasam, shoyilar shular jumlasidandir. Shuni alohida aytishimiz kerakki, ipakdan to’qilgan va ipak matosidan tikilgan mahsulotlarning chidamliligi ancha yuqori hisoblanadi. Ipak atlas juda o’ziga hos materialdir. U ko’plab matolarga qaraganda qimmatlidir va mato bilan ishlashda eng hashamatli qiyofani yaratishni istagan ichki bezatuvchilar, tikuvchilar, dizaynerlar va boshqalar tomonidan ham yuqori baholanadi.

Ya’na bir ipak matosi bo’lgan Adras ham o’zini betakrorligini yo’qotmagan. Adrasning yorqin ranglar jilosi hamda betakror naqshlari yillar davomida eskirmayapti va aksincha, Sharqda ham G’arbda ham mashhur bo’lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, atlas va adras gazlamalarini sifati yuqori bo`lishi bilan ularning zinchligi hamda polotno o’rilishlari hisobiga uzilishga chidamli, pishiq hisoblanadi. Ipak juda nozik hamda harir mato hisoblanib, qattiq burilgan ip tufayli shaffof va ingichka bo’ladi, tolalarning qayishqoqligi, gazlamalarning deformatsiyadan keyin shaklini tiklashiga, g’ijimlanmaslik xossasini oshishiga olib keladi. Tabiiy tolalardan to’qilganligi gazlamaning gigienik ko’rsatkichlariga to’liq avob beradi, gigraskoplik darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ochilov T, Matmusayev U.M “To’qimachilik materiallarini sinash”. Toshkent, O’zbekiston, 2004-yil

2. Siddiqova P.S, Ortiqova D.I (2017). “Milliy matolar va ularning turlarini engaytirish”.

3. Quchchiyev Q.R, Raxmonberdiyev V.K (2018). “Ipakchilik va tutchilik”.

4. Azamov U.N, DJo’rayev B.E, Eshomqulova M.A “Respublikamizda ipak matolarini ishlab chiqarilishi va foydalanilayotgan xom ashyolar” (2017)

ARAVACHADA O‘YNALADIGAN BASKETBOL TARIXI VA UMUMIY QOIDALAR

Yusupova Muharramoy Nuriddin qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti, mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu berilgan ishda siz aravachada o'ynaladigan basketbol sport turining dunyoda paydo bo'lishi tarixi, Rossiyada nogironlar aravachasi basketbolining asosiy qoidalari, uch soniya qoidasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Nogironlar aravachasi, IWBF (Xalqaro Nogironlar Aravalar Basketbol Federatsiyasi), IPC (Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi), FIBA (Xalqaro havaskor basketbol federatsiyasi), dribbling, fol.

Nogironlar aravachasi basketboli bu - ishtirokchilar aravachalar yordamida harakatlanishi mumkin bo'lgan o'yin turi. Ushbu sport turi umurtqa pog'onasi shikastlangan odamning psixologik moslashuvini (ixtiyoriy safarbarlik va faoliyat) ta’minlaydi. Shuningdek, u yo'qolgan funktsional faollikni tiklashga imkon beruvchi jismoniy reabilitatsiyani ifodalaydi. Shu bilan birga, kompensatsion mexanizmlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Bunday o'yin nogironlik xususiyatlariga eng moslashtirilgan sport mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Uning yordami bilan reabilitatsiya jarayoni samaraliroq hisoblanadi. Nogironlar aravachasi basketboli Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ko'p sonli harakatchanligi cheklangan odamlar paydo bo'lgandan keyin paydo bo'lgan. Urushdan o'tgan faxriylarning aksariyati o'zlarining sevimli sport o'yinlaridan voz kechishni istamadilar va o'zlarining qoidalarini ishlab chiquvchilarga aylandilar. Dunyo bo'ylab birinchi o'yin 1946-yil 25-noyabrda Bostonda bo'lib o'tdi. Ikki yil o'tgach, Ikkinchi Jahon urushi faxriylari uchun tibbiy muassasalarda 6 ta jamoa ishladi. Ular turli shaharlarga sayohat qilib, muntazam musobaqalarda

qatnashdilar. Vaqt o'tishi bilan ko'pchilik o'yinga qiziqib qoldi. Sport mashg'ulotlari og'ir nogironligi bo'lgan odamlarning moslashishiga yordam berdi. Tibbiyot muassasalaridan tashqarida birinchi jamoa Kanzas-Siti shahrida yaratilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida 1948-yilda nogironlar aravachasidagi Milliy Basketbol Assotsiatsiyasi (NWBA) tashkil etilgan. O'sha bosqichda u 6 ta jamoani birlashtirgan (bugungi kunda tashkilot 192 jamoa va 22 konferentsiyani o'z ichiga oladi). Keyingi yili o'yin o'ynash qoidalari tasdiqlandi. 1949-yil aprel oyida Illinoys universiteti talabalari turnir e’lon qilishdi. Tadbirni Tim Nugent olib bordi. Turnir yangi to'p sportining rasmiy tug'ilishini nishonladi. O'yin o'tgan asrning ikkinchi yarmida ayniqsa faol rivojlana boshladi. Xalqaro miqyosdagi musobaqalar 1954-yildan beri o'tkazib kelinmoqda.

Tel-Avivdagi III yozgi Paralimpiya o‘yinlarida Isroil sharafini himoya qilgan jamoa g‘olib chiqdi. Bu Germaniya, Fransiya, Italiya va Gollandiya kabi Evropa mamlakatlarida jamoaviy o'yinni ommalashtirishni boshladi. Sportchilarni uchta toifaga bo'lgan tasniflash tizimi joriy etildi. Umuman olganda, jamoalar soni o'n ikki ochkodan oshmasligi kerak.

1960-yillarning o‘rtalaridan boshlab o‘yin ayollar orasida keng tarqaldi. Ayollar chempionati birinchi marta 1990-yilda Fransiyada o'tkazilgan. Musobaqa g'oliblari Kanada jamoasi besh marta, ishtirokchilar esa ikki marta AQSh vakili bo'lishdi. Erkaklar o'rtasidagi birinchi norasmiy chempionat 1973-yilda Bryugge (Belgiya) shahrida o'tkazilgan. Bugungi kunda 82 davlatdan 100 mingdan ortiq basketbolchi rasmiy ro'yxatdan o'tgan.

Rossiyada Rossiyada bunday o'yinlar birinchi marta 1990-yilda Moskvada o'tkazilgan. Hammasi maxsus belgilarga ega bo'lmagan sport zalida yopiq aravachalardan foydalanish bilan boshlandi. Bonndan kelgan jamoa bilan uchrashuvdan keyin vaziyat o'zgardi. Bunday o'yinlar moskvaliklarga bunday musobaqalarni tashkil etishning barcha jihatlari bilan tanishish imkonini berdi. 1991-yilda sport klubi qoshida nogironlar aravachasi basketboli seksiyasi ochildi. 1993-yilda Rossiyalik basketbolchilar xalqaro turnir doirasida Germaniyaga tashrif buyurishdi. Rossiyaning ko'plab shaharlarida sport faol rivojlandi. Rossiyada jami

yettita erkaklar va bitta ayollar jamoasi ro‘yxatga olingan. Xalqaro maydonda Rossiya terma jamoasi Polsha va Zagreb (Xorvatiya)dagi turnirlarda ishtirok etdi. Endi, IWBF reyting jadvaliga ko'ra, Rossiya Evropaning 36 mamlakati reytingida o'n uchinchi o'rinni egallaydi. Moskvalik sportchilar Yevropa klub turnirlarida debyut qilishdi.

Nogironlar aravachasi basketbolining asosiy qoidalari: O'yin qoidalari nogironlar aravachasini boshqarish, o'yinchilarni tasniflash va boshqa tamoyillarga asoslanadi. Aravacha hakamlar hay’atining asosiy vazifasi - aravachani nazoratdan o'tkazish. U belgilangan o'lchamlarga javob berishi kerak. U sportchining ajralmas qismi hisoblanadi. Agar ushbu me’yorlar bajarilmasa, aravacha basketbol musobaqasida qatnashishi mumkin emas. Ushbu basketbol uchun baland nogironlar aravachasi, oyoq tayanchlari va yon tomoni bilan jihozlangan bo'ladi. Tormoz va boshqa mexanizmlarning mavjudligiga ruxsat beriladi. Biroq, shinalarga ruxsat berilmaydi. Ular parketda iz qoldiradi.

Ushbu qoidaga ko'ra, maydonda basketbol o'yini paytida umumiy qiymati 14 tadan yuqori bo'lgan sportchilar o'ynay olmaydi. O'yin davomida jamoada bunday belgi qayd etilsa, texnik qoida buziladi. Murabbiy zudlik bilan jamoa tarkibiga tuzatishlar kiritishi kerak. Hakamlar komissiyasida sportchilarning kartalari mavjud. Ulardan foydalanib, ular o'yinda ishtirok etayotgan o'yinchilarning tasnifini va jami hisoblangan ochkolarni tekshirish imkoniga ega.

FIBAning sportchilar o'rtasidagi o'zaro ta’sir tamoyillari "O'yinchining yo'li" kabi ta’riflarga ko'ra talqin qilinishi mumkin. Himoyachi, shuningdek, raqibning ko'rish sohasidagi pozitsiyasi bilan belgilanadi. Bu unga hujumchi masofasida bo'lish imkonini beradi. Vasiylik davrida to'g'ri joylashtirish uchun vaqt va masofa tamoyillari qat’iy belgilangan.

Uch soniya qoidasi. Basketbolchilar ko'pincha nogironlar aravachasiga halaqit berish orqali raqiblarini kechiktiradilar. Ular maydondagi harakatlarini sekinlashtirishga harakat qiladilar. Bunday hollarda hakamlar hay’ati vakili sportchi ortda qolishga urinayotgan paytda qoidabuzarlikni qayd etuvchi hushtak chalmaslik huquqiga ega. Belgilangan qoidalarga ko'ra, himoyachi nogironlar aravachasini

ushlab turgani uchun qo'pollik bilan jazolanishi mumkin. Jazo hujumchini cheklangan hududga joylashtirishni taqiqlash bo'lishi mumkin. Bu holat to'p to'pni maydon tashqarisiga chiqarib yuborayotgan sportchiga uzatilgunga qadar amal qiladi. Boshqa harakatlarga yo'l qo'yilmaydi, aks holda to'p tashlash huquqiga ega bo'lgan jamoa uchun darhol qoidabuzarlik qayd etiladi. Himoyachi uloqtirayotgan o'yin ishtirokchisining maydoniga bostirib kirib, uning qo'li bilan fol qilganda, qoidabuzarlik darhol amalga oshiriladi. Hakamlarga o'yinchiga o'zining dastlabki holatini tiklashga yordam berish taqiqlanadi. Bunday harakatlarga faqat kamdan-kam hollarda, basketbolchi sport aravachasidan tushib qolganda va o'yin jarayoniga to'siqlar paydo bo'lganda ruxsat etiladi.

Mutaxassislarning fikricha, bir qator yangiliklar tanlovni yanada qiziqarli qilgan. Bu katta g'ildiraklarning diametrini (69 sm) oshirish, uch g'ildirakli aravachalardan foydalanishga ruxsat berish, kamarlarni mahkamlash va boshqalar uchun amal qiladi. Pastki roliklarning qo'shilishi sportchilarning orqa tomoniga tushishining oldini oladi. Ko'proq mutaxassislar to'pni FIBA standartlariga yaqinlashtirish uchun to'p urib yurish qoidalarini o'zgartirish zarurligi haqida gapirishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirjamolov M.X., Yunusov S.A., Svetlichnaya N.K. Paralimpiya harakati: o‘quv qo‘llanma – Chirchiq. 2019.

2. Sobirova L.B. Olimpiya va paramlimpiya tarixi va o‘yin qoidalari: o‘quv qo‘llanma – Toshkent. 2020.

3. Yusupova M.N. O‘zbekiston paralimpiya sport turlari orsasida aravacha o‘ynaladigan basketbolni rivojlantirish// “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”ga bag‘ishlangan “2021 yilda o‘tkazilga XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlari natijalari tahlili hamda keying olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik masalalari” xalqaro ilmiy anjuman.- Chirchiq. 2022.

TEXNOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTLARNING XUSUSIYATLARI

Isaqova Zuxra Rafikovna

Qo’qon davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi

Hozirgi zamon Texnologik ta'limi tizimi faqatgina XXI asr ilmiy-pedagogik tafakkurining natijasigina bo’lmay, balki uning poydevori insoniyat jamiyatining uzoq tarixi davomida to’plangan tajribasiga hamda olimlar, mutafakkirlar, pedagoglar ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mutaxassislarning mehnatlariga asoslangan. Markaziy Osiyoda, shuningdek hozirgi O’zbekiston hududida texnologik ta'limining tub asoslari bundan uch ming yil avval Avestoda bayon etilgan desak xato qilmaymiz. Lekin bu boradagi tajribalar bizda yetarli darajada o’rganilmagan. Shu bois, bugun butun dunyo, xususan Sharq xalqlarining tarixiy merosini zamonaviy texnologik ta'limi mazmuni va tuzilmasiga singdirilishini davr o’zi taqozo etmoqda.

Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida yoshlarning texnologik ta'limi va tarbiyasiga katta ahamiyat berib,. kasb-hunar o’rganishni jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy vositasi deb bilganlar.

Buyuk ajdodlarimiz aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya kasb-hunar sir-sinoatlarini egallashning asosiy omili deb talqin etganlar. Ular uchun inson timsoli kamolotga yetgan, ilmli yoki kasb-hunarga ega ijobiy fazilatlar sohibi bo’lgan. Misol uchun Kaykovus o’z farzandiga qarata:

“Ey farzand, ogoh bo’lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo’lur va hech kishiga naf yetkurmas.Bilursanki, xori mug’ilonning tani bordur, ammo soyasi yo’qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug’ilon yanglig’ na o’ziga va na o’zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo’lsa, ammo hunari bo’lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo’lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari bo’lmasa, undan batarroqdur. Jahd qilg’il, agar gavharing har

nechakim asl bo’lsa, unga g’arra bo’lmag’il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muayyan bo’lmasa, u hech narsaga arzimagusidur.

Ajdodlarimizning barkamol shaxs haqidagi g’oyalari mohiyatini anglash uchun Abu Nasr Forobiy tomonidan hozirgi paytda komil inson deb yuritilayotgan fozil odamning o’n ikki muhim fazilati yoki Alisher Navoiyning Farhod obrazi orqali talqin etgan:

“Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir”.

Fikrlarini tahlil etishning o’zi kifoya. Ular ma'naviy barkamollikka inson o’z mehnati bilangina erishishi mumkinligini baralla kuylaganlar, mehnat va kasb-hunarni inson hayoti va baxtining moddiy va ma'naviy asosi, deb bilganlar.

Burxoniddin az Zarnujiy ilm, kasb-hunar o’rganish uchun eng avvalo o’quvchida jiddiy xohish, qat'iyat bo’lishi lozimligini, shundan keyin yaxshi ustoz hamda yetarlicha vaqt zarurligini ko’rsatgan. Ibn Sino ilmu amalning birligi, ya'ni nazariya bilan amaliyotni uzviy bog’lash, dual ta'lim g’oyasini ilgari surgan.

Suqrotona savol-javob usuli (zig-zag, arra usulining asosi) bo’lib mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to’g’ri so’zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatgan.

Tibetdagi lamaizm ta'limoti asosida alohida sohalarga ixtisoslashgan ibodatxonalarda ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshirilgan. Bunda o’quvchi tomonidan uzluksiz, qayta takrorlash vositasida material to’liq yod olingan va uning natijasi o’ziga xos sinov ishlari, ya'ni o’quvchini bir necha vaqt davomida alohida ajratib qo’yib, o’zlashtirgan axborotlarini xotirasiga asoslanib yozib berish talab etilgan. Demak, ularning ruhiy, jismoniy irodalari qattiq sinovdan o’tkazilib, muvaffaqiyatga erishgan shogirdlargagina mustaqil faoliyat ko’rsatishlari uchun ruxsat berilgan.

Kasbiy ta'lim berish, kasb-hunar sir-sinoatlarini o’rgatish juda qadim zamonlarda paydo bo’lgan. Kasbiy malaka bevosita mehnat faoliyati jarayonida berilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning ixtisoslashib borishi, mehnat ko’nikma va malakalarining murakkablashuvi to’plangan mehnat tajribasi, jumladan tizimlashgan bilim, malakalarini ma'lum bir

tarzda avloddan avlodga o’tkazish zaruriyatini tug’dirdi. Bu ehtiyoj dastlab ustoz-shogird yo’li bilan tartibsiz, ya'ni xaotik tarzda amalga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan turli darajadagi va sohadagi kasb-hunar o’quv yurtlari paydo bo’ldi. Kasb-hunar ta'lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida dastlab Yevropada, so’ng Amerikada shakllandi. Kasbiy ta'lim maqsadlarini belgilab olish ta'lim metodlarini aniqlash, to’g’ri shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ya'ni ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o’qituvchi kasbiy faoliyatining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi.

Chunki u o’qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo’naltiruvchi omil, mo’ljal sifatida xizmat qiladi. O’quvchilar ongiga yetkazilgan ta'lim maqsadlari ularni o’quv-bilish faoliyati uchun mo’ljal bo’ladi va ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini ta'minlaydi.

Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning birinchi bosqichida o’qituvchi tayyorlanayotgan mutaxassisning yozma shakldagi moduli hisoblangan davlat ta'lim (tarmoq) standartini mukammal o’rganishi zarur. Undan so’ng o’quv rejasi o’rganilib, o’zi o’qitadigan o’quv predmetining o’rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi aniqlanadi. O’qituvchi shu yo’l bilan o’zi o’qitadigan o’quv predmetini o’qitishdan ko’zlangan umumiy maqsadni, mutaxassis faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarni aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shunday qilib, o’quv rejasiga kiritilgan har bir o’quv predmeti davlat ta'lim standartiga o’zining ma'lum ulushini qo’shib, bo’lajak mutaxassislarda ma'lum bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishni ko’zda tutadi. Bularsiz mutaxassis o’ziga yuklatilgan lavozimiy vazifalarni to’laqonli bajara olmaydi.

Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida o’qituvchi xususiy maqsadlarni aniqlab oladi. Bunda o’quv predmetining namunaviy dasturini tahlil etish asosida har qaysi bo’lim, bob va faslda mavzuga tegishli maqsadlar aniqlanadi. Aniqlangan maqsadga binoan o’quv materialining mazmuni va o’zlashtirilish rejasi darslik, o’quv qo’llanma va shu kabi manbalarda qanday yoritilganligi aniqlanadi.

Aniq maqsadni ko’zlamagan mashg’ulot samara bermaydi, chunki olingan natija bilan ko’zlangan maqsadni bir-biriga qiyoslab pedagogik jarayon (mashg’ulot)

samaradorligini aniqlash mumkin, xolos. Yetarli darajada aniq bo’lmagan maqsadsiz mashg’ulot ishtirokchilarning ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o’quvchilarni o’quv-bilish faoliyatiga undovchi rag’batning pasayishi, o’quv materiali, o’quv predmeti, tanlagan kasbiga nisbatan salbiy munosabatda bo’lishi kabilarga sabab bo’ladi.

An'anaviy ta'lim maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalashga intilgan. Masalan, qishloq ho’jalik mashinalari turkumiga mansub pluglarning tasniflanishini bayon etish. Bu bir tomonlamalikni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Ta'lim-tarbiya va o’quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadlarini ta'lim mazmuni, pedagog va o’quvchining faoliyati orqali ifodalash bu sohada kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo’lish imkonini beradi.

Maqsadni o’quvchilar xatti-harakatida ifodalanadigan aniq ko’rinadigan va o’lchanadigan natijalar orqali belgilash g’oyasi ilk bor R. Tayler tomonidan ilgari surilgan bo’lib, biz bu g’oyaga to’liq qo’shilamiz. Kasbiy ta lim maqsadi avvalo jamiyat va davlatning talab hamda ehtiyojiga binoan shakllantiriladi. Demak, u mashg’ulot (dars)ning ma'lum bosqichi maqsadidan to komil inson shaxsini shakllantirishgacha kengayib borishi mumkin.

Komil insonni shakllantirish jamiyatimizning oliy maqsadi bo’lib, u uzluksiz ta'lim jarayonida ta'minlanishi ko’zda tutiladi.

Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimining umumiy maqsadi quyidagi darajalarda aniqlashtirilishi mumkin:

1. Respublikamiz uzluksiz ta'limining global maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirish;

2. Oliy va o’rta maxsus ta'lim tizimining maqsadi – mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali, keng ixtisosli mutaxassis kadrlarni tayyorlash

3. O’quv predmetlarining maqsadi – aniq sohaga oid texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining mohiyatini yorituvchi bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish.

Mavzu (mashg’ulot, dars)ning maqsadi - ilmiy tushuncha, dalil, xulosalar tizimini shakllantirish.

4. Mashg’ulot dars bosiqichining maqsadi – motivlashtirish, shakllantirish, nazorat qilib baholash kabilar.

Amaliyotda maqsadlar vazifa sifatida ham talqin etiladi. Demak, maqsad va vazifa shunday aniq qo’yilishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq xulosa chiqarish imkoni mavjud bo’lsin. Buning uchun har bir vazifani shakllantirishda quyidagilarga amal qilish zarur:

- har bir vazifani (mashg’ulot)dars yakunida o’quvchi quyidagilarni bajara olishi lozim...”deb boshlang;

- har bir vazifani raqamlang;

- har bir vazifani quyidagi amallar bilan boshlang: sanab o’ting, so’zlab bering, ko’rsatib bering, tanlang, hisoblang va hokazo.;

- har bir vazifani o’quvchi so’zi bilan qo’ying;

- har bir vazifa faqat bitta natijani ko’zlasin, ikki yoki undan ortig’ini emas;

- har bir vazifani shunday qo’yingki, u “o’quvchining o’zini keyinchalik qanday.

To’laqonli kasbiy ta'lim maqbul vaqt davomida belgilangan o’quv materialini o’quvchilar tomonidan talab darajasida har tomonlama chuqur va puxta o’zlashtirilishini ta'minlab, jamiyat taraqqiyotiga o’zining munosib hissasini qo’shuvchi yuqori malakali, keng ixtisosli, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashni anglatadi. Bundan mehnat ta'limining aniq maqsadga yo’nalganligi kelib chiqadi. Ana shu maqsadga yo’nalganlik o’z navbatida jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, mehnat ta'limi o’ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Isakova Zukhra Rafikovna. (2022). CONDUCTING TRAININGS BASED ON THE USE OF THE “MENTAL ATTACK " METHOD. *Neo Science Peer Reviewed Journal*, *4*, 48–50.

2. IZ Rafikovna - FORMATION OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 4. 11. 2022. 1349-1352

3. 4. OB Usmanovich, IZ Rafikovna, MR Inomjonovich…SELECTION OF ACTIVE TEACHING METHODS IN TECHNOLOGICAL TRAINING SESSIONS. - International Journal of Early Childhood Special. 14. 7…, 2022.

5. IZ RAFIKOVNA - THE METHODS OF DEVELOPING MODERN TECHNOLOGY SKILLS AMONG GENERAL SECONDARY SCHOOL PUPILS. Scienceweb academic papers collection, 2021

6. IZ RAFIKOVNA - O EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION Scienceweb academic papers collection, 2021

7. I.Z Rafiqovna, DT Ganiyevich, AMA Qizi - TECHNOLOGICAL EDUCATION AND PROFESSIONAL CHOICE PLANNING… International Journal of Multidisciplinary Research and 2.03 …, 2022. 82-92.

8. IZ Rafikovna, B Toshpolatovich, MR Inomjonovich - THEORETICAL BASIS OF PREPARING FUTURE IT TECHNOLOGY TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY Web of Scientist: International Scientific Research 3.1, 2022. 803-812

9. IZ Rafikovna, MR Inomjonovich - … FORMATION OF STUDENTS'CREATIVE TECHNOLOGY, FOLK CRAFT SKILLS IN TECHNOLOGY COURSES FORMATION OF STUDENTS'CREATIVE TECHNOLOGY, FOLK CRAFT SKILLS IN TECHNOLOGY COURSES”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.2022

10 Usmanovich, Olimov Baxtiyorjon; Inomjonovich, Meliboyev Rahmatjon- GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING THE PREPARATION OF ITEMS AND PRODUCTS IN TECHNOLOGY IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. International Journal of Early Childhood Special Education. 2022, Vol. 14 Issue 7, p1623-1627. 5p

11. Z Isaqova, M Ikramova, M Abdusamatova. (2022**).**TO EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9 (12), 868-870

12. Исакова З. (2018). МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (12-4) 59-63

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’ZLASHTIRISHDA ORTDA QOLUVCHI O’QUVCHILARNING YUZAGA KELISHIGA OLIB KELUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Ernazarova Vazira Valijon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya yo’nalishi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi ta’lim tizimimizning aynan boshlang’ich sinf o’quvchilari o’rtasida kuzatiladigan o’zlashtirishda ortda qoluvchi va fan dasturlarini o’rganishda ba’zi sustkashliklarga duch kelayotgan o’quvchilarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladigan bir qator psixologik omillar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: psixika, jismoniy faollik, psixologik faollik, o’quv jarayoni faolligi, ijtimoiy faollik, xarakter, nutqiy affirmatsiya.

Maktab o’quvchilarining fan dasturlarini yaxshi o’zlashtirolmasligi bugungi ta’lim tizimi oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi. O’quvchilarning fanlarni yaxshi o’zlashtira olmasligi, o’z tengdoshlari bilan bir xil pozitsiyada ilmni egallashdagi qiyinchiliklar nafaqat pedagogik jihatdan o’rganiladigan muammo, balki bugungi kunda aynan o’zlashtirishda ortda qoluvchi o’quvchilarni psixologik va ijtimoiy jihatdan o’rganish ham maqsadga muvofiq ish sanaladi. O'rganishda orqada qolgan bolalar har doim pedagogika uchun muammo bo'lib kelgan, ammo so'nggi yillar ichida bu kabi muammolar barcha pedagog va psixologlarni o’ylantiradigan nafaqat yurtimizda balki butun dunyodagi ommaviy muammolar sarasiga kiritish mumkin. Uni hal etishga urinishlar shu yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilgan tashkiliy qadamlarda o‘z ifodasini topmoqda. Boshlang’ich sinf o’quvchilari asosan 6-7 yoshdan 10-11 yoshdagi o’quvchilarni o’z ichiga qamrab oladi va bu yoshdagi bolalar psixologiyada kichik maktab yoshidagi bolalar sarasiga kiradi. Bu yoshdagi bolalar endi o’yin faoliyatidan o’quv faoliyatiga o’tayotganligi sababli ularda bir qator psixologik muammolarni kuzatishimiz mumkin. Masalan ular tez chalg’iydilar,

uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta’sirchan hamda emotsional bo’ladilar va maktab qonun qoidalaroga amal qilishga qiynaladilar. Chunki birinchi sinf o’quvchilari 1 dars davomida partada o’tirishga qiynalishadi hamda o’qituvchi va yonidagi sinfdoshlari bilan bo’ladigan munosabatlar ham bu yosh toifasi uchun juda mushkuldek tuyiladi. Guruhda o’zlarini discomfort his qilishlari, yonidagi sinfdoshlari bilan yaxshi munosabat o’rnata olmasliklari ham bevosita o’quv faoliyatiga katta ta’sir o’tkazadi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchi faolligining asosan to’rt xil ko’rinishi mavjud bo’lib ular jismoniy, ijtimoiy, psixik va o’quv jarayonidagi faollikdir.

Jismoniy faollik- bola organizmining fiziologik jihatdan turli xatti-harakatlari qilishga bo’lgan tabiy sog’lom ehtiyojidir.

Psixik faollik- bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Ijtimoiy faollik- atrofidagi insonlarning munosabatlari, yonida bo’layotgan voqea-hodisalarni bilishga bo’lgan qiziqishidir.

O'quv jarayonidagi faollik-boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir. Bolaning o’quv jarayonidagi faolligiga to’siq bo’luvchi omillar 3 turga bo’linadi: pedagogic, psixologik va ijtimoiydir. Bulardan to bugungi kungacha pedagogic omil doim ham diqqat nazarida bo’lgan asosiy sabablardan biri edi amma o’quvchining bo’sh o’zlashtirishiga doim ham o’qituvchi yoki fanlarning nisbatan qiyinligini ayblash hozirgi zamonda umuman to’g’ri kelmay qoldi. Shu sababli olimlar o’quvchilarning psixologik xususiyatlari va uning ijtimoiy ahvolini ham o’rganishni taklif etishmoqda. Dars jarayonida o’quvchining fanlarni yaxshi o’zlashtirishiga sabab bo’ladigan omillar:

- Xarakter xususiyatlar bu yoshdagi bolalar ayniqsa 6-7 yoshdagi bolalar hali o’yin faoliyatidan to’laqonli uzulmaganligi maktabdagi tartiblar uni biroz tartibga solayotganligi uchun ham o’quvchi dars jarayonlarida qiynaladi. Tabiatan har bir bola o’zining xarakter xususiyatlariga ega ekanligini ham albatta inobatga olishimiz kerak.

Bundan tashqari ba’zi bir bolalar boshqa sinfdoshlari bilan munosabat o’rnatishda qiynalishlari mumkin. Ular o’zlarini yakka holda yaxshi his qilishlari yoki bo’lmasa bu holat ham o’quvchining emotsional holatiga va o’quv jarayoniga katta ta’sir o’tqazayotgan bo’lishi mumkin.

- Bola psixikasi. Avvalo 1 sinfga qabul qilinayotgan har bir o’quvchi tibbiy ko’rikdan va albatta psixolog ko’rigidan o’tishi kerakligi davlatimiz tomonidan belgilab qo’yilgan. Shunga ko’ra bolaning diqqat jamlay olishi, o’zini yaxshi anglay olgan bo’lishi, nutq, xotira, tasavvur va tafakkur jihatdan kerakli darajada rivojlangan bo’lishi talab qilinadi.

- Diqqatni jamlayolmaslik- kichik maktab yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi nafaqat o’qituvchi pedagogga, balki ko‘p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog‘liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ba’zi bir bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo‘lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o‘zlarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o‘tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya’ni ma’lum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik mashg‘ulotlarda intizom buzish, fanlarni yaxshi o’zlashtira olmaslik va yonidagi sinfdoshlariga xalaqit berishga olib keladi.

- Nutqdagi affirmatsiyalar- Chuqur nutqdagi kamchiliklarga ega bolalar asosan maxsus maktablarda ta’lim olishadi. Ammo hissiy emotsional holatlar bilan bog’liq nutqdagi kamchilikka ega bolalar ham ma’lum bir sabablarga ko’ra(sinfdoshlarining kulishidan qo’rqishi, o’qituvchining bosimi) o’z nutqini yaxshi yetkazib bera olmasligi dars faoliyati jarayoniga ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu kabi bolalar odatda tez hayojonlanishi yoki tez fikrlashi natijasida mana shunday kamchiliklarga duch kelishadi.

- Xotira xususiyatlari- 6-7 yoshdagi bolalarda ko‘proq obrazli xotira rivojlangan bo‘ladi va ular eshitgan narsalariga nisbatan ko‘rgan narsalarini ko’proq eslab

qoladilar. Uning asosiy sababi, bu yoshdagi bolalarning idroklari konkret obrazli xarakterga ega. Bolalar juda ko‘p narsalarni asosan turli o‘yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko‘pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo‘ladi, bu esa eslarida olib qolingan narsalari ma’lum bir sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo‘lgan tartibsizlikni yo‘qotish va xotirasini o‘stirish juda ko‘p jihatdan pedagog, psixologlarga bog‘liqdir.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining fanlarni to’liq o’zlashtira olmasligiga olib keluvchi bir qator psixologik muammolarni ko’rib chiqdik. Bu kabi psixologik muammolar istalgan yoshdagi insonlarda ham uchrashi mumkin. Bu kabi o’quvchilarga nafaqat pedagog o’qituvchilarning ko’maki balki maktab psixologlarining ham qat’iy nazorati talab qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki bu turdagi muammolarni barchasini psixolog bilan olib boriladigan mashqlar natijasida bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1 Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi.,, O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi”. Toshkent 2006

2 V.V.Ernazarova Ta’lim psixologiyasi va uning amaliy ahamiyati. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. April - 2023 ISSN (E): 2720-5746. 366-369

3 N.J.Eshnaev, V.V.Ernazarova. Globalization and its social psychological issues. *Science and innovation international scientific journal volume 2. 1 january 2023.* 200-202

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudova Oybarchin Axatovna
Ta’lim kafedrasi v.b. dotsenti
Xaydarova Iroda O'tkurovna
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlaydigan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda ta'lim texnologiyalarining muhim rolini o'rganadi. Samarali ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olgan pedagoglar o'z ta'lim usullarini yaxshilashlari, o'quvchilarni faolroq jalb qilishlari va optimal o'quv muhitini yaratishlari mumkin. Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalari maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shishning turli usullari, jumladan, axborot va resurslardan foydalanish, interfaol ta'lim, shaxsiylashtirilgan ta'lim, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, muloqot va hamkorlik, ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashni ko'rib chiqadi.

Annotation: This article examines the impornant role of educational technologies in improving the professional skills of pedagogues working in preschool educational organizations. Educators who incorporate effective learning technologies can improve their teachning methods, engage students more actively, and create optimal learning environments. This article explores the various ways in which educational technology can contribute to the professional development of preschool teachers, including access to information and resources, interactive learning, personalized learning, professional development opportunities, communication and collarobation, and data analysis. And reviews the assessment.

Kalit so’zlar: Ta’lim texnologiyalari, Kasbiy mahorat, Pedagoglar, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, Kasbiy rivojlanish, Muloqot va hamkorlik.

Kirish: Ta'lim tex, nologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasida inqilob qildi, o'qitish va o'rganish tajribasini oshirish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va pirovardida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning turli usullarini o‘rganadi.

1. Axborot va resurslardan foydalanish: Ta'lim texnologiyalari pedagoglarga ko'plab ta'lim resurslaridan oson foydalanish imkonini beradi. Onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar, o'quv materiallari va dars rejalari pedagoglarga eng so'nggi ta'lim amaliyotlaridan xabardor bo'lish va o'qitishga dalillarga asoslangan strategiyalarni kiritish imkonini beradi.

2. Interfaol ta’lim: Interfaol doskalar, ta'lim dasturlari va multimedia resurslari kabi texnologik vositalar interfaol va qiziqarli darslarni osonlashtiradi. Pedagoglar ushbu vositalardan maktabgacha yoshdagi o'quvchilar o'rtasida faol ishtirok etish, hamkorlik va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va shu bilan yanada samarali o'quv jarayonini rivojlantirish uchun foydalanishlari mumkin.

3. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Ta'lim texnologiyalari shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi uchun imkoniyatlarni taklif qiladi. Moslashuvchan ta'lim platformalari va raqamli baholash pedagoglarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning taraqqiyotini kuzatish va shunga mos ravishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv pedagoglarga maktabgacha yoshdagi o'quvchilarning turli xil ta'lim uslublari va qobiliyatlarini qondirish uchun o'qitish usullarini moslashtirishga yordam beradi.

4. Kasbiy rivojlanish: Onlayn platformalar va ta'limni boshqarish tizimlari pedagoglarga malaka oshirish kurslari va seminarlariga kirish imkonini beradi. Bu imkoniyatlar ularga yangi o'qitish strategiyalarini egallashga, muayyan sohalar bo'yicha bilimlarini oshirishga va erta bolalik ta'limining rivojlanayotgan tendentsiyalaridan xabardor bo'lishga imkon beradi.

5. Muloqot va hamkorlik: Ta'lim texnologiyalari pedagoglar, ota-onalar va maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, videokonferensaloqa vositalari va ijtimoiy media guruhlari pedagoglarga fikr almashish, ilg‘or tajriba almashish va tengdoshlaridan yordam so‘rash imkonini beradi.

6. Ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash: Ta'lim texnologiyalari pedagoglarni ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash vositalari bilan ta'minlaydi. Pedagoglar talabalarning taraqqiyotini kuzatishi, yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashi va o'qitish usullarini yaxshilash uchun ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishi mumkin. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, ota-onalar va ma'murlar uchun keng qamrovli hisobotlarni ishlab chiqishda, shaffoflik va javobgarlikni oshirishda yordam beradi.

7. Aralashtirilgan ta'lim yondashuvi: Ta'lim texnologiyalari an'anaviy sinfdagi o'qitishni raqamli resurslar bilan birlashtirib, aralash ta'lim yondashuvini osonlashtiradi. Pedagoglar yuzma-yuz o'qitishni to'ldirish uchun onlayn modullar, video darsliklar va interfaol tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olgan holda yanada moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasiga imkon beradi.

8. O‘yinlashtirish va o‘rganish ilovalari: Ta’lim texnologiyalari ko‘pincha maktabgacha ta’lim uchun mo‘ljallangan o‘yin elementlari va o‘quv dasturlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu interaktiv va qiziqarli vositalar yosh bolalar uchun o'rganishni qiziqarli va qiziqarli qiladi. Pedagoglar kontseptsiyalarni mustahkamlash, faol ishtirokni rag'batlantirish va muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'yin faoliyati va ta'lim ilovalaridan foydalanishi mumkin.

9. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): VR va AR texnologiyalari maktabgacha ta’limga katta foyda keltirishi mumkin bo‘lgan chuqur o‘rganish tajribasini taklif etadi. VR garnituralari yoki AR ilovalaridan foydalangan

holda pedagoglar o‘quvchilarni virtual sayohatlarga olib chiqishlari, tarixiy joylarni o‘rganishlari yoki 3D modellar bilan muloqot qilishlari mumkin. Ushbu texnologiya talabalarning faolligini oshiradi va kirish qiyin bo'ladigan tajribaviy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

10. Ko'p tilli qo'llab-quvvatlash: Ta'lim texnologiyalari ko'pincha ko'p tilli yordamni ta'minlaydi, bu esa pedagoglarga maktabgacha yoshdagi o'quvchilarning turli lingvistik kelib chiqishini qondirishga imkon beradi. Til o‘rganish ilovalari, tarjima vositalari va subtitrlar turli tillarda o‘qitish va materiallarni yetkazib berishga, inklyuzivlikni rivojlantirishga va tilni o‘zlashtirishni osonlashtirishga yordam beradi.

11. Maxsus ehtiyojlar uchun ta'lim: Ta'lim texnologiyalari alohida ehtiyojli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitishni qo'llab-quvvatlashning qimmatli vositalaridir. Yordamchi texnologiyalar, aloqa moslamalari va moslashuvchan o‘quv platformalari pedagoglarga inklyuziv sinflarni yaratishda yordam berishi va nogiron bolalarga moslashtirilgan yordam ko‘rsatishi, ularning ta’lim va rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

12. Ma'lumotlarga asoslangan ta'lim: Ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning faoliyati, taraqqiyoti va faolligi haqida qimmatli ma'lumotlarni yaratadi. Pedagoglar ushbu ma'lumotlarni individual va guruhli ta'lim shakllari haqida tushunchaga ega bo'lish, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va shunga mos ravishda o'qitish strategiyalarini o'zgartirish uchun tahlil qilishlari mumkin. Ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatmalardan foydalangan holda, pedagoglar o'quv tajribasini optimallashtirish va talabalar muvaffaqiyatini rag'batlantirish uchun asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

13. Uzluksiz kasbiy rivojlanish: Ta'lim texnologiyalari pedagoglarga doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Onlayn kurslar, veb-seminarlar va virtual konferentsiyalar pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun qulay va qulay yo'llarni taqdim etadi. Bundan tashqari, erta bolalik ta'limiga bag'ishlangan onlayn jamoalar va ijtimoiy media platformalari pedagoglarga mutaxassislar bilan bog'lanish, fikr almashish va professional munozaralarda qatnashish imkonini beradi.

14. Raqamli baholash va fikr-mulohazalar: Ta’lim texnologiyalari pedagoglarni o‘quvchilar faoliyatini baholash jarayonini tartibga soluvchi raqamli baholash vositalari bilan ta’minlaydi. Onlayn viktorinalar, interfaol baholashlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari vaqtni tejaydi va pedagoglar va talabalarga tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Bu pedagoglarga kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, maqsadli fikr-mulohazalarni bildirish va shunga mos ravishda o‘z ta’lim strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi.

15. Professional ta'lim tarmoqlari: Ta'lim texnologiyalari pedagoglarga o'zlarining bevosita maktabi yoki tashkilotidan tashqari boshqa o'qituvchilar bilan bog'lanish va hamkorlik qilish imkonini beradi. Erta bolalik ta'limiga bag'ishlangan onlayn platformalar, forumlar va ijtimoiy media hamjamiyatlari pedagoglarga fikr almashish, ilg'or tajribalarni almashish va professionallarning global tarmog'idan maslahat olish imkoniyatini beradi. Ushbu hamkorlik muhiti uzluksiz o'rganish va professional o'sishga yordam beradi.

16. Raqamli portfellar: Ta'lim texnologiyalari maktabgacha yoshdagi o'quvchilar uchun raqamli portfellarni yaratish va saqlashni osonlashtiradi. Raqamli portfoliolar pedagoglarga o'quvchilarning yutuqlari, yutuqlari va o'quv artefaktlarini hujjatlashtirish va namoyish qilish imkonini beradi. Bu nafaqat pedagoglarga o'quvchilarning individual o'sishini kuzatishga yordam beradi, balki ularga o'quvchilarning yutuqlari haqida ota-onalar va ma'murlar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

17. Masofaviy ta'lim va foydalanish imkoniyati: Ta'lim texnologiyalari so'nggi paytlarda masofaviy ta'limga o'tish bilan yanada ahamiyatli bo'ldi. Buzilish davrida yoki o'quvchilar maktabgacha ta'lim muassasasiga jismonan bora olmaganlarida, pedagoglar raqamli platformalar, video konferentsiya vositalari va onlayn resurslardan ta'lim berish va mashg'ulotlarni davom ettirish uchun foydalanishlari mumkin. Ta'lim texnologiyalari, shuningdek, geografik, jismoniy yoki boshqa cheklovlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun qulaylikni yaxshilaydi va har bir bolaning sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

18. Texnologiyadan axloqiy va mas'uliyatli foydalanish: Pedagoglar ta'lim texnologiyalarini o'z o'qitish amaliyotiga kiritar ekan, texnologiyadan axloqiy va mas'uliyatli foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Pedagoglar talabalarga raqamli fuqarolik, onlayn xavfsizlik, maxfiylikni himoya qilish va internetdan mas'uliyat bilan foydalanish haqida ma'lumot berishlari kerak. Raqamli savodxonlik va texnologiyadan mas'uliyatli foydalanishni targ'ib qilish orqali pedagoglar maktabgacha yoshdagi o'quvchilarni raqamli dunyoda harakat qilish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlaydilar.

19. Ota-onalarning ishtiroki va muloqoti: Ta'lim texnologiyalari pedagoglar va ota-onalar o'rtasida uzluksiz muloqotni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, xabar almashish ilovalari va elektron pochta muntazam yangilanishlarni, o'quv resurslarini almashishni va ikki tomonlama aloqani ta'minlaydi. Bu pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, bolalarning o'qishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga hamkorlikda yondashuvni rivojlantiradi.

20. Tadqiqot va innovatsiyalar: Ta’lim texnologiyalari pedagoglarni erta yoshdagi bolalar ta’limi sohasidagi tadqiqotlar va innovatsiyalardan xabardor bo‘lishga undaydi. Rivojlanayotgan texnologiyalarni o'rganish orqali pedagoglar yangi vositalar, pedagogik yondashuvlar va dalillarga asoslangan amaliyotlarni kashf etishlari mumkin, ular o'zlarining o'qitish usullarini yaxshilaydi va talabalar natijalarini yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim texnologiyalarining integratsiyalashuvi pedagoglarga o‘z kasb mahoratini oshirishda ko‘plab imkoniyatlar yaratadi.Ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish orqali pedagoglar yosh bolalar uchun qiziqarli, shaxsiylashtirilgan va inklyuziv ta'lim tajribasini yaratishi mumkin, bu esa ta'lim natijalarini yaxshilashga va umumiy kasbiy o'sishga olib keladi. Ta'lim texnologiyalarini o'rganish, o'qitish va qo'llab-quvvatlashni davom ettirish pedagoglarga rivojlanayotgan ta'lim landshaftiga moslashish va maktabgacha yoshdagi o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish imkonini beradi.

ERTAKLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI

Esonov Rustam Raxmonali o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Ertak — xalq ogzaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; O’qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy harakterdagi epik badiiy asar.

Kalit so‘zlar: ertak, yaxshilik, saraguzasht, qahramon, marosim.

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo‘lishida qadimiy urf – odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o‘rin tutgan.

Ertak atamasi Mahumd Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, (“Turkiy so‘zlar to‘plami”) asarida uchraydi va biror voqeani og‘zaki hikoya qilish ma’nosini bildiradi.

Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, mubolag‘a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E'tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g‘alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzuumidlarini, manfaatini ifodalaydilar. Sehrli-fantastik ertaklarning o‘ziga xosligi ulardagi personajlarning alohida aniq nom bilan atalmasligida ham ko‘rinadi. Zero, bu personajlarning aksariyati biror belgisiga ko‘ra laqab bilan ataladi, laqab ularga ko‘chma nom vazifasini o‘taydi: qilich botir, Kenja botir, No‘xat polvon kabi. Bunda ibtidoiy jamiyatda asl nomni yovuz kuchlardan sir tutib himoya qilish e'tiqodi izlari saqlab qolingan.

“Hayot haqiqat bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi”. Ertkalarda xayoliy uydirmalar asosiy o‘rinni egallaydi. Ular o‘ziga xos qurilishi bilan ham ajiralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Bu

janrning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, mubolag‘a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalanadi, Ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi.Chunki ertaklar xalq orzu-umidlarini, manfaatlarini ifodalaydilar.

“Ertak janri ham foklorning janri kabi ijtimoiy-hayotiy, sosal-siyosiy mundarajaga ega to‘la yoki qisman badiiy fantaziyadan foydalanish orqali uzoq asrlardan buyon xalq kurashi orzu-umidi intilishlari bilan bog‘liq holda yashab kelayotgan xalqimizning ma’naviy yuldoshidir”. Chunki har bir davlatning o‘tmishini ko‘rsatib turadigan ko‘zgusi mavjid bo‘ladi agar biz ertak atamasiga e’tibor bersak bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi “qadimgi ”, “avvalgi” degan ma’nolarni anglatishini bilib olamiz. O‘tgan zamonda bo‘lgan voqealar, hodesalar haqida bayon etish ma’nosida ertaki degan termin ishlatilgan. Adabiy tilimizda “ertak” termini qabul etigan bo‘lsada, Surxandaryo, Samarqand vilaoyatlarining ba’zi tuman va qishloqlarida “ertak” termini o‘rnida “matal” ham deyiladi. Farg‘ona viloyatining ba’zi til shevalarida metal, ba’zi shevalarida ertak termini ham mavjud. Buxoroning Qorakul va Rometon tuman va qishloqlarida ikki tilda (o‘zbek va tojik tilda) so‘zlashuvchi aholi orasida ertak “shuk” yoki “ushuk” ham deyiladi. Toshkent shahri va uningatroflarida ertak termini o‘rnida “cho‘pchak” termini ham ishlatiladi. Ertak cho‘pchak terminlaridan boshqa o‘zbeklar orasida hikoya, cho‘rchak, afsona, o‘trik, total kabi terminlar ham yuradi.

“Cho‘pchak” yoki “cho‘rchak” so‘zining afsona, ertak, va masal ma’nolarida ishlatilganligini Alisher Navoiy asarlarida uchratamiz. “Habibim husun vasfin o‘yla muhlik onglakim, bo‘lg‘ay Qoshinda qissasi Yusuf bir uyqu kelturur cho‘pchak”[1].

Aytib o‘tganimizdek ertakning bir necha turlari mavjud edi shunga ko‘ra “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi hayotiy-mayishiy ertaklar turiga kiradi. Ertakning voqealari juda qiziqarli bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o‘qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarizda tasvirlanadi, asar qahramonlari

[1] AlisherNavoiy, Xazoyinul- maoniy, IItom , “Navodir ush - shabob”, 323 g‘azal , O‘zbekiston fanlar akademiyasi T., 1959, 321-bet.

hayvonlar bo‘lsa-da, voqealar odamlar turmishi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari - bo‘ri, tulki sher, parranda va hasharotlar xuddi odamlardek harakat qiladilar, gapiradilar.

Xalqimizda birovning salbiy qilig‘i, muomilasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog‘i, birovning aybini ko‘rsatib tanbeh berishdan ko‘ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema’ni xulqli odamni yaxshi yo‘lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar qo‘l keladi.“Susambil” ertagi o‘z mazmuni bilana shunday asarlardan biridir. Bu ertak o‘zbek xalaq ertaklari orsida tili tasvir jozibasi, mavzusining muhimligi bilan ajiralib turadigan asar.Avvalo, ertakda xalqimizning adolat va farovonlik hukm suradigan zamonlar haqidagi orzulari aks etgan.

Deyarli barcha ertaklardagi umumiy jihatshundaki, ushbu janrga mansub asar qahramonlari og‘ir vaziyatga tushibqolganlarida. chigal muammoga duch kelganlarida ularga qayerdandirmadad yetib keladi. J.Rodarining “Hurishni eplolmagan kuchukcha” va“Shahzoda Plombir” ertaklari ham ana shunday voqealar zaminiga qurilgan.

H. K. Andersen ijodidagi “Bulbul” ertagi ham buyuk ertakchi yaratgango‘zal asarlardan biridir. Bu ertakni go‘zallik va ezgulikni ulug‘lovchi, soxtalik va qabihlikni qoralovchi, uning inqirozi muqarrarligi haqidagiasar, desak yanglishmaymiz.

Ya’ni, dunyodagi har bir mavjudot, ayniqsa, inson, avvalo, o‘zini, o‘zligini tanimaguncha, kimning avlodi ekani, asosiyvazifasi nimadan iborat ekanini anglamagunga qadar hayotda o‘z o‘rnini hech qachon topa olmaydi.

Ertaklar olami qay davlatda bo’lmasin doimo insonni yaxshilikka, bilim olishga, mehnat qilishga va yovuzlikka qarshi kurashishga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки прозаси. –Т.: “Фан” 1981.

2. “Bolalar adabiyoti” (O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan.

3. O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati

4. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ ертаклари поэтикаси. -Т.: “Фан” 1976.

5. Jumaboyev M. O'zbek bolalari adabiyoti, - T.: O'qituvchi 2002y.

6. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., 2008y

“NAHJ-UL-FARODIS” ASARIDA HIKOYAT JANRI

Sulaymanov Zaxiriddin Ural o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy unversiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
tayanch doktaranti
sulaymonovzaxiriddin@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sharq mumtoz adabiyotida nasriy didaktik asarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, agiografik yo‘nalishda yozilgan asarlardagi hikoyat janri ta’rif berilgan, o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Janr taraqqiyoti, badiiy xususiyatlari, kompozitsion qurulishidagi “Nahj-ul-farodis” asari misolida ochib berilgan. Shu o‘rinda muallif mahoroti masalasiga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘z va iboralar. Nasriy didaktik asar, janr, agiografiya, hikoyat, hikoya, hadis, kompozitsiya.

Annotation. The article focuses on the emergence and development of the prose didactic work in Eastern classical literature. Also, the narrative genre in the works written in the hagiographic direction is defined, and its characteristics are revealed. The development of the genre, its artistic features, and its compositional structure are revealed on the example of the work "Nahj-ul-farodis". At this point, attention is paid to the issue of the author's skill.

Keywords and phrases. Prose didactic work, genre, hagiography, story, narrative, hadith, composition.

Аннотация. В статье рассматривается возникновение и развитие прозаического дидактического произведения в классической восточной литературе. Также определен повествовательный жанр в произведениях, написанных в агиографическом направлении, и раскрыты его характеристики. Развитие жанра, его художественные особенности, композиционная структура раскрываются на примере произведения «Нахдж-уль-Фародис». На этом этапе внимание уделяется вопросу мастерства автора.

Ключевые слова и фразы. Прозаическое дидактическое произведение, жанр, житие, рассказ, повествование, хадис, композиция.

Bilim avvalgilarni o‘rganish va tafakkur natijasida paydo bo‘ladi. Bugungi zamonaviy adabiyot ham mumtoz adabiyotning sarchashmalaridan vujudga kelgan, sayqallangan. Faqat bu ilmiy rivojlanish har bir davrda turli sabablarga ko‘ra har xil o‘sishda bo‘lgan. “Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasixat, o‘git, ta’lim-tarbiya ruhida didaktik asarlar yozish an’anasi XI asrda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bilan boshlandi. Keyinroq sharqda Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” (XII-XIII), Kaykavusning “Qobusnoma” (XII-XIV), Shayx Sa’diyning “Guluston” (XIII) asarlari aql va hikmat darsligining davomi sifatida paydo bo‘ldi”[2] Sharq adabiyotida bu yo‘nalishda asar yozish aslini olib qaraganda oldindan xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan. Ular turli didaktik mavzularni o‘z ichiga qamrob olgan, xususan, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi umumiy g‘oya asosida turli tuman asarlar yaratilgan, o‘z o‘rnida bu asarlar turli janrlar orqali ifodalangan. O‘rta asrlarda nasriy janrda asarlar yozishda bir muncha yutuqlar ko‘zga tashlandi, sababi bu janrda ijod qilish oddiy xalq uchun tushinarli va o‘ylangan fikrni ifodalash osonligida edi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim N. Jabborovning fikrlari o‘rinli: “Ma’lumki, muayyan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikr bayonidan so‘ng unga mos hikoyat keltirish uslubi Sharq adabiyotining xos xususiyatlaridan. Sa’diyning “Guluston”, Jomiyning “Bahoriston” asarlari xuddi shu uslubda yozilgan”[3]. Nafaqat bu asarlar XIV asrda Oltin O‘rda hududida turkiy tilda yaratilgan Mahmud Ali Kardariyning “Nahjul farodis” (Jannatlarning ochiq eshiklari) asari ham shu uslubda yozilgan bo‘lib aksariyat hikoyatlardan iborat.

Hikoyat - musulmon Sharqi adabiyotidagi o‘ziga xos bir adabiy hodisa. U voqeabandlikka asoslanadi. Yani hikoyat deyildimi, u epik harakterga ega bo‘lishi shart. Hikoyat alohida janr emas. Ya’ni biron-bir asarni ko‘rsatib, uning hikoyat janrida yozilgan deya olmaymiz. Odatda hikoyat muayyan asarning tarkibida keladi.

[2] Тожибоева М. А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 172.

[3] Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 179.

Shuning uchun “hikoyat” atamasini hozirgi ma’nodagi “hikoya” atamasi bilan bir xil tushuncha deb atamaslik kerak. Shuning uchun ham O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “Hikoya” degan alohida, “Hikoyat” degan alohida maqolalar bor.

Hikoya - mustaqil adabiy janr, ya’ni: “badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar”[4]ni anglatadi. Biroq uning yuzaga kelishida hikoyatlarning sezilarni o‘rni va tasiri bor. Boshqacha aytganda, hikoya-hikoyatning ravnaqi natijasida yuzaga kelgan janr. Chunki hikoyatda ham, xuddi hikoyadagi kabi, nisbatan kichik bir voqelik tasvir va bayon obyekti qilib olinadi. Adabiyotshunoslikda hikoya janri keng o‘rganilgan. Biroq forsiy va turkiy adabiyotdagi hikoyat xususiyatlari o‘rganilgan tadqiqotlar u qadar ko‘p emas.

Shu narsaga aniqlik kiritib ketishimiz kerakki, forsiy va turkiy mumtoz adabiyot namunalarida hikoyatlar asar ichidagi asar tarzida keladi. Yani hikoyatdagi syujetning asosiy syujet voqealariga bevosita aloqadorligi bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, aksariyat xollarda asosiy asardagi biror g‘oya tarbiya uchun illyustratsiya vazifasini o‘taydi. Ya’ni hikoyat o‘sha fikr-g‘oyaning hayotiy isboti uchun keltiriladi yoki tushinish qiyin bo‘lgan voqea izohlanadi. Hikoyatda asosiy asar qahramonlariga bog‘liq bo‘lmagan butunlay boshqa qahramonlar ishtirok etaveradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hikoyatga quyidagicha ta’rif bersak bo‘ladi: Hikoyat – ko‘hna adabiy janrlardan biri bo‘lib, qahramonning hayotidagi bitta yoki bir necha voqea tasvirlanadi. Bazan bu janrda hikoyachi obrazi ham ishtirok etadi. Mumtoz adabiyotdagi hikoyatga nisbatan hajman katta bo‘lib, kompozitsion jihatdan voqealarning kengaytirilgan shakli, voqealar bayoni ham davomli bo‘ladi, syujetning barcha qismlari amal qiladi.

“Nahjul-farodis” asarida hikoyatni keltirishda oldin maskur hikoyat ishtirok etgan faslning nomini keltiradi: “*Amri maruf taqi naxyi munkar fazoyilining bayoni ichinda turur*” deya nomlangan maskur faslni Imom Bag‘aviy *rahmhi* “Mashobih” nomli kitobidan mavzuga mos hadisni Payg‘ambar (s.a.v) dan keltirish bilan boshlaydi va hadisni Mahmud Ali sharxlaydi: Sharxning ma’nosi shuki, Payg‘ambar

[4] Ўзбекистон миллий энсиклопедияси. 11 жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 330

s. a. v. ning aytishicha, qaysi biringiz biron yomon ishni ko‘rsangiz, o‘sha ishni qo‘lingiz bilan o‘zgartiring, yani maqul harakat bilan o‘sha ishni bartaraf qilinglar. Agarda maqul harakatlar bilan bartaraf etishga kuchlaringiz yetmasa, tilingiz bilan, bu yomon ishdir, bu ishni qilmang, deb ayting. Yoki bu ishni qo‘l bilan yoki til bilan bartaraf qilishga qo‘rqsangiz, ko‘nglingiz o‘sha ishdan nafratlansin.

Bu sharhdan malum bo‘ladiki, yomon ishlarni qanday usullar bilan bo‘lmasin, bartaraf qilish lozim. Ayniqsa, boshqa chora qolmaganda, individual tarzda bo‘lsa ham, ko‘ngilning yomon ishdan nafratlanishi hikoyatning moxiyati teranligini ko‘rsatadi.

Shuni alohida takidlash kerakki, hadislarni keng kitobxon ommasi tushuna oladigan qilib sharhlash o‘z davridagi Oltin O‘rdaning ijtimoiy va madaniy muhitidan kelib chiqqan holda, ya’ni hali hadislar va islomiy aqidalar yetib bormagan o‘lkalarda xalq bularning ma’nosini qiyinchiliksiz tushunib olishlari uchun qilingan edi.

“Nahjul-farodis” asari muallifi yuqoridagi hadisning mazmunini kitobxon qiyinchiliksiz tushunib olishi uchun amri maruf va naxyi munkar iboralarining mazmunini izohlaydi: “Amri ma’ruf ma’nisi adgulukka buyurmak (ya’ni ezgu ishlarga davat qilmoq – Z.S.) *bo‘lur taqi nahyi munkar ma’nisi yamanlikdan yig‘maq* (ya’ni yomonlikdan qaytarmoq – Z.S) bo‘lur”. Shundan keyin quyidagi hikoyat keltiriladi:

Bir shayxning mahallasida bir qassob bor erdi. Shayx o‘sha qassobga aytar edi kim: “Uyimda bir mushugim bar. Bu go‘shlarning g‘uddalarini yig‘ib bizning mushukka olib borgil deyar erdi (g‘udda deb etning bezlarina ayturlar. - takid bizniki - Z.S.) Ul qassob doim shunday qilar erdi. Bir kun bu qassobning yomon ish qilganini shayx ko‘rdi, shayx qassobga jazo bermoqchi bo‘ldi. Avval borib o‘sha mushukni uyidan xaydab yuborib, maxalladagi bir odamga berdi. Undan so‘ng o‘sha qassobga jazo berdi, o‘sha qassob aytdi: “Men bugundan so‘ng sizga mushugingiz uchun xech g‘udda bermayman, tedi, shayx aydi O‘sha mushukni sen aytmasingdan oldinroq uyimdan quvib yubordim, undan so‘ng sen bilan shunday muomala qildim, tedi”[5].

[5] Nehcül feradıs. II. Metın.Turk Dil yayihlari: 518. – S. 216

“Nahjul-farodis”dagi bu hikoyatdan anglashiladigan mazmun shuki, qassob yomon ish qilgani uchun shayx, xadisda keltirilganiday, qassob bilan munosabatlarni to‘xtatdi, maqul harakat hamda tili vositasida qassob bilan aloqasini bartaraf qildi. Ammo munosabatlar to‘xtashi bilan mushuk ham kundalik nasibasidan bebaxra qolayotganday bo‘ldi. Shayx yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeani oldindan bilardi. Shu bois avvaliga mushuk jabr ko‘rmasligining yo‘lini qildi - uyidan quvib yubordi. Ana shundan keyin shayx qassobni jazolab, u bilan aloqasini uzdi. Bu hikoyatning badiiy mazmuni bo’ladigan bo‘lsa, bu badiiy mazmunni anglatish uchun hech qanday ortiqcha badiiy detal qo‘llanmayapdi, bu muallifning hikoyat kompozitsiyasining mukammal tuzulganligidan dalolat beradi.

“Nahjul-farodis”dagi hikoyatlarning hadislarga muvofiq maqsadini, asar tarkibidagi vazifasini va ijtimoiy ahamiyatini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun asarning ikkinchi bobi ikkinchi faslidagi xalifa Umar xaqidagi hikoyatni eslash kifoya.

Abu Bakr vafot etganidan keyin xalifa Umar xalifalik taxtiga o‘tirdi va minbarga chiqib Ollohdan so‘raganlari quyidagilar bo‘ldi: 1. Javonmardlik. 2. Xush xulqlik. 3. Kuch-quvvat. Umar Olloxga iltijo qilib yuqoridagi fazilatlarni ato qilishni so‘ragandan keyin, o‘sha iltijolaridan so‘ng quyidagi hikoyat keltiriladi:

Yana avval bo‘ldi ersa, o‘g‘li Abdulloh aydi: “Ey bobom, bu jumada, iroqdin, yaqindin o‘qish sahobalar kelgay. Taqi to‘ningiz yo‘g‘in sufdin turur, taqi eski turur, taqi o‘kush yamaqlari bor. Tizinda edimdin yamaq qilib turur erdi, taqi ikki egninda ham edimdin yamaq qilip turur erdi. Emdi siz xalifa bo‘ldingiz, Payg‘ambar s.a.v. erinda o‘ltirdingiz. Kerakkim sizga sahoba haqorat ko‘zi bila baqmasa (xush ko‘z bila baqmasa temak bo‘lur). Bu menim to‘nim kidip minbarga insangiz, bo‘lg‘aymi?” tep o‘qish darxostlar qildi, ersa, o‘g‘li “Abdullohning to‘nini kidip, juma namoziga bordi, taqi minbarka mindi, taqi xutba o‘qidi. Tangri taolog‘a hamd va sanolar aydi, taqi Payg‘ambar s.a.v.qa o‘qish durudlar aydi. Taqi dunyoni erdi, taqi oxiratni madh qildi ersa, jumla saxobalarda biri aydi kim: “Umar bizka vazu nasixat qilur, taqi o‘zi ikki qat to‘n kiyur”, tedi ersa, o‘g‘li Abdulloh aydu: “Ostingi

to‘ni o‘zining to‘ni turur, ustunki to‘nni men oriyat berip turur men”, tedi ersa, o‘l sahoba tek qoldi.[6]

Mahmud Ali bu voqeani hikoyat deb atamagan, balki yuqorida biz hikoyat janri belgilariga qo‘ygan talablarga muvofiq kelgani bois biz hikoyat deb ataymiz. Qolaversa, “Nahjul-farodis”dagi barcha hikoyatlarga mos didaktik mazmun, voqeani bayon qilish usuli bizni, bu - hikoyat janriga mansub, deb xulosa chiqarishga undaydi. Qolaversa, xalifa Umarning yuqorida Ollohdan so‘ragan uchta fazilatini tasdiqlash uchun keltirilgan bu voqeiy hikoyatda didaktik mazmun bo‘rtib ko‘rinadi. “Nahjul- farodis” asarida har bir bobda yuqoridagiday bir qator hikoyatlar borki, hikoyatchilik rivojida mazkur asarning alohida o‘rni borligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nehcül feradıs (Uştmahlarnıng açuq yolı). II metın. Çevrıyası: Janos Eckmann, Yayınlayanlar: Semın Tezgan - Hamza Zülfiqar. TÜRK DIL KURUMI YAYINLARI : 518. Anqara

2. Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий. 2-нашр. – Т.: Ўқитувчи, 2011.

3. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 179.

4. Жумаев Р.Н. Маснавийи маънавий ва Лисон ут-тайрдаги ҳикоятларнинг қиёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа дотори... дисс. – Самарқанд: ЎзФА Ўзбек тили, Адабиёт ва фолъклори институти, 2018. – Б. 46

5. Тожибоева М. А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 172.

[6] Nehcül feradıs. II. Metın.Turk Dil yayihlari: 518. – S. 76

TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Муликова Азиза Эркиновна
Toshkent amaliy fanlar universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish orqali og‘zaki va yozma iterativligini oshirish, dialogik va monologik matnlar yaratish orqali madaniy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish zaruriyati va badiiy asarlarning o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘qish, qiyosiy tahlil, monolog matn, dialogik matn, ijodiy fikrlash, nutq savodxonligi, imlo me’yorlari, madaniyatlararo kompetentsiya.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ustuvor ahamiyat beryapmiz. Ta’lim muassasalarida bu borada bir qancha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli qarorida kitob o’qish madaniyatini jamiyat a’zolarining ma’naviy hayotidagi o‘rni ko‘rsatilgan. Bu albatta, o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi, chunki kitob ma’naviy-madaniy yuksalish vositasidir. Yildan-yilga davlat tilini chuqurroq bilish har qanday mutaxassis uchun dolzarb talabga aylanib bormoqda. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi rus tili darslarida ham o‘zbek adabiyotini o‘rganishga o‘tish, o‘zbek tilidagi badiiy matnga badiiy asar sifatida yondashish zarurligi qattiq ta’kidlangan. Ma’lumki, insoniyatning barcha madaniy-tarixiy kechinmalari kitoblarda qayd etilgan. Talabalar bu tajribani kitob o‘qish orqali o‘zlashtira oladilar. Buning uchun o‘quvchilar aqliy va hissiy jihatdan faol bo‘lishi kerak. Aqliy-hissiy faoliyat natijasida o‘quvchilar kitoblarda ifodalangan madaniy boylik va bilimlarni

o‘zlashtirishga intiladilar. Darhaqiqat, badiiy adabiyot ma’naviy-axloqiy tarbiya, estetik zavq va aqliy faoliyat manbai bo‘lib, til o‘rganishda muhim vositadir.

O‘quvchilarning so‘z boyligini, tafakkur chegaralarini, ya’ni davlat tilini qo‘llashni, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish maqsadida o‘zbek va jahon adabiyotini qiyosiy tahlil qilish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Dostondagi hikoya va L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” dostonidan parchalarni qiyosiy tahlil qilishda “Aqliy hujum”, “Kognitiv xarita”, “Insert”, “FSMU”, “Klaster” kabi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bu usullar darsda o‘quvchilarning erkin fikrlashiga, so‘z ma’nosi va kuchini his etishiga yordam beradi. O‘quvchilar adabiy matnlar bilan ishlashda ko‘rgazmalilik orqali imlo qoidalarini ham rivojlantiradilar

Ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ba’zi rus guruh o‘quvchilari o‘zbekcha so‘zlarni yetarli darajada bilsalar, ma’lum bir mavzuda suhbat qura olsalar, erkin muloqot qila olmaydilar. Buning sababi, o'quvchilar nutqiy vaziyatni birinchi navbatda his qila olmaydilar. Bundan tashqari, ular madaniyatlararo kompetentsiyaga ega emaslar. O‘quvchilar o‘zbek adabiyoti namunalari bilan badiiy matn sifatida tanishsagina, ularda madaniyatlararo kompetensiya shakllanadi. Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostoni adibning eng murakkab asarlaridan biridir. Bu asar 1498-1499 yillarda yozilgan. Bu kitobda juda ko'p yaxshi hikoyalar mavjud. Shoir asarlarining kichik hajmi, tarixiy shaxslarning hikoyalari ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostoni bilan birga o‘qituvchi yana bir yozuvchi L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanini tahlil qiladi, “Aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanadi, voqea va obrazlarni takrorlaydi, o‘quvchilarni asardan parcha bilan tanishtiradi: Talabalar A.Navoiy, L.N.Tolstoy kabi buyuk adiblar bu asarlari orqali insoniyatga nimani anglatadi? Shaxmat hikoyasining g‘oyasi haqida gapirib bering. Nega L.N.Tolstoy romanini "Urush va tinchlik" deb atagan? Ular yashirin falsafani tushuntirish kabi savollarga javob beradilar. Navoiy qissasida monolog matn tuzadilar.Talabalar bu savollarga javob berish uchun FSMU texnologiyasidan foydalanadilar. FSMU texnologiyasi: fikringizni bildiring; O'z bayonotingiz sababini ko'rsating; Sababini tushuntirish uchun misol keltiring; U fikringizni umumlashtirish kabi qismlardan iborat. O‘quvchilar darsda “Klaster”

yordamida “Badiiy adabiyot yoshlar ma’naviyatiga qanday ta’sir qiladi?” degan savolni berishadi. savolga yozma javob bering. Ular matn yaratadilar. Uyda “Mening sevimli ishim” mavzusida insho yozishadi. Har ikki asardan lug‘atlarni shakllantirish va tarjima qilish uchun ham uy vazifasi beriladi. Adabiy auktsionlar tashkil etish. Bu o‘quvchilarni badiiy o‘qishga undashning samarali usulidir. Muayyan mavzuda yoki bepul mavzuda auktsionlar o'tkazishimiz mumkin. Ikkala holatda ham o‘quvchi diqqatini badiiy asarga qaratadi. Kimoshdi savdosiga o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan yaratilgan badiiy asar qahramonlariga tegishli buyumlar ham kiritilishi mumkin. Adabiy kimoshdi savdolari boshqa shakllarda ham tashkil etilishi mumkin. Auktsionda ishtirok etayotgan har bir sinf o'ziga xos san'at asarini taqdim etishi kerak. Binobarin, tadbirda ishtirok etayotgan boshqa talabalar ham ushbu asarni o‘qishga ishtiyoqi baland bo‘ladi.

Adabiy kechalar. Adabiy kechalarni sinfdan tashqari ishlarning pedagogik jarayoniga kiritishimiz mumkin. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Xalqning og‘zaki ijodiga, yozuvchilarning badiiy asarlariga qiziqishi ortib bormoqda. Bu kayfiyatni ko'taradi va his-tuyg'ular va taassurotlarni boyitadi. Bu mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarda monolog o‘qish, rol o‘ynash, hikoya qilish, tinglash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quvchilar ijrosidagi qo‘shiq va raqslar badiiy asar mazmunini boyitadi. Plakatlarni tomosha qilish, kitoblarni ko‘rish ham o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Davlat tilini bilish har qanday mutaxassis uchun hayotiy zaruratga aylanib borayotganligi sababli, bu jarayonda o‘zbek tili darslarida o‘zbek adabiyotini o‘rganish bosqichiga o‘tish, o‘zbek tilidagi badiiy matnga badiiy asar sifatida yondashish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy adabiyot xoh qog‘oz, xoh elektron shaklda bo‘lsin, ma’naviy-axloqiy tarbiya, estetik zavq va intellektual faoliyat manbai bo‘lishi bilan birga, til o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. dvigatel hamdir. Ma’lumki, har qanday til o‘rganiladigan xalqning madaniyati, milliy mentaliteti o‘sha xalq adabiyotida to‘la namoyon bo‘ladi. Qolaversa, o‘rganilayotgan tilning go‘zalligi, zukkoligi uning badiiy ifodasida namoyon bo‘ladi. ular o‘rtasidagi madaniy begonalashuvni bartaraf etish, tili

o‘rganilayotgan xalqning milliy psixologiyasini anglash, o‘sha xalqning ma’naviy ildizlarini his qilish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, badiiy matn bilan ishlash o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, ularda tilning orfografik va imlo qoidalarini bilish ko‘nikmalarini mustahkamlash, dialogik va monolog yozish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; obrazli tafakkurga, nutq savodxonligiga erishish uchun adabiy ta’lim darajasini oshirish, barcha oliy o‘quv yurtlarida adabiyotni o‘qitishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q.P. Oliy ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish. Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va chet tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari (nazariya, metodika, texnologiya). Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T.2020. 5-b.

2. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. T. O'qituvchi. 1997.35-b.

3. Baltayeva A.T. Designing lessons aimed at teaching students tocritically evaluate the personality of the heroes of the work of fiction. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. P.947-952

TIOEFIRLARNING OLINISHI, XOSSALARI VA TIRIK ORGANIZMLARDAGI AXAMIYATI

Erkinov Rasuljon Baxtiyor o’g’li

Namamgan muxandislik-texnologiya instituti, tayanch doktarantura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Efirlarning oltingugurtli anologlari bo’lgan tioefirlarning tabiatdagi o’rni juda katta.Ular o’simliklar, xayvonlar va odam organizmidagi oqsillarning tarkibida mavjud moddalardir.Tioefirlar kelejakda xalq xo’jaligida keng ko’lamda ishlatiladi.

Kalit so’zlar: tioefir, tiollar, kimyoviy xossalar, sulfidlar.

Organik kimyoda organik sulfid yoki tioefirlar R-S bog’iga ega bo’lgan organasulfur funksional moddalardir. Sulfidlar efirlarning “oltingugurt ekkvivalenti” xisoblanadi. Tioefirlar hosil qilish uchun efirdagi kislorod atomini S bilan almashtirishingiz mumkin. Ularning umumiy formulasi

R - S – R′ hisoblanadi.

Ko’pgina boshqa oltingugurt birikmalar singari, tioefirlar xam yoqimsiz xidga ega.Tioefirlar xam efirga o’xshaydi, faqat uning tarkibida koslorod o’rniga oltingugurt atomi mavjud. Kislorod va oltingugurtning davriy jadvaldagi guruhlanishi efirlar va tioefirlarning kimyoviy xossalari biroz o’xshashligini ko’rsatadi, garchi bu nazariy jihatdan to’g’ri bo’lsada, lekin qo’llanilishi bir –biridan tubdan farq qilishi amaliy jihtdan isbotlangan. Tioefirlar bazan sulfidlar deb ataladi, ayniqsa eski adabiyotlarda bu atama xali ham o’ziga xos tioefirlarni nomlashda ishlatiladi.Ikki o’rnini bosuvchi moddalar prefikslar bilan ko’rsatiladi.

Masalan; $(CH_3)_2$-S dimetilsulfid deyiladi

Ba’zi tioefirlar tegishli efirning umumiy nomini o’zgartirish orqali namlanadi.Masalan; C_6H_5-S-CH_3 metilfenilsulfiddir, lekin ko’proq tionizol deb ataladi, chunki uning tuzilishi anizol C_6H_5-O-CH_3 ga o’xshashdir.

Kislorod o’zining organik birikmalarida faqat ikkita oksidlanish darajasini namayon qiladi (peroksidlarda -1 va boshqa birikmalarda -2).Oltingugurt esa quyidagi jadvalda ko’rsatiganidek -2 dan +6 gacga oksidlanish darajasida bo’ladi. Tioefirlar burchakli funksional guruh bo’lib, burchagi 90º ga yaqinlashadi. C-S aloqalarining soni taxminan 180 mkm.

Sulfur Oxidation States in Organic Compounds

-2	-1	0	+2	+4	+6
H_2S R–S–H thiols R–S–R sulfides R–S(+)(R)–R sulfonium ions	R–S–S–R disulfides	S elemental R–S(=O)–R sulfoxides R–S–OH sulfenic acids	R–S(=O)(=O)–R sulfones R–S(=O)–OH sulfinic acids	SO_2 R–S(=O)(=O)–OH sulfonic acids R-O–S(=O)–O-R sulfite esters	SO_3 R-O–S(=O)(=O)–O-R sulfate esters

Tiollar va boshqa oltingugurt birikmalarining oksidlanishi ugleroddan ko’ra oltingugurtning oksidlanish darajasini o’zgartiradi.Spirtlarning anologi bo’lgan peroksidlarga ekvivalent oksidlanishi odatda kuzatilmaydi.Yagona S-S aloqasi peroksidlardagi O-O aloqasidan deyarli ikki barobar kuchli, O-H aloqasi esa S-H bog’idan 25 kkal/mol dan kuchliroqdir.Shunday qilib, termodinamika peroksidlar emas, balki tioefirlar hosil bo’lishini maqullaydi.

Tioefirlar tiolnikiga o’xshash kuchli xid bilan ajralib turadi.Bu xid uchuvchan tioefirlardan foydalanishni cheklaydi.Fizik xususiyatlariga ko’ra ular efirga o’xshaydi, lekin kamroq uchuvchan, eruvchan va kamroq gidrofil moddalardir.Bu xususiyatlari efirlardagi kisloroddan yuqori bo’lgan ikki valentli oltingugurt markazining qutblanish qobilyatidan kelib chiqadi.

Tioefirlar odatda tiollarni alkillash orqali tayorlanadi;

$R – Br + HS - R' \rightarrow R – S - R' + HBr$

Bunday reaksiyalar odatda tiolni yanada nukleofil tiolatga aylantiruvchi asos ishtirokida amalga oshiriladi.Xuddi shunday, disulfidlarning organolitiy reagentlari bilan reaksiyasi tioefirlarning hosil bo’lishiga olib keladi;

$R_3CLi + R^1S - SR^2 \rightarrow R_3CSR^1 + R^2SLi$

Shu bilan bir qatorda, tioefirlani alkenga tiol qo’shish orqali sintez qilish mumkin;

$R – CH = CH_2 + HS – R' \rightarrow R – CH_2 – CH_2 – S - R'$

Bu reaksiya ko’pincha erkin radikallar tomonidan katalizlanadi. Tioefirlarni Pammererni qayta tashkil etish kabi ko’plab boshqa usullar bilan ham olish mumkin. Trialkilsulfoniy tuzlari nukleofillar bilan dialkil sulfide bilan reaksiyaga kirishadi;

Bu reaksiya biologik tizimlarda alkil guruxini uzatish vositasi sifatida ishlatildi. Tioefirlar kislorodli efirlarga qaraganda ko’proq reaktivdir, ammo tiollarga qaraganda kamroq murakkab kimyoviy tarkibga ega moddalar xisoblandi. Natijada, ular tiollarga qaraganda kamroq biokimyoviy ahamiyatga ega.Shunga qaramay ba’zi individual tioefirlar katta axamiyatga ega.Tioefir birikmalarga vitaminlar, tiamin va biotin, shuningdek penitsilin va sefalosporin sinflarining antibiotiklari kiradi. (Waring, 1979).

Ko’p sonli tioefirlar tabiatda keng tarqalgan.ularning ko’pchiligi faqat mahalliy ahamiyatga ega, boshqalarining biokimyoviy ahamiyati xali aniqlanmagan. O’simliklar uchun dori vositalarini ishlab chiqarishda muhim sintetik strategiya bo’lgan tioefir hosilalari qishloq xo’jaligida antifungal, antibacterial, insektitsid, akaritsid, antiviral, gerbitsid vositalar kabi keng ko’lamli faoliyatlari tufayli so’nngi yillarda o’simliklarni himoya qilish sohasida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bundan tashqari, tioefirlar o’simliklarning o’sishini tartibga soluvchi moddalardir. Past molekulyar og’irlikdagi tioefirlar uchuvchan va yoqimsiz xidga ega va o’simliklar va hayvonlar tomonidan past molekulyar og’irlikdagi tiollar kabi ishlatiladi.Mustelidlar kabi hayvonlar xid bilish xabarlarini bir-biriga yetkazish uchun tioefirlardan foydaladilar. Tioefirlar xayvonlarning himoya sekretsiyalarida va jinsiy jalb qiluvchi moddalarda (feromonlar) mavjud bo’lishi mumkin va marker birikmalar sifatida ishlatadilar.(Andesen va Bernshteyn, 1980). Shunday qilib, norkaning anal qopidagi sekretsiyalar uchuvchi tioefirlarni o’z ichiga oladi.

Tioefirlar ikkilamchi antioksidant bo’lib, oksidlanish jarayonida gidroperoksid oraliq moddalarini parchalash orqali ishlaydi. Ular o’rtacha xaroratlarda va qattiq

fazada eng samarali hisoblanadi. Tioefirlar yuqori haroratlarda metallarni mukammal ximoya qiladi va foydali mexanik xususiyatlarini saqlashni yaxshilaydi.

Bundan tashqari.tioefirlarni o’z ichiga olgan geterosiklik birikmalar kelajakda kuchli va samarali saratonga qarshi vositalarning yangi sinfi sifatida paydo bo’lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kremlin, R.D.(1996).Введение в сероопганическую химию.
2. Iidzima T.;Tsutiy C.;Kimura M (1977).”Молекулярная структура диметилсулфида”
3. D.Landini, F.Rolla (1978) “Синтез сулфидов с получением диалкилових и алкиларилсулфидов: неопентилфенильсулфид”

CHANGE OF CYTOKINES IN ORAL FLUID IN PERIODONTAL DISEASE

Хаджиметов А.А.

Doctor of biology, professor, Tashkent State Dental Institute

Tashkent State Dental Institute

Рустамова С.М.

Supporting doctoral student, Tashkent State Dental Institute

Annotation: Identification of biomarkers of periodontal diseases and early diagnosis of this disease will improve the effectiveness of treatment for many patients suffering from periodontal diseases worldwide. The prevalence of periodontal disease increases with age 70.1 percent of adults aged 65 and older having periodontal disease. It begins with gingivitis, an inflammation of the gingival tissues, and leads to the destruction of periodontal tissues, including periodontal pockets and alveolar bone. Nowadays, with the increase in efficiency and accuracy of technology, oral fluid diagnostics has become a biological fluid of clinical importance [3].

Key words: periodontitis, desease, biomarkers, cytokines, oral fluid, interleukines.

Introduction

The development of periodontal diseases is associated with increased activation of internal cells of periodontal tissues, increased primary and later secondary cytokine reactions, mainly activation of innate effector reactions, activation of neutrophils (in response to increased levels of IL-1b and IL-8). Activated macrophages and T and B lymphocytes contribute to the cytokine milieu through the secretion of TNF-α, IL-12, IL-17, and IL-18 and the balance of these pro-inflammatory cytokines with immunosuppressive mediators such as IL-10, and TNF-α is pivotal in determining disease progression. possible Perpetuation of this pro-inflammatory state with development leads to periodontal-specific tissue damage, resulting in dental dysfunction [2].

Systematic reviews found that oral fluid biomarkers are the basis of effective diagnostics for early diagnosis of periodontal diseases. According to the results of our research, the markers change sequentially at different stages of periodontitis development, so the combination of biomarkers gives a more effective result for the diagnosis of the disease state [1].

Materials and methods: Inflammatory and anti-inflammatory cytokines (IL-1, IL-4, IL-6, IL-8, IL-10 and TNF-α) in blood and oral fluid of patients with moderate chronic proliferative periodontitis (STP) It was carried out using a related immunosorbent assay.

Results and discussion

Table 1

Change of cytokine consentrate level in oral fluid in patients with gingivitis and periodontitis

Indications	Healthy individuals (controls) n =14	Gingivits n =26	Periodontitis n =28
Interleukin -1 (ИЛ-1) (pg/ml)	81, 80 ± 7, 53	132, 48 ± 11, 51*	205, 3± 12, 23*
Interleukin -4 (ИЛ-4) (pg/ml)	13, 87±1, 54	36, 43±2, 58*	51, 83±4, 52*
Interleukin -6 (ИЛ-6) (pg/ml)	0, 87±0, 06	12, 74±1, 38*	22, 67±2, 13*
FNO-α, (pg/ml)	31, 28±2, 69	52, 67±4, 81*	118, 76±9, 81*
Interleukin -10 (ИЛ-10) (pg/ml)	10, 45±0.86	9, 06±1, 14	6, 82±0, 51*
Interleukin -8 (ИЛ-8) (pg/ml)	80, 24 ± 7, 68	254, 13±11, 43*	656, 31±15, 2*

Note: *- significantly different from the healthy group (P<0.05)

The results show, that the increase of inflammatory agents IL-1β, IL-6 and TNF-α in the oral fluid of patients with gingivitis and chronic periodontitis activates destructive processes in the periodontal tissue. Increased levels of IL-4 in patients with periodontal disease may be considered as an anti-inflammatory mediator that stimulates V-lymphocytes and inhibits T-helper cells. The increase of IL-4 and IL-6

ensures the activation of humoral immunity, limiting the importance of cell-mediated immune responses. An increase in IL-4 is a characteristic sign of the intensity of humoral immune reactions [4].

Conclusion: Resourses of participant in inflammation and anti-inflammation: IL-1 increased by 1.6-2.5 times, IL-6 increased by 14.5-26 times, IL-8 increased by 3.2-8.8 times, IL- 10 - 13% - 35% decreased. It can be concluded that the toxic effect of anti-inflammatory cytokines on periodontal tissues is related to their negative effect on tissue regeneration, especially the reduction of the normal process of resynthesis of connective tissue by fibroblasts, inhibition of osteosynthesis and reduction of osteoformation potential.

References:

1. Мирическу Д., Тотан А., Каленик Б., Мокану Б., Дидилеску А., Мохора М. и др. Биомаркеры слюны: связь между окислительным стрессом и потерей альвеолярной кости при хроническом пародонтите. Acta Odontologica Scandinavica. 2014 г.;72(1):42-47. DOI: 10.3109/00016357.2013. 795659

2. Н. Ратнаяке, С. Акерман, Б. Клинг и др., «Слюнные биомаркеры здоровья полости рта – поперечное исследование», *Журнал клинической пародонтологии*, том. 40, нет. 2, стр. 140–147, 2013.

3. Рустамова С.М., Хаджиметов А.А., Ахмадалиев Н.Н. “Оғиз суюқлиги ва сўлакнинг физик-кимёвий ва метаболик параметрлари тана ҳолатининг кўрсаткичлари сифатида” MEDICINE AND INNOVATIONS 4(8) декабр, 2022

4. Рустамова С.М., Хаджиметов А.А., Ахмадалиев Н.Н. “ Determining the correlation between the biochemical composition of blood plasma and saliva” Problems and milestones of immunophysiology development in the new Uzbekistan International scientific-practical conference. Tashkent Uzbekistan. 10.05.2023 year.

FINLANDIYA, YAPONIYA VA O’ZBEKISTON MAMLAKATLARI BOSHLANG’ICH TA’LIM TIZIMLARINING O’ZIGA XOSLIGI VA QIYOSIY TAHLILI

Ma’murova Zulayho Oybek qizi
Qo’qon DPI, Boshlang’ich ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz boshlang’ich ta’lim tizimi hamda dunyoda ta’lim sohasida yetakchilik qilayotgan Yevropaning Finlandiya va Sharqiy Osiyoning Yaponiya mamlakatlari boshlang’ich ta’lim tizimi, ulardagi ta’lim tizimining o’ziga xosligi hamda fanlarni o’qitishda samarali metodlarining qiyosiy tahlili haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Ta’lim tizimidagi muammolar, boshlang’ich ta’limdagi islohotlar, Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimida o’tkazilgan tadqiqotlar, bilimni baholash xalqaro tadqiqot dasturi (PISA), malakali o’qituvchi, pedagogik g’oyalar, jamiyat taraqqiyoti, pedagogik jarayon, ta’lim islohatlari.

Ta’lim – bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Uning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo’lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g’oyalarga qarab kishi ilk jamiyat taraqqiyotining bosqichlarida uning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o’zgarib boradi. Ta’lim haqida so’z yurutilar ekan, shuni alohida e’tirof etib ketish lozimki, bugungi kunda dunyoda bu sohada olib borilayotgan islohotlar o’z natijasini bermoqda va bir qancha yutuqlarga erishilmoqda. Bunga Finlandiya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Singapur va yana bir nechta davlatlar ta’lim tizimini misol qilsak bo’ladi. Shu jumladan Finlandiya va Yaponiya davlatlari ta’lim tizimi, ayniqsa boshlang’ich ta’lim sohasidagi tajribalari boshqa davlatlarga qaraganda o’z samaradorligi bilan ajralib turadi. O’zbekistonda ham boshlang’ich ta’lim tizimini

rivojlantirishda so’ngi yillarda e’tibor doimgidan kuchyganini ko’rishimiz mumkin. Quyida ushbu davlatlar ta’lim tizimlari bilan tanishib chiqamiz.

Finlandiyaning so’ngi yillarda isloh qilgan ta’lim tizimiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo’lsak, uning bir qator afzalliklari namoyon bo’ladi. Finlandiyada ta’lim – hamma uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash deganidir. Tenglik tushunchasi juda qadrlanib, barcha o’quvchilarning iqtidori, qanday bilim olishidan qat’iy nazar teng hisoblanadi. Yana Finlandiya ta’lim tizimi haftalik o’qish yuklamasi eng kam bo’lgan davlat hisoblanadi [3, B. 3]. Ular bir haftada ta’lim uchun atigi 36 soat sarflaydilar. Bu ko’rsatgich maktab va maktabdan tashqari ta’limni o’z ichiga oladi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, boshlang’ich sinflarda puxta o’rganilgan bilimlar o’rta va yuqori maktabda poydevor vazifasini o’taydi. Shuning uchun Finlandiyada boshlang’ich ta’limga alohida e’tibor qaratiladi. Finlandiyada maktabga qabul qilish uchun ma’lum yosh chegarasi mavjud. Bola aql-zakovati, iqtidoridan qat’iy nazar boshlang’ich sinfga 7 yoshdan qabul qilinadi. Ularning fikricha, bola 7 yoshda ham aqlan ham jismonan bilim olishga tayyor hisoblanadi. Bizning mamlakat, O’zbekiston Respublikasida ham “Ta’lim to’g’risida” gi qonunida umumiy o’rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar 7 yoshga to’ladigan yilda qabul qilinishi belgilangan. Aniqlanishicha, bu yoshdagi bolada idrok va tafakkur jadal rivojlanadi, o’z diqqatini boshqara oladi va kerakli paytda to’plashga intiladi [2, B. 12].

Finlandiyaning ta’lim samaradorligini oshishiga yana bir ta’lim berish usuli misol bo’ladi. Bu – fanlarning bir-biriga bog’liqligidir. Finlandiya maktablarida geografiya fanidan biror mamlakatning hududi, tuzilishi, iqlimi o’rganilsa hafta davomida biologiya fanidan ham o’sha mamlakatda o’sadigan o’simliklar, daraxtlar haqida bilim beriladi, matematika fanidan ham shu yerga oid matematik ma’lumotlar asosida misollar ishlanadi. O’zbekistonda esa bunday tizim asosida dars jarayonlari olib borilmaydi. Shunday o’qitish usulini milliylashtirib, ta’lim tizimimizga tadbiq etadigan bo’lsak, dars samaradorligi oshadi, o’quvchining fanlarni o’zlashtirish imkoniyati kengayadi, fikr tarqoqligining oldi olinadi, biror joy haqida to’liq, umumiy ma’lumot olishiga va o’quvchining xotirasini mustahkamlashga yordam beradi [3, B. 2].

"Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki - imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi Finlandiyaliklar. Shuning uchun Finlandiyadagi maktablarda imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o‘tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar imtixonning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rishmaydi. Finlandiya maktablarida hayotda kerak bo‘ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo‘lmaydi, uni o‘rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar kichik sinfdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq foizini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va h.k. O’zbekistonda ham maktab davridan boshlab bolalarga shu kabi zarur bilimlar berib borilsa, kelajakda bizness faoliyatida, turmush tarzidagi jarayonlarda qo’l keladi [2, B. 31].

Ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlardan yana biri - Yaponiyadir. Yaponiya ta’limining rivojlanish jarayoni uzoq davrni o’z ichiga oladi. Yaponiyada zamonaviy ta’lim tizimi asoslarining shakllanishi 1867-1868-yillarga borib taqaladi. Mamlakat imperatori ta’lim tizimini yangilash yo’li bilan Yaponiya qudratini va harbiylashtirish hamda G’arb mamlakatlarining zamonaviy texnologiyalarini o’zlashtirish yo’li bilan mamlakat iqtisodiyotini o’stirishni maqsad qildi. Uning bu urunishlari 1872-yilga kelib “Ta’lim to’g’risida” gi qonunni qabul qilinishiga sabab bo’ldi. Qonunga muvofiq eski uslubdagi ta’lim tizimi o’rniga mamlakatning rivojlanishini ta’minlash maqsadida 53750ta boshlang’ich, 256ta o’rta maktab va 8ta universitet bunyod etildi. Bu yerdagi ta’lim shakllari esa rivojlangan G’arb ta’lim tizimi bilan uyg’unlashtirildi, 1890-yilga kelib 3 yillik boshlang’ich maktablar 4 yillikka o’zgartirildi hamda bepul etib belgilandi. 1908-yilga kelib esa ular majburiy ta’limga kiritildi va 6 yilga uzaytirildi. 1947-yilga kelib “Ta’lim to’g’risida” gi qonun yangilandi va ta’lim tizimiga bir qancha o’zgartirishlar kiritildi.

Hozirda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Yaponiyada o’quv yili aprel oyidan boshlanadi. O’quv yili 3 trimestrdan iborat bo’lib, ularning har biri bahor va

qishda - qisqa muddatli ta’tillari, yozda - bir oylik dam olish kunlari bilan ajratilgan. Yaponiyada maktab davridagi ta’lim 12 yil bo’lib, u quyidagilarga bo’linadi:

- Boshlang’ich maktab – 6 yil;
- O’rta maktab – 3 yil;
- Yuqori maktab – 3 yil.

Boshlang’ich va o’rta maktab majburiy hisoblanadi.Yuqori maktab majburiy hisoblanmasada, uni qariyb 79% o’quvchi tamomlaydi. Boshlang’ich ta’lim muassasalariga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. Ta’lim 6 yil davom etadi. Unda bolalar umumiy fanlarni o’rganadi: yapon tili, arifmetika, musiqa, jismoniy tarbiya, hayot asoslari, gumanitar fanlar, mehnat fanlari va hokazo.Yapon o’quvchilari maktabda kuniga 8 soat tahsil oladi. Bizda bu ko’rsatkich o’rtacha 6 soatni tashkil etadi. Yaponiya o’z o’quvchilaridan tasdiqlangan maktab formasini kiyishni talab qiladi. Yaponiya va O’zbekiston ta’limi shu jihatdan bir-biriga o’xshab ketadi. Bizning maktablarda ham qat’iy tasdiqlangan maktab formasi mavjud. Bunday formada ta’lim olish o’quvchilar diqqati chalg’ishini oldini oladi, bu esa sifatli ta’lim olishga yordam beradi [4, B. 3]. Yaponiyada o’quvchilar maktabga kechikib kelmaydi va darslarda 90% ishtirok etadi. Ular uyga berilgan vazifalarni e’tiborsiz qoldirmaydi. O’zbekistonda esa darsga kechikib kelish va vazifalarni to’liq bajarmaslik, fanlarga qiziqmaslik holatlari ko’p uchraydi. Bu muammoni oldini olish uchun Yaponiyada bo’lgani kabi maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratilib, bolalarni bilimga muhabbatli, o’qishga intiluvchan qilib tarbiyalansa maktab davrida bunday muzammolar yuzaga kelmaydi. Maktabda esa darsni bolaning qiziqish, aql-zakovatini hisobga olib o’ziga mos tarzda o’tilsa, uning erkin o’zlashtirishiga imkoniyat yaratilsa, o’tilgan nazariyalardan foydalanib amaliy mashg’ulotlar olib borilsa, o’z-o’zidan bolaning darsga qiziqishi ortadi, mashg’ulotlarda faol qatnasha boshlaydi va mavzuni oson o’zlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o’sib borayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo’lib yetishishida ta’lim muhim o’rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim katta ahamiyat kasb etadi. Chunki uzluksiz ta’lim tizimini keyingi bosqichlarining samaradorligi boshlang’ich ta’limda olingan bilim va ko’nikmalarga

asoslanadi. Shu sababli boshlang’ich ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlar olib borish, Finlandiya va Yaponiya kabi ta’lim tizmi rivojlangan mamlakatlar ta’limini o’rganish va samarali tajribalarini yurtimizga tadbiq etish, ta’limda texnik vositalardan keng foydalanish talab etiladi. Ishonamizki, bu harakatlar yaqin kelajakda o’z mevasini beradi va yurtimiz taraqqiyotiga katta hissa qo’shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Timoti Uoker. “Finlandiya ta’lim mo’jizasi”, “Global books”, 2023 y

2. Nakasone Ya. Yaponiyaning 21-asrdagi davlat strategiyasi: Per. Yapon tilidan M., 2011 yil

3. Soliev O. GENERAL CONCEPTS ABOUT EDUCATIONAL LAWS AND METHODS OF EFFECTIVE USING THEM IN EDUCATIONAL PROCESSES //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 448-452.

4. Soliyev O. PEDAGOGIKA FANINI O’QITISHDA ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 38-42.

ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА STEAM ТАЪЛИМИНИ ТАДБИҚ ЭТИШ

Собиров Авазбек Абиджанович

Андижон давлат педагогика институти мустақил изланувчиси

Анотация: Ушбу мақолада STEAM фанлари ҳамда моделларнинг компонентлари ҳакида қисқача маълумотлар берилган бўлиб, моделлаштириш ва моделлар STEAM талимни амалга ошириш воситаси деб қаралган. Шунингдек фундаментал фанлар билан мухандислик фанларининг интеграциялашган талими ҳақида атрофлича фикр юритилган.

Калит сўзлар: интеграция, интеграциялашган таълим, модел компоненти, моделлаштириш, фундаментал фанлар, STEAM, STEAM фанлар, STEAM таълими.

STEAM фанларини ташкил этган фанларнинг ҳар бири алохида билимлар манбаига эга булган бир бутун фанлардир. Бу фанларнинг келиб чиқиш тарихига эътибор берадиган бўлсак, бир фаннинг кескин ривожланиши натижасида иккинчи фаннинг пайдо бўлганини кўришимиз мумкин. Бу фанларни ривожланиши, илмийлик жихатидан ўзаро боғланганлиги, ҳамда амалиётга тадбиқ этилиши эвазига учинчи ва туртинчи фанлар яъни технология фани билан мухандислик фанларини вужудга келтиришга сабаб бўлади.

Бундан келиб чиқиб мухандислик ва технология фанларининг ўрганиш учун табиий фанлар ва математика фани фундаменталликни ўзида сақлаб қолади. Бу фанлар табиатан икки холатни узида намоён қилади: биринчиси математика, дизайин ва табиий фанлар назарий холатларни ёритса, иккинчиси мухандислик ва технология амалий йуналтирилган холатларни аўкс эттиради. Шундай килиб назарий олинган билимларни амалиётга қўллашда биринчи ва иккинчи холатларнинг ўзаро богликлигини тушунтиришда интеграциялашган

таълимдан фойдаланиш мухим саналади хамда бу таълимни амалга оширишдан STEAM фанлар таълими ва интеграцияси юзага келади.

STEAM фанларини ўзаро интеграциясини, фан формулаларини графикларини, чизмаларини, вертуал тасвирларини, ҳодисалардаги жараёнларни моделлаштириш ва рақамлаштириш орқали тушунтириб берса, STEAM фанлари таълимини амалга оширишда моделлар жараёнлар аспектларини содда кўринишда ифодалайди ва оддий контсептуал эскизлар ҳамда мураккаб прототиплардан тортиб, сўнги математик моделларгача бўлган оралиқларни ўз ичига олади. Мухандисликдаги моделлар асосан функционал нуқтаи назардан аниқланади. Моделлаштириш ҳамда моделлардан муаммоларни хал қилиш, ечимга олиб борувчи йўлларни тахмин қилиш, турли ечимларни танлашда тўғри карорни қабул қилиш, муаммони ечишда қулай таълим воситаларини танлаш ва шунга ўхшаш бошқа сабаблар муммоларнинг ечимини топиш имконини беради.

Интеграциялашган таълим бу- икки ва ундан ортиқ фанларнинг илмий алоқадорлиги асосида бир фанни ўрганишда иккинчи фандан фойдаланиб ўқитилишидан пайдо бўлади. Математика-физика, кимё-математика, физика-кимё, биология-кимё, ва бошқалар.

STEAM ёндашувли STEAM фанлар таълими интеграциялашган таълимдан анчагина катта тушунча булиб, у камида тўрта фаннинг фанлараро боғлиқ интеграцияси асосида ўтиладиган таълимдир. Бу ёндашувли таълимни кўпчилик ўқитувчилар исташмаганини, хохламаслигини анкета сўровлари орқали билиб олишимиз мумкин. Бунинг сабаби оддий юқорида айтиб ўтилган, STEAM фанлар таълимини амалга оширишда ўқитувчилардан камида икки ва ундан ортиқ фанлар интеграцияларини ўзлари ўтадиган фаннинг мавзуларига интеграциялашни ва STEAM фанлардан назарий билимларни билиши талаб этилади.

Глобал миқёсдаги замонавий таълим STEM таълимини анъанавий таълимнинг асосий оқимига жалб қилишга қаратилган. Бу тушунтирилган

чунки STEM таълими болаларни онгли, фаол иштирок етишга имкон беради табиий фанлар бўйича фаолият, шу билан муваффақиятни таъминлайди доимий такомиллашиб бораётган ахборот дунёсида келажак катталар технологиялар.

Буларнинг барчаси фанлараро алоқалар туфайли мумкин бўлади STEM таълимининг амалий табиати. Шундай қилиб, STEM таълими бирлаштирган ҳолда 21-асрнинг енг ёрқин янгиликларидан бири ҳисобланади инновация педагогикаси елементлари, санъат педагогикаси, замонавий педагогик технологиялар. Ушбу ёндашувнинг самарадорлиги ёш фуқароларни тарбиялаш жараёнида турли билим соҳаларининг синергиясини амалий татбиқ етиш билан боғлиқ.

Уммуман бўлганида STEAM фанларни моделлаштиришни яратишга қарашли ўрганган билимларни қабул қилишнинг биринчи қадами дейишимиз мумкин. STEAM фанларининг компонентлари сифатда уннинг ҳарфларидан иборат бўлган фанларни: С-табий фанлар, Т-технология, Е-мухандислик, А-дезайинлик, М-математик фанларини қараш мумкин. STEAM фанларини компонентларини бир марта ўзаро алоқаларни тузатишда моделлаштириш ва ракамга муҳим ахамият ишлаб чиқариш.

Шуни айтишимиз мумкинки моделлар хамда модел яратиш яратганлари STEAM фанларининг интеграциясини очиб берувчи жиддий воситалардан бири ҳисоблаб чиқилади. Моделга қараб бўлган фанларнинг бирлаштиришнинг йўллари урганилиб, модел ишлаб чиқиш оркали яратилган талаба ёки укитувчи киритилганда узи бажаради.

STEAM ўқув ёндошувни амалга ишлаб чиқариш фундаментал ва амалий билимлар, замонавий технологияларнинг комбинациялари ва асосий асослари, улардан амалий мақсадларда самарали фойдаланиш мухандислик инновацион фаолиятининг асосли мезонига айлантирмоқда. Бунинг натижаси сифатида мухандислик ўқувга янги ёндошув шаклланади. Модел компанентларини ўрганиш ва улардан тўғри фойдаланишга олиш STEAM фанлари таълимни амалиётга ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди.

STEAM изланиш, танқидий фикрлаш ва фаол таълимни белгиловчи жараёнга асосланган. STEAM дарслари ва STEAM ёндашувининг бутун ғояси шундан иборатки, текширув, қизиқувчанлик, муаммонинг ечимини топишда ижодий бўлиш ёндашувнинг асоси ҳисобланади. STEAMда гуманитар фанлар ўзаро боғланган.

STEAMдан фойдаланиш ҳақида гап кетганда, шуни тушунишимиз керакки, дарсни лойиҳалаштириш бошқа, STEAMни амалда кўриш бутунлай бошқа нарса. Ушбу дарслар давомида талабалар мутлақо бошқа даражадаги машғулотлар билан шуғулланадилар ва кўпинча анча кучлироқ натижаларга эришадилар. Дарсда санъатнинг аралашуви натижавийликни кўрсатади.

Педагогика университетлари ўқув режасида белгиланган ушбу фанни мактабдан ташқари таълим муассасаларида, яъни “Баркамол авлод” болалар мактабларининг STEAM хоналарида ташкил этиш бевосита амалиётнинг ўзида жараённи самарали кечишини, талаба учун комфорт муҳитни, етарлича асбобускуна мавжудлигини, ДТСда белгиланган талаба эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма, малака ва компетенцияларнинг ривожланишини таъминлайди. Талаба жамият учун малакали, етук кадр бўлиб етишишига замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Sh. TURDIYEV Zamonaviy STEAM ta'limiga asoslangan muhandislik ta'limi rivojlanishining dunyoviy ko'rinishlari. Жамият ва инновациялар - Общество и инновации - Society and innovations Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index Special Issue - 02 (2022) / ISSN 21811415

2. Шохрух ТУРДИЕВ, STAEM ФАНЛАРИНИ ТАДКЩ ЭТИШДА, STEAM ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/2/1] ISSN 2181-7324

3. Turdiyev Shoxrux Razzoqovich. (2021). MODELING STAEM SCIENCES IN HIGHER EDUCATION. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, **7**(12), 119-122. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/R78WE

4. Shoxrux Razzoqovich Turdiyev DIDACTIC PRINCIPLES OF GUIDING THEORETICAL KNOWLEDGE FROM STEAM SCIENCE INTO PRACTICE. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal https://saarj.com Vol. 11, Issue 10, October 2021

5. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006. – 260 б.

ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аккулова Юлдуз Алимовна
ТКТИ Янгиер филиали ўқитувчиси

Ҳозирги кунда замонавий таълим ва ахборот технологияларини таълим жараёнига кенг жорий қилган ҳолда бу борада ижобий ютуқлар қўлга киритилмоқда. Таълим методларини ўқитувчи дарснинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда танлайди. Масалан, янги назарий, амалий билимларни ўрганиш дарсида муаммоли ўқитиш кўргазмали методларидан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Олинган назарий билимлар асосида кўникма ва малакаларни шакллантириш мақсади ташкил этилган дарсларда амалий, кўргазмали ва оғзаки методларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Таълим жараёнини ташкил этишда ўқитувчи томонидан ўқитиш методларидан тўғри танлаши ва дарс босқичларида ўринли фойдалана олиш, биринчидан, таълим жараёни мақсадига эришишни таъминлайди; иккинчидан ўқувчи-талабалар билим эгаллашга эришади.

Таълим методларини танлашда асосий эътибор шу жараёнда ўрганиладиган тушунчалар тизимига берилиб, бу тушунчалар моҳиятини, уларнинг алоҳида томонлари ва белгиларини тўла очиб бериш учун бир-бирини тўлдириб берувчи бир нечта методларни бир вақтда қўлланилади. Бунда ўқувчи-талабаларнинг умумий ривожланиш даражаси, таълим моддий-ўқув базасида маълум ўқитиш методларидан фойдаланиш имкониятлари, ўқувчи-талабаларнинг умумий назарий ва амалий тайёргарлик даражаси алоҳида ўрин тутади.

Таълим методларини танлаш ва уларни дарс жараёнида қўллаш амалий тажрибада ишлатиладиган фактлар ва шарт-шароитлар билан мувофиқлаштирилади, яъни ўқитувчининг назарий-амалий тайёргарлик

даражаси, бутун ўқитиш жараёнининг қандай тарбиявий мақсадга йўналганлиги ва унинг асосларини билиш даражаси ҳисобга олинади.

Методларни танлашда моддий-техника база: бино, ундаги мебеллар (стол, стул, доска), ўқув жараёни учун зарур бўлган нарсалар (компьютерлар, аудио-видео техникалар, зарур бўлган асбоб-ускуналар, моддий ашёлар, машғулотни амалга ошириш учун шарт-шароитлар ва ҳ.к.), кутубхона ва бошқалар ҳамда ўқув услубий база: ўқув-методик адабиётлар, ўқув дастурлари, назарий билимларни синаб кўриш учун ўқув-педагогик амалиётлар ўтказиш учун базалар ва бошқаларнинг замонавий талаблар даражасида таъминланганлиги ҳам муҳим ўрин тутади. Хулоса қилиб айтганда, таълим методларини танлашдан олдин ўқитувчи дарснинг мақсадларини (таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи) тўғри аниқлаб олиш, ўрганиладиган назарий ва амалий материал мазмунини аниқлаштириб олиши, бунда асосий вазиятларга аниқлик киритиш, ўқув материалининг мантиқан тугалланган элементларини ажратиб чиқиш ва фойдаланиладиган ўқитиш шакллари ва воситаларини аниқлаб олиши талаб этилади.

Таълим жараёнини ташкил этишда ўқитувчи томонидан ўқитиш методларини тўғри танлаши ва дарс босқичларида ўринли фойдалана олиш, **биринчидан**, таълим жараёни мақсадига эришишни таъминлайди; **иккинчидан,** ўқувчи-талабалар билим эгаллашга эришади. Пировард натижада таълим жараёнининг асосий мақсади бўлган таълим самарадорлигини ошишига эришилади.

Таълим методларини танлашда асосий эътибор шу жараёнда ўрганиладиган тушунчалар тизимига берилиб, бу тушунчалар моҳиятини, уларнинг алоҳида томонлари ва белгиларини тўла очиб бериш учун бир-бирини тўлдириб борувчи бир нечта методлар бир вақтда қўлланади. Бунда ўқувчи-талабаларнинг умумий ривожланиш даражаси, таълим моддий-ўқув базасида маълум ўқитиш методларидан фойдаланиш имкониятлари, ўқувчи-талабаларини умумий назарий ва амалий тайёргарлик даражаси алоҳида ўрин тутади.

Таълим методларини танлаш ва уларни дарс жараёнида қўллаш амалий тажрибада ишлатиладиган фактлар ва шарт-шароитлар билан мувофиқлаштирилади, яъни ўқитувчининг назарий-амалий тайёргарлик даражаси, бутун ўқитиш жараёнининг қандай тарбиявий мақсадга йўналганлиги ва унинг асосларини билиш даражаси ҳисобга олинади.

Методларни танлашда **моддий-техника база**: бино, ундаги мебеллар (стол, стул, доска), ўқув жараёни учун зарур бўлган нарсалар (компьютерлар, аудио-видео техникалар, ўқув лабораториялар учун зарур бўлган асбоб-ускуналар, моддий ашёлар, машғулотни амалга ошириш учун шарт-шароитлар ва ҳ.к.), кутубхона ва бошқалар ҳамда **ўқув услубий база**: ўқув-методик адабиётлар, ўқув дастурлари, назарий билимларни синаб кўриш учун ўқув-педагогик амалиётлар ўтказиш учун базалар ва бошқаларнинг замонавий талаблар даражасида таъминланганлиги ҳам муҳим ўрин тутади.

Хулоса қилиб айтганда, таълим методларини танлашдан олдин ўқитувчи дарснинг мақсадларини (таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи) тўғри аниқлаб олиш, ўрганиладиган назарий ва амалий материал мазмунини аниқлаштириб олиши, бунда асосий вазиятларга аниқлик киритиш, ўқув материалининг мантиқан тугалланган элементларини ажратиб чиқиш ва фойдаланиладиган ўқитиш шакллари ва воситаларини аниқлаб олиши талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной обҳеобразовательной школе. М. Педагогика 1985.

2. Ч.Э.Мирзаев, Саматов С. Таълимда янги педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма, Гулистон 2003. 48-бет.

3. Ч.Э.Мирзаев «Замонавий университет тизимида таълим технологиялари». Замонавий университет моделини яратиш муаммолари ва вазифалари Халқаро илмий-амалий конференция маърузалар тўплами, Гулистон 2003 йил, 9-11 бетлар.

ABU RAYHON BERUNIY SIYMOSI RASSOM NIGOHIDA

Xomidova SH.R.
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn instituti 1 bosqich talabasi

Аннотация: Ўзбекистон рангтасвирида тарихий жанр алоҳида ривожланган жанрлардан бири саналади. Рассомлар турли тарихий-илмий манбаларга таянган ҳолда тарихий шахсларнинг қиёфасини яратишга ҳаракат қилишган. Ушбу мақолада буюк мутафаккир Абу Райҳон Берунийнинг сиймоси XX аср Ўзбекистон рангтасвирида қандай тасвирлангани ҳақида санъатшунослик мулоҳазалари тақдим эилган.

Аннотация: Исторический жанр считается одним из особо развитых жанров в живописи Узбекистана. Художники пытались создать образы исторических личностей, опираясь на различные исторические и научные источники. В данной статье представлен искусствоведческий анализ о том, как образ великого мыслителя Абу Райхана Беруни изображен в живописи Узбекистана XX века.

Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor

Abu Rayhon Beruniy “Javohirnoma”

Tasviriy san’atning asosiy maqsadlaridan biri olamni badiiy idrok etish bilan birga tarixni anglash, uning yorqin sahifalarini jonlantirish orqali yoshlarning badiiy-intelektual salohiyatini oshirish sanaladi. Bu jarayonda tarixiy rangtasvirning roli katta. Shonli o‘tmish va ulug‘ ajdodlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston tarixi doimo

rassomlarni qiziqtirgan eng sara mavzudir. Xususan, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng tarixiy janr va tarixiy portret yanada dolzarb tus oldi. Ular orasida umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan buyuk aql-zakovat sohiblari Ibn Sino, Al Xorazmiy, Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg’oniy, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod siymolariga ijodkorlar ko‘p murojaat qilishgan. Ushbu ma’ruzada Sharq renessansi qomusiy olimlaridan biri **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy** (973, 4 sentabr — 1048, 11 dekabr) siymosi rassomlar ijodidagi talqinini yoritish maqsad qilingan.

Har bir davrda Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy merosi qadrlangan va jahon davlatlari tomonidan munosib e’tirof etilgan. Olimga bag‘ishlangan yodgorliklarni dunyoning turli burchaklarida uchratish mumkin. Xususan, O‘zbekiston, Hindiston, Eron, Latviyada ulug‘ olimning yodgorlik monumentlari o‘rnatilgan.

1970-1990-yillari yurtimiz va jahon madaniyati tarixiga ulkan hissa qo‘shgan shoirlar, olimlarning obrazlarini aks ettiruvchi mahobatli haykaltaroshlik, rangtasvir tez rivojlandi. Bular Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Al Xorazmiy singari buyuk mutafakkirlarning obrazlaridir. Haykallar nafaqat poytaxt Toshkentda, balki Respublikamizning boshqa shaharlarida ham o‘rnatildi. Bu haykallarda nafaqat yurtimizdagi, balki xorijdagi haykal yasash san’ati tajribalarini ham ko‘rish mumkin.

Beruniyning etalonga aylangan obrazi Malik Nabiyev qalamiga mansubdir. O‘z asarlarida tarixiy voqealar mazmunini aniq ifodalashga harakat qilgan mo‘yqalam sohibining asarlarida g‘oyaviy jihatdan boy bo‘lgan mavzulardan biri tarixiy siymolar obrazidir. Buyuk qomusiy olam Abu Rayhon Beruniyning portreti (1972) har jihatdan mukammal ishlangan. 1949 yili Al Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs e’lon qilinadi. Bu konkursda o‘ttiz nafardan ortiq o‘zbekistonlik ishtirok etishadi. Shu tanlovda Malik Nabiyev ham qatnashdi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalarga nisbatan to‘laqonli, deb e’tirof etiladi. 1973-yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e’lon

qilinadi. Rassom Malik Nabiyev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib va nihoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g‘olibi bo‘ladi.

Beruniy portreti tanlovdan so‘ng YUNESKOning “Kuryer” jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko‘pgina jurnal va gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqarildi. Portretda ilm muammolarini yechishga chog‘langan, vazmin, nigohi olisni ko‘zlayotgan alloma xarakteri ifoda etilgan. Rassom ilm sirlarini yechishga butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalantiradi. Kartinaning keyingi planlaridagi kitoblar ilm – fanga bog‘liq bo‘lgan buyumlar – Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir ekanini yanada bo‘rttirib ko‘rsatilishiga xizmat qilgan.

Portret kompozitsiyasi sodda va ifodali chiqqan. Olim oyoqlari o‘yma naqshli, o‘simlik naqshlari bilan bezatilgan kichikroq xontaxta yonida tomoshabinga qarab o‘tirgan holda tasvirlangan. Xontaxta ustida olim chap qo‘li bilan ushlab turgan qo‘lyozmalar turibdi. Uning egnida chetlari va yengiga bezakdor jiyak tikilgan shoyi, saroybop chopon. U murakkab, o‘zgaruvchan nafarmon pushti rangda. Bir lahzaga Al Beruniy qo‘lyozmalardan bosh ko‘targan va qarashlariga qanchalik diqqat va taranglik jamlangan. Bu insonning fikri, aqli, ichki quvvatining ulkan harakati his qilinadi va rassom bu hislatlarning barchasini o‘z asarida bera oldi. (U.Mamatov. B. 95)

Beruniy tavalludining ming yilligiga bag‘ishlab yaratilgan yana bir muhim asar bu Qutlug‘ Basharovning Abu Rayxon Beruniy portreti. linogravyurasi (90 x 70 sm. 1972) sanaladi. Unda ko‘hna Sharq shahri va yarim oy fonida tunlari ilm yo‘lida bedor bo‘lgan olimning yon tomondan tasvirlangan obrazi aks etgan. Uning gavda holati ulug‘vor va vazmin. Iyagiga ko‘tarilgan qo‘llari, olislarga qaratilgan nigohi va xaritaga yo‘naltirilgan chap qo‘li Beruniy obraziga o‘ychanlik va salobat bag‘ishlaydi. Linogravyuradagi har bir chiziq, bo‘rttirilgan nurva soya o‘yinlari g‘ayb ilmiga cho‘mgan ulug‘ qomusiy olimning koinot ko‘lamidagi tafakkurini namoyon etadi.

1980-yilda ishlangan J.Umarbekovning “Ongli inson” kartinasida go‘yoki Rafael Santining “Afina maktabi” kabi o‘tmishda yashab o‘tgan fan va madaniyat

buyuk arboblari tasvirlangan. Bu yerda shoir Alisher Navoiy va qadimgi yunon faylasufi Arastu, hamda XX asr olimi Albert Eynshteyn yonma-yon tasvirlangan. Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Dmitriy Mendeleyevar orasida Abu Rayhon Beruniy siymosiga sharafli o‘rin ajratilgan. Uning o‘rni G‘arb Uyg‘onish davri vakillari Dante Aligyeri, Leonardo da Vinchi obrazlari oldida. Zotan shu orqali rassom o‘sha paytda noma’lum bo‘lgan, G‘arbda, okean ortida joylashgan Amerika qit’asi borligini ma’lum qilgan Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosini g‘arb mutafakkirlari ilmiga fundamental asos bo‘lgani alohida ta’kidlamoqchi. Asar kompozitsiyasini izlash davomida ko‘plab eskizlar chizilgan, so‘ngra ular yordamida surat hozirgi ko‘rinishini olgan. Unga rassom doira chiziqlar kiritgan, yuqoridagi markazga oy taqvimi ishlangan, tasvir doira bo‘ylab atom formulasi, inson embrioni va o‘simliklarning genetik kodi bilan boyitilgan. Ular yerdagi hayotning ramzi hisoblanadi va fizika, genetika, biologiya kabi fanlar bilan bog‘liq. Shuningdek rassom inson tafakkuri rivoji ramzi bo‘lib qolgan, uning koinotga qo‘ygan qadamini ifodalovchi odamni tasvirlagan. Shu bilan birga suratda u Abu Rayhon Beruniy Hindistonda kashf qilgan o‘nlik kasr formulasini yozib qo‘ydi. Asarning oltin kesishuv markazida inson qo‘li bilan yaratilgan narsalargina saqlanib qoldi, hayot esa vaqtlar mobaynida qumdekoqib ketadi, degan ma’noda qum soat tasvirlangan. Qum soat Veneraning o‘ng oyog‘i yonida turibdi. Yuqoridagi tasviriy uchullar orqali rassom ajdodlarga qoldirilgan ilm vaqt girdobida yo‘q bo‘lmasligiga ishora qiladi.

Mustaqillik yillarida tarixiy siymolarni qiyofasini tiklash, ularning obrazi orqali yoshlarning ma’naviy ongida milliy vatanparvalik ruhini shakllantirish kabi vazifalar dolzarb tus oldi. Shu munosabat bilan tasviriy san’atda tarixiy portret va tarixiy janrdagi asarlar ko‘paydi. Ular orasida 2005-yilda haykaltarosh Ravshan Mirtojiyev tomonidan Toshkent shahrida “Beruniy” yodgorligini alohida ta’kidlash mumkin. Aynan shu yili Rigada ham Abu Rayhon Beruniy haykali o‘rnatilgan. Bugungi kunda Hindiston poytaxtida joylashgan Jamiya Milliya Islamiya (Jamia Millia Islamia - JMI) universiteti hududida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haykalini o‘rnatish rejalashtirilgan. Haykal universitetga O‘zbekiston tomonidan

taqdim etilgan. Ushbu monument Beruniyning jahon hamjamiyati, jumladan, hind xalqi oldidagi xizmatlarining yuksak e’tirofi ramzi bo‘lishi kutilmoqda.


Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy rangtasvirda tarixiy obrazlar, xususan Abu Rayhon Beruniy siymosi rassomlar e’tiborini doimo jalb qilib kelgan. Beruniy siymolarida rassom va haykaltaroshlar qomusiy olimning teran zakovati, olam sirlarini anglashga qaratilgan tafakkurini ifodalash orqali komil inson obrazini berishga intilishgan. Ular tasviriy san’atning badiiy-ifodaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda Beruniyni Sharq donishmandi, mutafakkiri qiyofasida tasvirlashgan. Garchi Malik Nabiyev tomonidan yaratilgan portret Beruniy siymosining etaloniga aylangan bo‘lsa-da, yosh ijodkorlar o‘z izlanishlarida to‘xtamasliklari, olimning insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasini to‘laqonli ochib beruvchi yirik kartina va monumentlar yaratishni maqsad qilishlari lozimdir.



Qutlug‘ Basharov. Abu Rayxon Beruniy portreti. Linogravyura. 90 x 70 sm. 1972.



Serik Pirmatov. Abu Rayhon Beruniy portreti. qog‘oz, tush, pero. 5 x 10 sm



Malik Nabiyev. Abu Rayhon Beruniy portreti. 1973. Mato, moybo‘yoq. 126x100sm.

O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OKKAZIONALIZM HODISASINING NAMOYON BO’LISHI

Alimova Ferangizbonu Baxodir qizi
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada okkazionalizm tushunchasi va uning kelib chiqishi haqida malumot berilgan. Okkazionalizm hodisasining o’zbek tilidagi o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va uning o’zbek adabiyotida ifodalanishi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: okkazionalizm, okkazional so’zlar, emotsional-ekspressiv bo’yoq, nutq jarayoni.

Til muloqot jarayonimizning ajralmas bir qismi bo’lib, muntazam o’zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Mustaqilligimiz tashabbusi bilan o’zbek tilshunosligida ham bir qator o’zgarishlar va yangiliklar amalga oshirildi. Okkazionallik hodisasi o’zbek tiliga ham xos bo’lgan nutq birligi hisoblanadi. Tilshunos olimlar ushbu hodisaga turlicha yondashishgan: V.N. Xoxlachyovaning fikriga ko’ra tilning lug’at boyligidan o’rin olishga ulgurmagan “noqonuniy” so’zlar okkazional bo’lishi mumkin. A.G. Likov esa bunday terminlarni quyidagicha tariflaydi: “O’zida tasodifiylik, bir marta qo’llanishlik kabi xususiyatlarni mujassam etgan nutq birliklaridir”. Haqiqattan ham, okkazionalizm hodisasiga to’xtaladigan bo’lsak, bunday so’zlarda yangilik bo’yog’i mavjud va shu sababli ular neologizmlarga ham o’xshab ketadi.[2] Tilshunosligimizda okkazionallik hodisasi haqida quyidagicha malumot berib o’tilgan. Okkazional atamasi lotincha *occasionalis* so’zidan olingan bo’lib, *tasodifiy* degan manoni anglatadi. [3] Okkazionalizmlar aniq nutqiy jarayonda so’zlovchi tomonidan faqat bir martagina ishlatiladigan, emotsional-ekspressivlik xususiyatiga ega bo’lgan nutq birligi hisoblanadi.[2] Bu kabi so’zlar o’zbek adabiyotida ham shoir va yozuvchilarimiz tomonidan keng qo’llanilgan. Shuning uchun leksik okkazionalizmlar mavzusida izlanishlar olib borgan O.

To’xtasinovaning aytishiga qaraganda okkazional so’zlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning biror muallifga oid ekanligidir.[2] Bunday terminlar umumxalq yoki adabiy lug’atlarga kiritilmaydi negaki ular nutq jarayonida muallif tomonidan aynan shu vaziyat uchun ishlatiladi. Okkazional so’zlarni yaratish uchun ijodkorlar har xil so’z yasash yoki birikma metodlaridan unumli foydalanishadi.

Misol qilib G’afur G’ulom ijodlariga nazar tashlaydigan bo’lsak, u kishi *–dosh* so’z yasovchi qo’shimchasini ishlatib ushbu yangi so’zlarni yaratganlar: eldosh, yerdosh, kurashdosh, qalamdosh. “Sog’inch” nomli she’rlarida okkazionallik hodisasini aniq uchratish mumkin: [1]

Xoki anjir tugab, qovun g’arq pishgan,
Baxtli tong otar chog’ uni kuzatdim.
Bir mal’un gulshanga qadam qo’ymishkan,
*Joni bir **jondosh**lar qolarmidi jim.*

Yana bir shoirimiz ijodlariga e’tibor bersak, Erkin Vohidov o’zlarining “O’zbegim” nomli she’rlarida ham *–iston* qo’shimchasi orqali okkazionalizm yaratib, quyidagicha ishlatganlar:

Ko‘zlaringda okdi tunlar
*Kavkab**iston**, o‘zbegim.*
Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek
Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon tokiga ilk —
Qo‘ydi narvon, o‘zbegim.

Yuqorida aytganimizdek, okkazionalizmlar har bir ijodkorning uslubiga xos bo’lgan va aynan u tomonidan yaratilgan so’zlardir. Ular asosan tilimizda bor bo’lgan affikslar yordamida yasaladi. Quyidagi so’zlar garchi doimiy nutqimizda ishlatilmasa ham, okkazionalizm sifatida berilgan va badiiy adabiyotda ishlatilgan so’zlar qatoriga kiradi: [1]

davlatxona – *hukumat uyi*
barakaxona – *tug’ruqxona*
shaharsozlar – *quruvchilar*
musibatnoma – *ta’ziyanoma*

Okkazional so’zlarni hozirgi kunda yangi so’zlar yoki neologizmlarga teng deb ham qabul qilish mumkin, negaki ikkalasi ham yangilik xususiyatiga ega. [4] Okkazionalizmlar uslubiyat bilan bog’liqligi sababli badiiy ijodda keng qo’llaniladi. Ularni hattoki tilshunos Azim Hojiyev “individual-uslubiy neologizm” deb ham ataydi.[4] Okkazionalizm hodisasi hech qanday qat’iy qoidalarga bo’ysunmasligi va g’ayritabiiyligi bilan boshqa so’zlardan farq qiladi.

Masalan: Ko’nglimni ozdirur ***ko’ngilbozliklar***

Izladim

Ko’ngildan ko’ngil uzmadim. (I.Mirzo)

Ushbu parchada qo’llanilgan “ko’ngilbozliklar” so’zi nutqiy yasama okkazionalizm bo’lib, ijodkorning yangi so’zlar yasashni davom etayotganligini, nutqiy ijodkorligini bildiradi. Xulosa qilib aytganda,okkazionalizmlar tarix nuqtai nazardan yangi so’z yoki barqaror so’z bo’lmasada, yangiligi bilan tinglovchilar e’tiborini tortib estetik zavq bag’ishlaydi. Bu kabi individual nutq birliklarimiz lug’at qatlamimizni boyitishga va ijodkorning badiiy maqsadlarini amalga oshirishga ko’maklashadi. [3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonsaidova S, Sharipova O’. (2009). O’zbek tili stilistikasi.
2. Qurbonova M. Okkazionalizm va Neologizm hodisasi. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 6-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi to’plami.
3. To’xtasinova O. (2022). Leksik okkazionalizmlar va uning yondosh hodisalarga munosabati.
4. Asadov T. Mardonova S. (2021). Okkazionalizm va individual nutq neologizmlari. “Talqin va Tafakkur” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to’plami.

A BROAD CLARIFICATION OF POLITICAL TEXTS

Boltayeva Nargiza Rakhmatovna
Researcher of Samarkand State Institute of Foreign Languages, Teacher of Languages Department in ZARMED UNIVERSITY
nargizaboltayeva02@gmail.com+998906116426

Abstract: Political texts are the main part of our global world. Political speeches, especially in the process of globalization, play an important role in aiding or obstructing world peace. This is particularly valid for in all relations. This article focuses on the analysis of political texts.

Keywords: Political discourse, political speech, political culture, political concept, political communication.

Introduction

This article is about political communication in the very broadest sense, incorporating the communicative practices of all kinds of political organizations and some, such as public service broadcasting, which are not supposed to be 'political' at all, in both domestic and international arenas.

More than half a century ago, George Orwell wrote in his article "Politics and the English Language": "In our time, political speech and texts are primarily a defense of what cannot be defended. The continuation of British rule in India, the purges and deportations in Russia, the atomic bomb dropped on Japan can, of course, be defended, but only by arguments that will seem too crude for most people and which do not coincide with the declared goals of political parties. Therefore, political language should consist largely of euphemisms, questions and vague statements" [1; 7-10]

In this article, I will try to show that it is possible to analyze texts and break through the deliberate obfuscation of meaning; based on text analysis, one can draw reliable conclusions. The main goal of the course is to explain how political texts are

structured, to show how they can be analyzed and what information can be extracted from them. The ability to carefully read political texts is a necessary condition for a conscious attitude towards politics.

The information conveyed by any political text is potentially enormous. In every political text, the world is essentially created and described as the author of the text sees it. And from this description we can find out not only how the author sees the world, but also talk about his relationships, intentions, and understanding of the world of politics.

I focused on modern political texts that we encounter every day and which form the basis of modern political discourse. These texts were subjected to careful analysis.

We will also pay attention to the classics of political rhetoric, texts that have gone down in history, moving masses of people, their hearts and sympathies. Work with these texts will go in parallel, as if in addition to work with the “stale bread” of political discourse.

Main part

In developing a definition of a political text, let us define what a political text is. We will follow the example of the exact sciences, which, when speaking about natural phenomena, do not try once and for all to give a true definition of what the phenomenon is, but use in their definitions what they know at the moment and what is currently understood, say, by physicists under one or another physical phenomenon. If, over time, science makes clarifications to the concept or the concept ceases to satisfy the facts known to science, then the necessary adjustments are made to the definition of the phenomenon. So, we will understand by “political text” a text that deals with current political issues and that is addressed to a general audience, while by “mass” we mean a potentially mass audience [4; 34-40].

Why do they write political texts? Ultimately, to influence the political situation, the balance of power, the opinion of society regarding political problems, phenomena, events, figures. We will call political problems that directly relate to: a) the distribution and redistribution of power, the conquest of political power; b) the

political structure of society, the structure of power; c) political management of society.

And although we will turn to political texts of the past, to foreign political texts, in the strict sense these texts are political for us only to the extent that we understand the political context of the time and place of their creation and/or to the extent that their themes are relevant for us today.

A political text has strategic and tactical objectives. Any political text is potentially, in strategic terms, aimed at changing or maintaining the current political situation, at redistributing or maintaining the existing balance of power. But in their pure form, texts aimed at achieving these strategic objectives are usually associated with election and other political campaigns: marches, protests, strikes.

The ideological function of a political text includes several components. Firstly, it consists in the fact that the author of the text selects and formulates those problems that he considers necessary to highlight and the solution to which he proposes. This includes a description of the general context of the situation, a program of action, and polemics with a political opponent. We call this function ideological because the image of reality in a political speech or text is given as the author sees and understands it. And what problems are the main ones, and what ways are the best to solve these problems, and the situation in which the political struggle unfolds - all this depends on how the author of the text sees the surrounding reality[1; 77-90].

Conclusion:

A politician is revealed in a political text, a political speech, to a much greater extent than is commonly thought. His speech has it all: how he sees today and what he will do tomorrow. Of course, the last remark is true only for a democratic system. Moreover, only within the framework of a democratic system does the study of a political text have a social meaning and not, say, a purely scientific or private one, i.e. is a factor in the political process. Strictly speaking, political science as a profession, as a scientific activity, makes sense only in a democracy.

Political discourse is part of our culture and an essential element of political life. Studying political discourse and studying the speeches of individual politicians

makes us competent participants in political life, helps us understand what a particular politician brings with him, and make an informed choice. This is especially important if you are involved in the political process as a commentator, researcher, critic, journalist, etc. influence the actions, decision-making, and choices of some part of the political audience or individual participants in the political process.

References:

1. Алтунян А. Г. “Анализ политических текстов”: Учебное пособие. — М.: Университетская книга; Логос, 2006. — 384 с.

2. Аристотель. Политика. Афинская политика. – М.: Мысль, 1997. – 458 с.

3. Аристотель. Риторика. Книга 1 // Античные риторики. – М.: Изд-во МГУ, 1978. – С.15–69.

4. П. Чудинов Современная политическая коммуникация: Учебное пособие / Отв. Ред. А / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2009. – 292 с.

5. Чудинов А.П. Политическая лингвистика: — М: Флинта : Наука, 2006. — 256 с.

6. Raxmatovna, B. N. Specific Features of Political Speech. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(12), 2022,80-87. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/93U2T

7. Boltayeva N.R (2023) “Political linguistics as a basis of Political speech” International Journal on Integrated Education 6 (5).270-273, https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING MOBILE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING "INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES" IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Mamasoliyev Akmaljon

Teacher of Kokand State Pedagogical Institute

2932528@gmail.com

Abstract: The focuses on improving the methodology of using mobile educational technologies in "Informatics and Information Technologies" in general education schools, specifically for 6th grade students. The goal is to enhance the teaching and learning experience by leveraging mobile technologies. The study aims to develop and implement a new approach that maximizes the benefits of mobile educational technologies in the classroom.

Key words: Mobile technologies, mobile education, electronic resources, distance education, quality of education, virtual environment, mobile application, online platforms, quizzes, videos, google classroom.

Introduction

In today's digital age, incorporating mobile educational technologies in teaching is becoming increasingly essential. However, the methodology of using these technologies needs to be tailored specifically to meet the needs of 6th graders studying "Informatics and information technologies" in general education schools.

This article delves into the various strategies and approaches that can be utilized to enhance the effectiveness of mobile educational technologies in the teaching and learning process. By exploring the challenges faced by educators and identifying innovative solutions, we aim to provide valuable insights to educators looking to optimize the use of these technologies in the classroom.

The Importance of Using Mobile Educational Technologies in Teaching

Mobile educational technologies offer numerous benefits in the teaching of "Informatics and information technologies" for 6th graders. Firstly, these technologies provide students with access to a wealth of information and resources beyond what traditional textbooks can offer. With mobile devices such as tablets or laptops, students can easily explore various online platforms, educational apps, and interactive websites to enhance their learning experience. This access to a wide range of materials helps to foster curiosity and self-directed learning.

Additionally, mobile educational technologies enable teachers to create a more engaging and interactive classroom environment. By incorporating multimedia elements such as videos, animations, and interactive quizzes, teachers can capture students' attention and make complex concepts more understandable. This approach not only increases student engagement but also promotes critical thinking and problem-solving skills.

Challenges in Using Mobile Educational Technologies in Teaching "Informatics and Information Technologies" for 6th Graders

Despite the numerous benefits of using mobile educational technologies, there are challenges that need to be addressed to ensure effective integration into the curriculum. One of the main challenges is the lack of access to mobile devices and internet connectivity for all students. In some schools and communities, not every student has access to a personal device or reliable internet connection, creating a digital divide that hampers equal learning opportunities. It is crucial for schools and policymakers to address this issue by providing access to devices and internet connectivity to all students.

Another challenge is the potential distraction that mobile devices can bring to the classroom. While these devices offer great educational potential, they also have the capability to divert students' attention to non-educational content or activities. Teachers must find ways to manage and minimize distractions, such as implementing strict device usage policies and incorporating interactive activities that require active participation.

Incorporating Mobile Educational Technologies in Lesson Planning

Integrating mobile technologies into lesson planning is crucial for a seamless and effective learning experience. Teachers should identify specific learning objectives and determine how mobile technologies can support and enhance those objectives. By aligning the use of mobile technologies with the curriculum, teachers can ensure that these technologies are not used as mere distractions but as tools to facilitate learning.

Additionally, teachers should consider the diversity of learning styles and preferences among students when incorporating mobile technologies. Some students may prefer visual learning, while others may benefit more from interactive activities. By diversifying the use of mobile technologies and accommodating different learning styles, teachers can engage and cater to the needs of all students.

Interactive Learning Apps for Teaching "Informatics and Information Technologies"

Selecting appropriate interactive learning apps is vital for effective teaching of "Informatics and information technologies" using mobile technologies. These apps should align with the curriculum and provide meaningful and engaging learning experiences. There are various educational apps available that cover topics such as coding, digital literacy, and computer programming. Teachers should evaluate and select apps that are age-appropriate, user-friendly, and support the learning objectives of the curriculum.

Furthermore, teachers can encourage collaborative learning by utilizing apps that allow students to work together on projects or assignments. Collaboration not only enhances student engagement but also promotes teamwork and communication skills, which are essential in the digital age.

Gamification in Teaching "Informatics and Information Technologies"

Gamification is a powerful tool that can significantly enhance the teaching of "Informatics and information technologies" using mobile technologies. By incorporating game elements such as rewards, challenges, and leaderboards, teachers can create a motivating and immersive learning experience. Gamification not only

increases student engagement but also promotes problem-solving skills and critical thinking.

Teachers can utilize gamification techniques by creating educational games or utilizing existing gamified platforms. These platforms often provide a wide range of educational games covering various topics in "Informatics and information technologies". By incorporating gamification, teachers can transform the learning process into an enjoyable and effective experience.

Assessing the Effectiveness of Using Mobile Educational Technologies in Teaching

To ensure the effectiveness of using mobile educational technologies, it is crucial to assess their impact on student learning. Teachers should implement both formative and summative assessment methods to evaluate students' progress and understanding. This can be done through quizzes, assignments, projects, or presentations that incorporate the use of mobile technologies.

Additionally, feedback from students should be collected to gather insights on their experiences with mobile technologies. This feedback can help teachers identify areas for improvement and make necessary adjustments to their teaching methodology.

Training and Support for Teachers in Using Mobile Educational Technologies

To address any resistance or lack of familiarity among teachers, training and support programs should be provided. These programs should focus on enhancing teachers' digital literacy skills, introducing them to various mobile technologies and applications, and providing guidance on how to effectively integrate these technologies into their teaching practices.

Professional development workshops, online courses, and peer support networks can be established to facilitate continuous learning and sharing of best practices among teachers. By providing ongoing training and support, teachers can gain the confidence and skills necessary to embrace mobile educational technologies in their classrooms.

Conclusion and Future Prospects for Mobile Educational Technologies in Teaching "Informatics and Information Technologies"

In conclusion, the methodology of using mobile educational technologies in teaching "Informatics and information technologies" for 6th graders requires careful consideration and implementation. By incorporating effective strategies such as integrating mobile technologies into lesson planning, selecting appropriate interactive learning apps, utilizing gamification techniques, assessing effectiveness, and providing training and support for teachers, we can enhance the learning experience and equip 6th graders with the necessary digital skills.

By improving the methodology of using mobile educational technologies in teaching "Informatics and information technologies" for 6th graders, we can foster a generation of digitally literate individuals who are equipped with the skills they need to thrive in the digital age. Let us embrace the potential of mobile technologies and empower our students to become the innovators and problem solvers of tomorrow.

References.

1. Ally, M. (2009). Mobile learning: Transforming learning and teaching. Athabasca University Press.

2. Crompton, H., Burke, D., & Gregory, KH (2017). Using mobile learning in PK-12 education: A systematic review. Computers and Education, 110, 51-63.

3. Hwang, GJ and Tsai, CC (2011). Research trends in mobile and ubiquitous learning: A review of publications in selected journals from 2001 to 2010. British Journal of Educational Technology, 42(4), E65-E70.

4. Pachler, N., Bachmair, B., & Cook, J. (2010). Mobile learning: structures, agencies, practices. Springer Science & Business Media.

5. Traxler, J. (2009). Learning in the mobile age. International Journal of Mobile and Blended Learning (IJMBL), 1(1), 1-12.

KURBANBOY BEKCHANOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA

Bekberganov Javohir Erkinboy o‘g‘li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassom va dizayn instituti San’atshunoslik va Muzeyshunoslik “San’at jurnalistikasi” 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston rang tasvirida ijodi alohida ahamiyatga ega, ammo kam o‘rganilgan rassom Kurbanboy Bekchanov ijodo yoritiladi. Maqolada rassomning ijodiy evalyutsiyasi, ijodiy shakillanish yillari, miniatyura ijodiga hos uslibiy chizgilari tahlil etilgan. Shuningdek e’tiborga molik asarlari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: O‘zbekiston rang tasviri, miniatyura, Kurbanboy Bekchanov ijodi, rangtasvir, grafika, badiiy ijod, kartina, kompozitsiya, ustoz shogirt.

Kurbanboy Bekchanov 1952-yil 25-avgustda Xorazm viloyati, yangiariq tumanida, Katta bog‘ qishlog’ida ziyoli oilasida tug’ilgan. 1960-yil Urganch shahridagi A.Ibragimov nomli o’rta maktabida ilk savodini chiqaradi. 8-sinfni bitirgach Kurbanboy 1968-yil Toshkent shahriga qarab yo’l oldi, yosh bo’lishiga qaramay o’z bilimi bilan dastlab P.P.Benkov nomli Respublika rassomchilik bilim yurtining rasm va chizmachilik bo’limiga o’qishga kiradi. O’qish yillarida yosh rassom ko’pgina bilimlarni egallab u yerda O’zbekistonda hizmat ko’rsatgan san’at arbobi I,Kuznechov rahbarligida o’qiydi. Rassomning aytishicha Kuznechov juda mahoratli, mehribon,talabchan o’qituvchi edi deydi. Kuznechov boshchiligidagi o’tkazilgan hayvonot bog’idagi amaliyotda chizilgan jonzotlarning qoralama va eskilari yosh rassomning ishtiyoqini oshirgan. Keyichalik o’qishda o’qib yurgan paytlari diplom ishining bajarilish jarayonida tugatilishiga ikki kun qolganda ikkinchi planda turgan to’rtta figurani ustozi R.Axmedov asardan o’chirtirib tashlagan. Asarda faqat bobo,kelin va ot qolgan. Rassom bir yillik izlanishlari davomida topolmagan kompozitsiyasi bir daqiqada topishga muvaffaq bo’lgan. Kompozitsiyadagi obrazlarni hammasini rassom hayotdan olgan. 1974-yilda institut talabasi bo’lib

akademik rassom R.Axmedov o’gitlari K.Bekchanov “Birinchi bahor “ bitiruv malakaviy ishida namoyon bolgan. Kuznechov K.Bekchanovning bilim yurtidagi bitiruv ishiga ham rahbarlik qilgan va natijada paxta hirmonidagi “N” gazetasida ishlayotgan yosh rassomlardan iborat ko’p figurali kompozitsiya paydo bo’lgan. Bu uning ilk jiddiy ishi edi. Dastlabki eskizlari qizil libosdagi askarlar, dala, traktor, bo’lgan. Ish jarayonida asarlarida maishiy janrga eshik qoqgan odamlarni hayotini tasvirlashga harakat etgan. K.Bekchanovning “Birinchi bahor” kartinasida birinchi planda bobo bir qism tuproqni olib mehr bilan u kaftini bu kaftiga solayotgani tasvirlangan. Bu bilan rassom boboning qalbida Ona vatanga muqaddas tuprog’iga nisbatan chuqur muhabbat borligini bera olgan. Dehqon bobo ancha tajribali, u tabiatning injiqliklariga qaramasdan unumli hosil olishga ahd qilgan. Bobo yonidagi kelini ham qattiq mehnat qilishi kerak, mehnatdan qorqmaydigan erkin holatda tasvirlangan. Asardagi ot obrazi kuch quvvat va yigit obraziga ishora qilingan. Yigit urushga ketib qaytib kelmagan bo’lsayam u shu yerda bor uning ruhi yashaydi hayot esa davom qilmoqda. Bobo, kelin va ot kompozitsiyasi aylannib bir-biriga chambarchas bog’lanib turadi. Orqa plandagi figuralar olib tashlanishi bilan bepayon dalalar ko’rinib turar edi.bu asarda K.Bekchanov birinchi bahor ya’ni bahorning chiroyliligini gullarni gullashini tasvirlagan. Rassomning ijodi faqat dastgohli ishlar bilan cheklanib qolmaydi. K.Bekchanov manumentalist rassom sifatida ham kata tajribaga egadir. San’atning ushbu sohasida 1985-yilda yaratilgan fresco-devoriy surati Urganch shahridagi hozirgi kunda kasb-hunar bilim yurtining binosini devoriga ishlangan. Rassom R.Xudayberganov bilan ijodiy hamkorlikda yaratilgan ushbu devoriy surat, ikkita kompozitsiyadan iborat: “To’y”, “Hosil bayrami” K.Bekchanovni kuzatar ekanmiz uning tasviriy asarlari serqirra ekanligiga odamlarni chuqur sevib, ularning jonli Partret ya’ni inson siymosi uning ichki dunyosini, oniy lahzalarini tasvirlash, insonning ruhiy holatlarini berish musavvirdan katta iqtidor, tinmay izlanishlar talab etadi. Portretda bosh va qo’lning bilakdan past qismi muhim ahamiyatga ega. Suratni chizayotgan kishi, tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilmog’i kerak.Insonga hos harakterni ifodalashda qo’l katta ahamiyatga ega. Ko’pchilik odamlar qo’l imo ishoralar yordamida suhbatlashadilar

va bu xususiyatlar ham harakter berishda yordam beradi. Ijodkorlar dehqon va ishchilar bularning har biri o’zgacha bir qissa va hikoyalar kerak bo’ladi.

Ularning har biri qalbi josh urub yashashga ishtiyoq qoni guppilab turadi. Kurbanboy Bekchanov 1995-yilda Respublikamiz poytaxti Toshkent shaxridagi O’zbekiston Badiiy akademiyasi ko’rgazmalar zalida Xorazm viloyati rassomlarning bir guruh rang tasvir rassomlari ko’rgazmasida qatnashchi va tashkilotchisi bo’lgan.Musavvir asarlari bir qancha chet mamlakatlardagi ko’rgazmalar ishtirokchisidir. Jumladan Rossiya, Gruziya, Angliya,Germaniya, Hindiston mamlakatlarida ko’rgazma zallarida bezab turubdi. 1995-yil rassom “Ezop” nomli asar yaratgan, bu asar uch qismdan iborat. 1-chi “Ezop” falsafasi 2-chi “Ozodlik” 3-chi “Makkorlik” deb nomlangan. K.Bekchanov institutda o’qib yurgan paytida Hamza teatrida “Ezop” spektakiliga tushgan. Ezop rolini Sh.Brchanov ijrosida ko’rgan. Ezopning ozodlikga intilish uning falsafasi juda ta’sir qilgan. Ezopning badbasharaligi, ozodlik, unga havodek naqadar zarur va qimmatli ekanligini san’atkor juda zo’r mahorat bilan ijro etib rassomga shu to’risida asar yaratishga turtki beradi. Bir inson uchun davlat, yurt uchun mustaqillik qanday muqaddas ekanligini o’ylab ko’ring. Iste’dodli musavvir K.Bekchanovning ijodiy imkoniyatlari mustaqillik yillarida tularoq namoyon bo‘ladi. Respublikamiz mustaqilligining 10 yilligiga bag’ishlab, rassom K.Bekchanov o’zining bor mahoratini va qobilyatini ishga solib bir qancha asarlar yaratgan. Bunday asarlardan biri “Oltin beshik” deb nomlanadi. Bir qarashdayoq bu asar faqat O’zbekiston to’g’risida ekanligini his etish mumkin. Kurbanboy Bekchanovning kompozitsiyalari “Xiva”, ”Kuz”, “Pochtalyon”, “Cholish urushga kuzatuv”, “Nabira va buvi”. Rassom asarlarida o’ziga xos ranglar jilosi, bo’yoqlar ifodasi mavjud.Kurbanoy Bekchanov har bir asariga o’zgacha yondashdi. K.Bekchanov 2003 yillarda yaratgan portretlarida insonning ichki va tashqi go’zalligini rang va kalarit yahlitligi orqali ochib berishi seziladi. “Muhammad Yusuf” portreti shunday asarlardan sanaladi.

Hozirgi kunda Kurbanboy Bekchanov Xorazm viloyati san’at internatida direktorlik lavozimida ish yuritib kelmoqda va yosh o’sib kelayotgan bo’lajak rassomlarga o’z iqtidori va rang tasvirni sir sinoatini o’rgatib kelmoqda.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF VALUE CHAIN FORMATION

Abdullayev Javoxir Jaxongirovich
PhD Student – Bukhara Engineering-Technological Institute

Abstract: This article shows the scientific basis of the formation of the value chains. The author reveals the systematized approaches to the formation of the value chains, its relevance for the regional economy and the essence of the concept of the value chains system.

Keywords: value chain, value chains system, price, value.

In modern economic conditions, the concept of value chains (value chain) is becoming increasingly popular, which has already been able to positively establish itself abroad as an approach to business management systems at various levels. "Value chains are an integral part of strategic planning for many businesses today. A value chain refers to the full lifecycle of a product or process, including material sourcing, production, consumption and disposal/recycling processes.” [1]

“The value chain describes the full range of activities which are required to bring a product or service from conception, through the different phases of production (involving a combination of physical transformation and the input of various producer services), delivery to final consumers, and final disposal after use. Considered in its general form, it takes the shape as described in Figure 1. As can be seen from this, production per se is only one of a number of value-added links. Moreover, there are ranges of activities within each link of the chain. In the real world, of course, value chains are much more complex than this. For one thing, there tend to be many more links in the chain.

In addition to the manifold links in a value chain, typically intermediary producers in a particular value chain may feed into a number of different value chains.” [2]




Figure 1

In economic theory, there are differentiated positions on the definition of value. Thus, in the theory of marginal utility, categories of subjective and objective value are distinguished, characterizing the first as a personal assessment of the product by the consumer and the seller; the second as exchange proportions, prices that are formed during competition in the market. As the needs of the subject gradually become saturated, the usefulness of the product decreases, which limits the development of this theory to questions of how to allocate funds to meet needs with limited resources.

One of the first approaches with elements close to the category under consideration is the concept of filiere chains (translated from French. - thread). This approach was developed in the 1960s at the National Institute for Agricultural Research (INRA) and the Agricultural Research Centre for International Development (CIRAD) as an analytical tool for empirical agricultural research. This concept has been applied to gain a more structured understanding of economic processes within the production and distribution systems of agricultural goods. [3]

The idea of a value chain, proposed by Michael Porter (1985) to describe how customer value accumulates in chain of actions leading to the final product or service. He developed his framework to analyze the specific activities through which

companies can create value, breaking down their activities into the processes that have the greatest impact on added value. [4]

The value chain is a tool that is necessary to understand the cost structure of an enterprise and how costs rise and fall depending on the types of activities. M.Porter identifies 5 primary and 4 secondary actions that make up this chain in any enterprise.

Let's consider five primary actions:

1. Material and technical support of the company's activities. This element includes actions related to the acquisition, storage and distribution of inputs, such as physical handling of raw materials and materials, their warehousing, inventory accounting, scheduling of vehicles, settlements with suppliers.

2. Production processes. These are actions associated with the transformation of inputs into the final product, in particular, machining, packaging, assembly, maintenance of equipment, testing of finished products, printing and operation of production areas and premises.

3. Material and technical support of sales. These are operations that involve the collection, storage and physical delivery of a product to customers.

4. Marketing and sales. All actions that involve the purchase and sale of a product.

5. Maintenance. Actions related to the provision of services.

Let's consider four secondary or supporting actions:

1. Procurement. Activities that involve the purchase of raw materials, inventories and other consumables materials in addition to machinery, equipment and buildings.

2. Development of technology. Actions related to product improvement or processes, including scientific research and development, product design and development, media research, design production processes, maintenance procedures, etc.

3. Human resource management. Actions related to attracting hiring, professional retraining, development, and remuneration of personnel.

4. Enterprise infrastructure support. These actions include general management, planning, financing, accounting, relations with government, quality management. [5]

All sources of sustainable competitive advantage of any enterprise hidden in the depths of the value chain.

In my opinion, the application of this concept in various sectors of the national economy will provide the opportunity for complete control over costs, as well as the ability to regulate them throughout the entire value chain and achieve an optimal final product, which will undoubtedly lead to increased competitiveness of enterprises, industries and as a result, national economy as a whole.

References:

1. WBCSD (2011) Collaboration, innovation, transformation: Ideas and inspiration to accelerate sustainable growth – A value chain approach, p.3 & 5, emphasis added.

2. Kaplinsky, R. and M. Morris (2001), A Handbook for Value Chain Research, prepared for the International Development Research Centre (IDRC), p.4–6 (emphasis added).

3. Philip Raikes. Global Commodity Chain Analysis and the French Filiere Approach /. Economy and Society 29(3):390-417 (August 2000). - 28 p.

4. Porter M. Competitive advantage: How to achieve high results and ensure its sustainability / 6th ed. - M.: Alpina Publisher, 2018. - 716 p.

5. Porter M. Competitive strategy. Methodology for analyzing industries and competitors- M.: Alpina Publisher, 2016. - 456 p.

MATEMATIKA DARSLARIDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI O’RGATISH

Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi

Namangan davlat universiteti 1-kurs tayanch doktaranti

Annotatsiya: Kombinatorika elementlari, qo’shish va ko’paytirish qoidasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kombinatorik masala turlari va ularga doir masalar yechish usullari ham bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Kambinatorika, o’rinlashtirish, o’rin almashtirish, guruhlash, kombinatorik masalalar.

“Kombinatorika“ atamasini matematikaga Leybnits tomonidan kiritilgan bo’lib, uni 1665-yil chop etilgan “Kombinatorika san’ati to’g’risida mulohazalar ” nomli kitobida 1-bo’lib qo’llagan.[1,B 77]. Kombinatorika- matematikaning chekli to’plam elementlarini berilgan qoidalar asosida tanlash va joylashtirish bilan bog’liq masalalarni yechish usullarini o’rganuvchi bo’limidir.

Kombinatorika tarixiga nazar tashlasak, bir necha ming yil avval Xitoyda sehrli kvadratlar tuzish, qadimgi Yunonistonda figurali sonlar nazariyasini tuzish masalasini o’rganishgan. Kombinatorika masalalari Samarqanddagi Ulug’bek maktabining taniqli matematigi Al-Koshiy, X asrda yashab ijod etgan Umar Xayyom, keyinchalik Yevropa olimlari jumladan, B.Paskal, J.Kordano, G.Leybnits,Ya.Bernulli, P.Ferma, L.Eyler va boshqa olimlarning ishlarida uchraydi.

Kombinatorika chekli sonda berilgan obyektlarning u yoki bu shartga bo’ysunuvchi kombinatsiyalarini sanashdir.[2,B 146.] Biz kundalik hayotimizda bajarayotgan ishlarimizni oson bajarish yo’llarini qidiramiz va bajarish usullarini tahlil qilamiz. Natijada kombinatorika qoidalaridan foydalanamiz. Ya’ni:

Qo’shish qoidasi. A obyekt n ta usul bilan, B obyekt esa m ta usul bilan tanlanishi mumkin bo’lsa, u holda A yoki B obyektni n+m ta usul bilan tanlash mumkin.

Misol-1. Birinchi idishda 3 ta oq va ikkinchi idishda 5 ta qora sharlar bor.Idishlardan bitta sharni necha usulda tanlab olish mumkin?

Agar bitta sharni birinchi idishdan olsak, bu ishni 3 ta usulda, agar ikkinchi idishdan olsak 5 ta usulda bajarishimiz mumkin. Bitta sharni qaysi idishdan olishimiz ahamiyatsiz bo’lgani uchun bu ishni qo’shish qoidasiga ko’ra, 3+5=8 xil usulda bajarishimiz mumkin.

Ko’paytirish qoidasi. Agar A element n ta usul bilan, undan keyin esa B element m ta usul bilan tanlanishi mumkin bo’lsa, u holda A va B juftlik nm ta usul bilan tanlash mumkin.

Misol-2. 3 ta ko’ylak va 4 ta tufli bo’lsa, ulardan necha xil usulda kiyinish mumkin?

Har bir ko’ylakka alohidadan qilib tuflilarni moslab chiqamiz. Shunda 12 xil usul paydo bo’ladi. Ya’ni ko’paytirish qoidasiga ko’ra 3x4=12 hosil bo’ladi.

Endi kombinatorik masala turlarini ko’rib chiqamiz. Ular guruhlash, o’rinlashtirish va o’rin almashtirish. Kombinatorikada xar doim to’plam elementlari ustida amallar bajariladi.

Guruhlashlar soni n ta elementdan m (0<m<n) tadan guruhlashlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi: $C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!}$

1-Masala. Bizga 6 xil rangdagi sharchalar berilgan. Bu sharchalardan har xil rangdagi 2 tadan qilib necha xil guruh tuzishimiz mumkin?

Yechish: 6 ta sharchalar sonini m deb belgilaymiz. 2 tadan olib tuziladigan guruhlarni n deb olib, formulaga qo’yamiz. Ya’ni 6 ta sharchadan 2 tadan olib guruhlaymiz. Demak,

$$C_6^2 = \frac{6!}{2!(6-2)!} = \frac{6!}{2!4!} = \frac{5\cdot 6}{2} = 15$$

O’rinlashtirishlar soni n ta elementdan m (0<m<n) tadan o’rinlashtirishlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi: $A_n^m = \frac{n!}{(n-m)!}$


O’rin almashtirishlar soni n ta elementdan n tadan o’rinlashtirish o’rin almashtirish deyiladi va u quyidagicha hisoblanadi: P_n=n! [3,B 17].

2-Masala. 1,2,3 raqamlaridan har biri aynan bir martadan ishtirok etgan nechta uch xonali son tuzish mumkin?

Yechish: Kombinatorika masalalarini yechishning eng sodda usuli bu barcha yechimlarini bittalab sanab chiqishdir. Ya’ni buni jadval ko’rinishida bajarish qulayroq.

123	132	213
231	312	321

Demak, jami 1×2×3=3!=6 ta son tuzish mumkin. Bundan tashqari variantalar daraxtini ham tuzish. Ya’ni:



Bu chizma daraxtga o’xshaydi shuning uchun ham bunday chizmalar mumkin bo’lgan variantalar (usullar, tanlashlar) daraxti deyiladi.[4,B 201]

Umumta’lim maktablarida matematika darslarida kombinatorika elementlariga doir ma’lumotlar va masalalar deyarli yuqori sinflarning barcha algebra darsliklarida uchraydi. Yuqoridagi keltirilgan kombinatorik masalalar turlari va ularga doir masalalar yechish usullari haqidagi ma’lumotlar kombinatorik masalalarni oson tushunishga va hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.To’rayev, I.Azizov “Matematik mantiq va diskret mametatika” 1-jild. Toshkent-2011.

2. A.Akmalov, J.Saparboyev, D.Boytillayev va b. “ Algebra”. 7-sinf uchun darslik. Toshkent-2022

3. A.A.Abdushukurov “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”. Toshkent-2010.

4. Sh.Alimov, O.Xolmuhamedov, M.Mirzaahmedov “Algebra”. 8-sinf uchun darslik. Toshkent-2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI DIZAYN ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

Zuparova Dilnoza Dadaxonovna
MTTDMMOI katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirishning metodik tizimi keltirilgan. Ushbu taklif etilgan metodik tizimning samarali qo’llanishi istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ta’lim metodlari, metodik tizim, dizayn faoliyati, deduktiv metodlar, induktiv metodlar, ilhomlantirish va rag‘batlantirish metodlari, fikrlash.

Ta’lim metodlari ta’lim jarayonining muhim komponentlaridan biridir. Ta’lim maqsad va vazifalarini ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiallarining muayyan mazmunini o‘zlashtirish uchun ta’lim metodlari kerak.

“Ta’lim metodikalari o‘zida ta’lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini mujassamlangan uyg‘unlikdagi qo‘llanishidir” [1].

Maktabgacha dizayn ta’limining metodik tizimi dizayn faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, dizayn va loyiha faoliyatiga ilhomlantirish va rag‘batlantirish hamda kuzatuv, diagnostika, o‘z-o‘zini nazorat etish metodlari uyg‘unligidan iborat.

1-jadval.

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida dizayn faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

Dizayn loyiha faoliyatiga oid materiallarni uzatish va idrok etish manbai bo‘yicha	Axborotni uzatish va idrok qilish mantig‘iga ko‘ra	Tafakkur jarayonining mustaqillik darajasi bo‘yicha	Dizayn faoliyatini boshqarish darajasi bo‘yicha

Og‘zaki	Deduktiv	Reproduktiv	Pedagog rahbarligida
Ko‘rgazmali	Induktiv	Muammoli-tadqiqot	Ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati
Amaliy			

“Dizayn ta’limning **og‘zaki metodlari**ga ma’lumotni og’zaki yetkazish bilan bog‘liq hikoya, suhbat va boshqalarni kiritish mumkin.

Tarbiyachi so‘zlar vositasida ifodalaydi, o‘quv materialini aniqlaydi ta’lim-tarbiya oluvchilar uni tinglab tushunish, yodlash orqali faol sezadi va assimilyasiya qiladi” [2].

2. Dizayn va loyiha faoliyatiga ilhomlantirish va rag‘batlantirish metodlari:

“Dizayn asosida loyiha faoliyatiga ilhomlantiruvchi, diqqatni jamlash, metodlari: *ta’limiy o‘yinlar, ta’lim ahamiyatini e’tirof etuvchi, ta’limiy munozaralar, aqliy hujum.*

Mas’uliyatni rag‘batlantiruvchi metodlar: *talablar qo‘yish, emosional-axloqiy vaziyatlarga olib kirish, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar, ko‘rgazmalar, mahorat darslari, rag‘batlar”* [2].

3. Kuzatuv va o‘z-o‘zini nazorat etish metodlari: *og‘zaki nazorat va o‘z-o‘zini nazorat etish metodlari, noverbal nazorat va o‘z-o‘zini nazorat etish metodlari, amaliy nazorat va sabr, qo‘nimlilikni shakllantiruvchi metodlar, individual nazorat, dam olish metodlari.*

Dizayn – ta’limining metodik tizimiga asos sifatida taklif etilayotgan yondashuv zamonaviy maktabgacha dizayn ta’lim va tarbiyasini takomillashtirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion xorijiy tajribalar bilan uzviy bog‘lanish imkoniyatini yaratadi.

Dizayn faoliyati metodlari:

Kompozision markaz metodi, siluet metodi, kombinatorika metodi, funksionallik metodi, ko‘pfunksionallik metodi, shakl hosil qilish;

Oddiydan murakkabgacha bo‘lgan metod (tabiiy materiallarni ijodiy manba sifatida qo‘llashdan oldin bolada atrof-muhit to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar hosil qilingan bo‘lishi kerak.)

Fikrlash – dizayn faoliyatining ajralmas sharti sifatida u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kognitiv ijtimoiy shartli aqliy jarayon hisoblanadi. “Atrof-olamdagi ob’ektlar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni umumlashtiradi va aks ettirish bilan tavsiflanadi” [3].

“Konkret-faoliyatli fikrlash kishilarning ishlab chiqarish, konstruktiv, tashkiliy va boshqa amaliy faoliyati sharoitida aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Amaliy fikrlash, birinchi navbatda, texnik, konstruktiv fikrlashdir” [3]. Konkret-faoliyatli fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari – bu aniq kuzatish, tafsilotlarga, tafsilotlarga ye’tibor va ularni muayyan vaziyatda ishlatish qobiliyati, fazoviy tasvirlar va sxemalar bilan ishlash, fikrlashdan natijaga, g‘oyaga tez qaytish qobiliyati.

“Insonning mavhum fikrlarini aniq tasvirlarga aylantirilishi va umumlashtirilishi badiiy yoki muayyan obrazli fikrlash hisoblanadi” [4].

Tabiat va insoniyat jamiyatining umumiy jihatlarini topishga qaratilgan fikrlash mavhum yoki og‘zaki-mantiqiy fikrlashdir. Mavhum, nazariy fikrlash umumiy aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi. U asosan tushunchalar, keng toifalar va tasvirlar bilan ishlaydi, undagi tasvirlar yordamchi rol o‘ynaydi.

“Fikrlashning barcha uch turi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘p odamlar bir xil darajada konkret-faoliyatli, aniq xayoliy va mavhum fikrlashni rivojlantirdilar, lekin inson hal qiladigan vazifalarning tabiatiga qarab, oldin bir, keyin boshqa, keyin uchinchi turdagi fikrlash birinchi o‘ringa chiqadi” [3].

Ijodiy fikrlashning rivojlantirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1. Vizual fikrlash. Bolaga doimiy va vaqtinchalik munosabatlarni anglashga imkon beradi. Fikrlash jarayonini rivojlantirish uchun tasavvur obrazini o‘rganish, fantaziyani rivojlantirish vazifalari juda muhimdir.

Ikki yoki undan ortiq ob’ektlarni aqliy taqqoslash va ularni rang, shakl, o‘lcham va tafsilotlar soni bo‘yicha solishtirish qobiliyati;

Ob’ektlarning qismlarini birlashtirish va yangi xususiyatlarga ega ob’ektlarni yaratish qobiliyati.

Vizual fikrlash bosqichida ijodkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri odatiy aqliy stereotiplardan tashqarida kechadi. Ijodiy fikrlashning bu sifati o‘ziga xoslik deb ataladi va bu uzoq, odatda, hayotda bog‘lanmagan, ob’ektlar tasvirlarini aqliy bog‘lash qobiliyatiga bog‘liq.

Sabab-oqibat fikrlash. Taqdim etilgan tasvirdan tashqariga chiqish va uni kengroq nazariy kontekstda o‘rganish bilan bog‘liq. O‘z tafakkurini boshqarish, tadqiqot maqsadlarini belgilash, sababiy munosabatlarni faraz qilish, faktlarni ilgari surilgan gipotezalar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish qobiliyati – bu sababiy fikrlash bosqichida ijodkorlik uchun asosiy shartlardir.

O‘zining va boshqalarning faoliyatini tabiat qonunlari va jamiyat qoidalari nuqtai nazaridan baholash tanqidiy fikrlashdir.

3. Evristik-tanlab qidirish mezonlariga asoslanib, murakkab, noaniq, muammoli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan fikrlash turidir.

Badiiy fikrlashning tashkil etuvchi komponentlari:

Analitik komponentlar: mantiq, harakatchanlik, selektivlik, aql, assosiativlik, farqlash qobiliyati va boshqalar;

Hissiy komponentlar: voqealar, faktlar, hodisalar, san’at asarlarini, tasvirlarning yorqinligini hissiy baholash.

Dizayn komponentlari: noan’anaviy yechimlarni izlash, oqilona yondashuv, individuallikning namoyon bo‘lishi, o‘ziga xoslik, natijani oldindan bilish qobiliyati, ishda bunday ijodiy vazifalarning eng yaxshi xususiyatlari va muvaffaqiyatli topilmalarini birlashtirish istagi, to‘g‘ri tanlov va maqsadga erishishning eng oqilona usuli o‘z qarorlarini analitik va aniq oqlash qobiliyati.

“Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish – keng qamrovli, murakkab jarayon bo‘lib, bir qancha fikrlash jarayonlarini faollashtirish bilan bog‘liq. Bolalar bilan fikrlash jarayonlarini rivojlantirishustida ish olib borishda didaktik qo‘llanmalar, o‘yinlar yuqori samara beradi (“Ortiqcha”, “Juftini toping”, “Nom bering va ko‘rsating”, “Belgisi asosida sinflang”, “Nimaga

o‘xshaydi” va b.). Kattalar bolalar uchun parallel sanoat deb ataladigan mahsulotlarni yaratadilar: reklama va tibbiyot, galanteriya va parfyumeriya, pazandachilik, savdo belgilari va bolalarga qaratilgan savdo belgilari. Dizayner loyihalashtiradi, ishlab chiqaruvchilar yaratadi, pedagog atrof-muhitning estetikasini saqlaydi, bu ishga bolalarni jalb qiladi” [5].

Dizayn faoliyati jarayonida bolalarimizga fikriy madaniyat, kreativlik kabi sifatlarni shakllanar ekan, tanqidiy fikrlash, loyihalash, kashfiyotga ilhomlantiruvchi metodikalari sifatida Loyiha (dizayn) va Mind map – intellektual xaritalar metodlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashurova S.Y. O‘quv-didaktik materiallar tayyorlash va o‘qitish vositalaridan foydalanish metodikasi. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

2. Karimova N.N. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.

3. Тони и Барри Бюзан. Супермышление. – Минск: Попурри, 2003. 322

4. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: Sano standart, 2015. 150 b.

5. Новоселова С.Л. Развивающая предметная среда. // Центр инноваций в педагогике. – М., 1995.

KORXONALARDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Ilmiy rahbar: Teshaboev Abduvahob Marifovich

Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi

Mannobova Anziratxon Kenjatoy qizi

Farg'ona Politexnika Instituti MMTX 98_20 guruhi talabalari

Mehnat muhofazasi o‘ta murakkab tizim bo‘lib, o‘zining maqsadi, vazifalari va ularga erishishning o‘ziga xos xususiy metodlari va vositalariga ega. Mehnat muhofazasini boshqarish deganda, umumiy holatda, mehnat sharoitini shakllantiruvchi omillar majmuasi ko‘rsatkichlarining ko‘zlangan darajasiga erishish uchun “odam-mashina-ishlab chiqarish muhiti” tizimiga rejali, maqsadli ta’sir ta’sir etish jarayoni tushuniladi.

Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida zararsiz va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish ishlab chiqarishni tashkil qilishning o‘ta muhim prinsiplaridan bittasidir. Shu sababli mehnatni muhofaza qilishni boshqarishning asosiy, bosh maqsadi deb ishlovchilarga zararsiz va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, davolash-oldini olish, sanitar-gigiyenik va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi vazifalar majmuasini yechish asosida ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta’minlash, jarohatlanishlar, kasb kasallanishlari, avariya va falokatlarni kamaytirish ishlarini tashkillashtirishni mukammallashtirish deb hisoblash lozim. Demak, mehnat muhofazasini boshqarish - bu mehnat jarayoni vaqtida ishlovchilarning xavfsizligini ta’minlash, ish qobiliyatini va sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha tashkiliy, texnik, sanitar-gigiyenik, davolash - oldini olish va boshqa chora-tadbirlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonidir.

Mehnat muhofazasini boshqarishni uzluksiz davom etadigan va ketma-ket amalga oshiriladigan ko‘p bosqichli to‘xtovsiz jarayondir. Bu bosqichlar – mehnat sharoiti ko‘rsatkichlarini baholash, maqsadni shakllantirish va vazifalarni belgilash,

reja ishlab chiqish, rejani amalga oshirishni tezkor boshqarish, reja bajarilishi samaradorligini baholash, bajaruvchilarni rag‘batlantirishdir.

Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga muvofiq mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarishda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, joylarda esa viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmalari boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradi.

Mehnat muhofazasini boshqarish iqtisodiyot tarmoqlarida va obyektlarida tarmog`iy vazirliklar, idoralar, davlat kompaniyalari, konsernlar, birlashmalar tomonidan olib boriladi.

Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida, ayniqsa katta va kategoriyalangan sanoat korxonalarida yetarli darajada aniq shakllangan mehnat muhofazasini boshqarish tizimi mavjud.

Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish ishlari asosan quyidagi 5 ta yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi: tashkiliy-texnik; tashkiliy; texnik; sanitar- gigiyenik; ruhiy-fiziologik; ijtimoiy-iqtisodiy.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ko‘p qirrali vazifalarni yechishda korxona ma’muriyati, bo‘lim va bo‘linmalar boshliqlari, mehnat muhofazasi xizmati, kasaba uyushmalari va boshqa strukturaviy xizmatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita ishtirok qiladilar. Bu ishga barcha, korxona boshlig‘idan tortib ishchilargacha, jalb qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.I. IBRAGIMOV, S. GAZINAZAROVA, O.R. YULDASHEV,,MEHNAT MUHOFAZASI" – Toshkent: 2014.

YORITGICHLAR VA ULARNING JOYLASHTIRISH

Ilmiy rahbar: Nazirjon Nabijonovich Abdug‘aniev

Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi

Mannobova Anziratxon Kenjatoy qizi

Farg'ona Politexnika Instituti MMTX 98_20 guruhi talabalari

Yorug'lik manbalari yoritish armaturasida joylashadi va ular birgalikda yoritgichlar yoki chiroqlar deb ataladi. Yoritgichlar konstruksivalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1) nur oqimining yo‘nalishini ishchi yuzalar tomonga qayta taqsimlanishini ta'minlash;

2) lampaning nur tarqatayotgan yuzalarining yaraqlab ko‘zga ta’sir ko‘rsatishidan muhofaza qilish;

3) lampani har xil iflosliklar va changdan himoya qilish;

4) lampani portlash, o‘t olish xavflaridan muhofaza qilish. Axborot-kutubxona muassasalarida qo‘llanilayotgan lampalar bir necha xil bo‘lishi mumkin. Nur oqimini qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan to‘g‘ri aks ettirilgan va sochma nur tarqatuvchi lampa turlari mavjud. To‘g‘ri nur tarqatuvchi lampalar ichki tomonlari emal bilan qoplangan yoki silliqlangan yuza hisobiga nur oqimining deyarli 90 % ini ish joylari tomonga, ya’ni pastga yo‘naltiradi. Aks ettirilgan nur tarqatuvchi lampalar aksincha, nur oqimining asosiy qismini yuqoriga yo‘naltiradi. Sochma nur tarqatuvchi lampalar esa nurni har ikki yarim sferaga ozmi-ko‘pmi bir tekisda, lekin ba'zilari asosan pastga, boshqalari yuqoriga yo‘naltiradi

Lampaning yoritilgan yuzasining yarqirashidan ko‘zni himoya qilish uchun yoritish armaturasini saqlash burchagi katta ahamiyatga ega. Bu burchak armaturaga lampa joylashtirilgan zonadan o‘tkazilgan gorizontal chiziq bilan lampadan armatura quyi nuqtasi orqali o‘tadigan chiziq o‘rtasidagi burchak deb belgilanadi. Lfning chegarasida yoruqlik manbayi ishlayotgan kishidan butunlay berkiladi. Luminissent lampalarda yarqirashga qarshi chora sifatida tiniq plastmassa yoki oynadan ishlangan

jilosiz nur sochuvchi panjarali ekranlardan foydalaniladi. «Sutsimon shar», «Lutsetta» tipidagi sochma nur tarqatadigan lampalar faqat havosi toza, shifti va devorlari oq ishlab chiqarish zonalarida qoTlaniladi, chunki tutun, chang va har xil islar chiroq yuzasini va devorlarni tez ifloslantirishi natijasida nur o'tkazish va aks ettirish koeffitsiyentlari keskin kamayadi.

Lampalarning vazifalariga qarab, ularning tuzilishlari har xil bo‘ladi. Namdan, changdan, kimyoviy zaharli moddalardan saqlash uchun lampalar zich yopiq holda va zanglamaydigan materiallardan yasaladi. Portlashdan himoya qilingan lampalarda esa uchqun yuzaga kelishining oldini oladigan choralar ko‘zda tutiladi.

Bundan tashqari, yomg‘lik manbalarining yarqirashiga qarshi kurashish uchun lampalami pol yuzasidan eng kam balandlikka osish belgilangan. Nihoyat sochma nur sochuvchi lampalarni joylashtirishda ulaming shiftdan oqilona uzunlikda osilib turishiga rioya qilish zamr, chunki bu uzunlik yetarli bo‘lmasa, shiftda nur dog‘lari vujudga keladi, ular pastga aks etishning bir tekis bo‘lmasligini va xonaning notekis yoritilishini vujudga keltiradi. Yoritilishda murakkab usullarning qo'llanilishi umumiy yoritilishga qo'shimcha ravishda ish joylarini yoritish bilan qo‘shib olib boriladi. Bunda ish joylarida istagan kattalikdagi yorug‘lik miqdori ta’minlanadi.

Ish joylarini yorituvchi manbalarning yarqirashiga qarshi kurashish uchun lampaning himoya burchagi 30° dan kam aks ettiruvchi yuzaga ega bo'lishi kerakligi sanitariya me’yorlarida belgilangan. Axborot-kutubxona muassasalaridagi ish joylarini yoritishda elektr xavfsizligini ta’minlash maqsadida yorugMik manbalarining 36V.dan yuqori boMmagan kuchlanishlardan foydalanish tavsiya etiladi. Luminissent yoritishlardan foydalanilganda esa 220 V kuchlanishdan foydalanishga ruxsat etiladi, ammo bunda elektr xavfsizligi chora-tadbirlari ko‘rib qo‘yilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Y.O.MONNONOV, K.G.MAVLONOV,,MEHNAT MUHOFAZA QILISH " TOSHKENT-2015

2. YORMATOV.G’,, MEHNATNI MUHOFAZA QILISH " TOSHKENT MEHNAT-2002

PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDA TUTGAN O’RNI

Tursunaliyev Ismoiljon

Termiz Davlat Universiteti Fizika -Matematika fakulteti

Matematika yo’nalishi 309-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Abduraxmanova Aygul Taxirovna

Annontatsiya: Ushbu maqolada psixologiya haqida ma’lumot, psixologiyani inson hayotiga ta’sir qilishi turli xil vaziyatlarda insonning irodaviy xususiyatlari va inson psixologiyasini rivojlantirish haqida yortib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Psixologiya, tafakkur, pedagogik psixologiya, psixologik metodlar, talim psixologiyasi.

Psixologiya o’zi nima? Psixologiya – inson faoliyati xatti-xarakati jarayonida voqealikning psixik aks etishi ruhiy jarayonlar, holatlar hodisalarni o’rganuvchi fan. Psixologiya so’zining lug’aviy manosi grekcha “psyuxe”- jon, ruh; “logos”- fan degan manoni anglatadi.Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mehanizmlarini o’rganadi.

Hozirgi vaqtda ko’pchilik insonlar psixologiyani bilish vas hu bilan birga ma’lum darajada psixologik bilimlardan xabardor bo’lishlari mumkin. Masalan, hozirgi internet rivojlangan davrda psixologiyaga oid ma’lumotlarni turli xil saytlardan,psixologik kitoblardan,gazeta va jurnallardan cheksiz malumotlarni topish mumkin.

Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi.Shunga ko’ra psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko’rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quydagi jarayonlarni o’z ichiga oladi:

Bilish jarayonlari; sezgi, idrok, xayol,xotira va tafakkur.

Bilish faoliyatlari; diqqat, nutq jarayonlari.

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari; temperament, xarakter, qobilyat.

Shaxsning hissiy irodaviy sohasi; hissiyot, iroda.

Psixologiya nima uchun kerak?

Psixologiya inson uchun o’zini-o’zi rivojlantirish, o’z nutqini o’zgalarga yetkazib berish, insonlar bilan tez aloqaga kirishib ketish uchun yo’l ochadi. Psixologiya nafaqat insonlar uchun kasblar uchun ham aloqador. Psixologiya- ta’lim tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud huquqshunoslik, harbiy mudofa, san’at va boshqa soxalarda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, pedagogik faoliyatda yosh avlodni o’qitish va tarbiya berishda psixologiyani ahamiyati katta. Har bir o’qituvchi o’quvchiga ta’lim berayotgan paytda ta’limga qo’shib tarbiya ham beradi. Maktabga borgan o’quvchi maktabda ta’lim olibgina qolmay tarbiya ham oladi, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o’rganishadi yurish- turish, kiyinish madaniyatini va boshqalarni o’rganishadi. Psixologiyaning biz uchun afzalligi biz har kuni atrofdagi, insonlar bilan muloqot qilamiz,odamlar orasida bo’lamiz, shu sababli har xil xarakterli insonlar bilan munosabatda bo’lamiz, shu orqali biz insonlar psixologiyasini o’rganamiz. Psixologiya, ayniqsa, o’sib keladigan yosh o’smir uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning jamiyatda o’z o’rnini toppish, yahshi va yomonni anglashda qiyin davr hisoblanadi. O’spirinning xulqi-atvoridagi o’zgarishlarda, o’ziga bo’lgan munosabatlarda va o’ziga to’g’ri baho berishda maktab psixologi yordam berishi mumkin. Tajribali psixolog sizga qanday qilib qiyinchiliklarni yengib o’tishni, muammolarni to’g’ri hal qilishni va boshqalar bilan muloqotga kirisha olishda maslahatlar berishga yordamlashadi.

Xulosa qilib aytganda psixologiya mavzusini yoritib berishimning asosiy maqsadi shundaki, psixologiya asli inson o’zini anglashda, jamiyatda, oilada va hayotga bo’lgan munosabatlarini anglashda yordam beradi. Ta’lim olayotgan paytdagi holatlarni ya’ni kishiga ta’lim- tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o’rganadi. Odamlarning bir-biri bilan jamiyatdagi muloqoti ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo’ladigan tasavvurlar,fikrlar, e’tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorni umumiy psixologiyada o’rganamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.I.Xaydarov va N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent: 2002.
2. P.I.Ivanov va M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya. Toshkent: 2012.
3. Z.Nishonova “O’smirlik davri psixologiyasi” Toshkent: 2019.
4. Sh.Asomuddinova “Psixologik maslahat”. Toshkent: 2022.

O’QUVCHINING TARBIYASIDA OTA-ONASINING PSIXOLOGIK O’RNI

Nabijonov Dilshodbek
Termiz davlat universiteti Fizika-Matematika fakulteti
Matematika yo’nalishi 309-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Abdurahmanova Aygul Tahirovna

Annontatsiya: Ushbu maqolada ota-ona pedagogik psixologiyasi va bola rivojlanishida ularning tutgan o’rni haqida yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Pedagogik psixologiya, Ota-ona psixologiyasi, Bola psixologiyasi, umumiy psixologiya.

Ta’lim-bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumotlar olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog’liqdir.Inson ilmli bo’lishni istasa eng avvalo tarbiyalanishi kerak. O’sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo’lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin.Shuning uchun ham;”Kelajak yoshlarni qo’lidadir’’-deyishadi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani ”kichik vatan” deb ataymiz. Aynan shu vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo’ladi. Qaysidir ma’noda ota-ona farzandini birinchi o’qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o’zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bo’lmog’i kerak. Bolaga o’zi fazilatlar bilan o’rnak bo’la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go’zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo’ladi. “Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo’lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o’ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o’tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: ”tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak siz besh yoshgacha nima qilgan bo’lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi.” Aynan shu vaqt oralig’ida ota-onadan katta ma’sulyat talab etiladi.

Mana shu vaqtda ota-ona farzandiga ko’proq e’tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug’ullanishi kerak. Aynan shu davrda bolaga to’g’ri tarbiya bera olish juda muhimdir”. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga ma’sulyat bilan yon psixologiya,dashish kerak.

“Kelajagi kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo’lgan farzandlarini ulg’aytrish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo’nalishlar uchun sarflaydigan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflaydigan mablag’ va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo’ladi desak hech mubolag’a bo’lmaydi.”

Agar ota-ona farzandiga, uning tarbiyasiga e’tibor bermasa bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O’sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo’lishi mumkin. Har bir ota-ona tarbiya berar ekan, eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o’rgatishi kerak. Chunki, dono xalqimiz “Gapning boshi-kalom, odobning boshi-salom”-deb bejiz aytmagan. Ota-bobolarimiz azaldan yosh avlodni chiroyli xulqli, odobli, ilmli, qobil farzand bo’lib ulg’ayishiga katta ahamiyat berishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishonova, G.Aliyeva:”Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi” - Toshkent: 2012.
2. P.Ivanov, M.Zufarova:”Umummiy psixologiya” darslik. Toshkent: 2012.
3. F.I.Xaydarov va N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent: 2010.
4. Z.Nishonova. O’smirlik davri psixologiyasi. Toshkent: 2021.
5. Sh.Asomuddinova. Psixologik maslahat. Toshkent: 2018.

RADIOAKTIV MODDALARNING HARBIY SOHADA QO'LLANILISHI VA UNING NATIJASIDA YUZAGA KELADIGAN XAVFLI HOLATLAR

Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi

Farg'ona Politexnika Instituti MMTX 98_20 guruhi talabasi

So'nggi 10-15 yil ichida dunyoda vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi va shunga qaramay, u yoki bu joyda harbiy to'qnashuvlar kelib chiqadi. Terrorchilik hujumlari tahdidi birinchi o'ringa chiqdi. Muayyan vaziyatlarda ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash imkoniyatini inkor etib bo'lmaydi. Ommaviy qirg'in qurolidan foydalanilganda yadroviy, kimyoviy va bakteriologik zararlanish cho'ntaklari hamda radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik ifloslanish zonalari paydo bo'lishi mumkin.

Zarar etkazuvchi omillarning, ham yadroviy, ham boshqa hujum vositalarining asosiy harakatlari portlashlar, yong'inlar, hududni suv bosishi va u erda xavfli kimyoviy moddalarning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Aholini va qirg'in qurollarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun ommaviy qirg'in qurollarining ham, oddiy qurollarning ham zarar etkazuvchi omillarini bilish kerak. Yadro qurollari energiya olish usullariga qarab uchta asosiy turga bo'linadi:

- og'ir elementlar (uran, plutoniy va boshqalar) yadrolarining bo'linishi natijasida ajralib chiqadigan energiyadan foydalanadigan yadroviy qurol;

- termoyadroviy, yorug'lik elementlari (vodorod, deyteriy, tritiy va boshqalar) sintezi jarayonida ajralib chiqadigan energiyadan foydalangan holda;

- neytron - kam quvvatli termoyadro zaryadiga ega bo'lgan o'q-dorilar turi, neytron nurlanishining ortishi bilan tavsiflanadi.

Yadro qurollari odamlarni ommaviy qirg'in qilish, ma'muriy va sanoat markazlarini, turli ob'ektlar, inshootlar va jihozlarni yo'q qilish yoki yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Yadro portlashining zararli ta'siri o'q-dorilarning kuchiga, portlash turiga va yadro zaryadining turiga bog'liq. Yadro portlashining zarar etkazuvchi omillari.Yadro qurollarining portlashi birgalikda ta'sir qiladi. Zarar bir vaqtning

o'zida zarba to'lqini, yorug'lik nurlanishi, kirib boruvchi nurlanish, radioaktiv ifloslanish va elektromagnit impulsning ta'siridan kelib chiqishi mumkin.

Radioaktiv ifloslangan hududda radioaktiv nurlanish manbalari quyidagilardir:

- ushbu moddaning yadro portlashi parchalanishining parchalari (mahsulotlari);
- tuproq va boshqa materiallarda induksiyalangan faollik;
- yadro zaryadining bo'linmagan qismi.

Yadro quroli portlaganda, radioaktiv mahsulotlar portlash buluti bilan birga ko'tarilib, tuproq zarralari bilan aralashib, baland tog'li shamollar ta'sirida uzoq masofalarga harakatlanadi. Bulut harakatlanayotganda, ular yiqilib, hududni yuqtirishadi (portlash hududida ham, bulut yo'lida ham). Radioaktiv bulutning izi hosil bo'ladi.

Radioaktiv bulutning izi cho'zilgan ellips shakliga ega va shartli ravishda to'rt zonaga bo'linadi:

- o'rtacha (A);
- kuchli (B);
- xavfli (B);
- o'ta xavfli (D) infektsiya.

Odamlar uchun turli darajadagi xavfli radioaktiv ifloslanish zonalarining chegaralari odatda iz hosil bo'lgan paytdan boshlab radioaktiv moddalarning to'liq parchalanishigacha bo'lgan vaqt davomida olingan gamma nurlanish dozasi bilan tavsiflanadi. Doza portlashdan bir soat o'tgach Radsda o'lchanadi. Yoki nurlanish darajasi (P) bo'yicha nurlanish dozasi tezligi.Oddiy qurollardan mustaqil ravishda va yadro quroli bilan birgalikda dushman shaxsiy tarkibi va texnikasini yo‘q qilish, shuningdek, turli o‘ta muhim ob’ektlarni (xavfli kimyoviy moddalar bo‘lgan kimyoviy zavodlar, atom elektr stansiyalari, gidrotexnika inshootlari va boshqalar) yo‘q qilish va yo‘q qilish uchun foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Radiatsiya xavfsizligi M.Yunusov, I.Axmedov, S,Gazinazarova, E.Ibragimov, S.Asilova, N.Saidxo'jayeva Toshkent 2012.

ABBREVIATION IN THE DARI NEWSPAPER

Abdulatif Karimov Abdughaforovich
Doctoral student of Termiz State University
abdullatif.ghaffarzade@mail.ru

Abstracts. Today, abbreviations are used in all languages, including the Dari press. In this research, we analyzed the texts of modern Dari newspapers and the information contained in them, and in the process of analysis, we came across a large number of abbreviations and abbreviated terms in the newspaper texts, and we examined the main reasons for the easy understanding of such abbreviations, the methods of using abbreviations, the content of abbreviated terms, to determine their essence, to understand their meaning correctly.

Key words: abbreviations, idioms, language of the press, international organizations, political system of the state, phonetic change, capital letters.

The processes of political practice in Afghanistan in the second half of the twentieth century and the first two decades of the twenty-first century, changes in the social and economic spheres are directly reflected in the Dari language, the official state language of Afghanistan, especially in the Dari language press. These processes form the basis for the emergence of new words in the vocabulary of the Dari language, these are different grammatical methods, in some cases these processes and changes are semantic. We will witness the introduction of these new concepts and terms in their original form, expressed in the form of translation, and sometimes in their original form.

Eastern languages, especially the Dari language until the nineteenth century, introduce new lexical units, which are more likely to lead to incomprehensible situations that were almost rare in the period and grammatical structure. We witness the use of new words, which are very rare in Dari and are usually used as extensions. This is clearly reflected in the abbreviations used in the press.

امریکا، ناتو و جمهوریت تقلبی با امکانات وسیعی که در اختیار داشتند، در طی بیست سال نتوانستند امنیت نسبی در افغانستان را برقرار کنند و یا زیرساختهای افغانستان را بسازند. [8.3که]

Translation: America, NATO and a pseudo-republic with facilities that they have had for twenty years in the vast years that they have been unable to provide relative security in Afghanistan could not establish the establishment or infrastructure of Afghanistan to do.

The word ناتو in this sentence is the abbreviated form of the English word in its original form, and this word is not given as a translation or extension from English to Dari.

[در 6.2پس از حدود 13 سال با تحویل سال عملیات نیروهای بین المللی همکاری امنیتی یا آیساف افغانستان پایان می یابد.]

Translation: After nearly 13 years, with the arrival of the New Year, the operation of the International Security Assistance Force, or ISAF, in Afghanistan will come to an end.

The word آیساف in the above sentence occurs in Dari in its original form. It is written in Dari script to make it easier for the student.

The Dari translation is also quoted as an equivalent or given in brackets, which tells the reader the meaning of the word. used instead of footnotes for accuracy, completeness and clarity. Abbreviations adapted from English adapt to the phonetics of the Dari language and undergo phonetic changes: The "a" sound in NATO (ناتو) became the long "â" sound and the "o" sound became the "u" sound. It is possible to see these changes in other examples as well [2.3]. The Dari language press in Afghanistan has adopted the European languages abbreviations as well as abbreviated forms of compounds directly from a word in the Dari language.

امارت اسلامی دشمن سرسخت داعش است. [7.4]

Translation: The Islamic Emirate is a fierce enemy of ISIS.

The word داعش in the above example is directly from the Dari language. It is the abbreviated form of the word combination " دولت اسلامی عراق و شام "(Islamic State of Iraq and ash-Sham) based on the internal capabilities of the language. Since the eighties of the twentieth century, the names of institutions and organisations in

newspapers and magazines published in the mass media in the Dari language are used as abbreviations:

متن بیانیه رفیق نجیب منشی عمومی کمیته مرکزی ح.د.خ.ا [9.1]

Translation: Text of the statement of Najib, Secretary General of the Central Committee of the People's Democratic Party of Afghanistan.

The abbreviation ح.د.خ.ا used in this sentence is based on the abbreviation КПСС (Коммунистическая партия Советского Союза-Communist Party of the Soviet Union), which exists in Russian under the influence of political ties with the former Soviet Union, because abbreviations in the Dari language were not used until the twentieth century. They are mostly used in the second half of the twentieth century and the twenty-first century. In addition, some official documents and correspondence in Dari also use abbreviated forms of expressions in the language:

بجش کنسولگری سفارت ج.ا.ا در تاشکند فقط از برحالی مهر وزارت امور خارجه تائید میکند. [10.6]

Translation: Only the seal of the Ministry of Foreign Affairs of the Consular Section of the Embassy of Afghanistan in Tashkent confirms its authenticity.

The abbreviation ج.ا.ا used in this sentence is made from the expression جهوری اسلامی افغانستان. These abbreviations relate to the names of political, social, international organisations that have come under the influence of foreign languages, especially European languages.

These abbreviations apply to the following areas:

1. State political system;

2. International organisations;

3. State organisations

In some places, there is also a situation where some words are omitted in a sentence and these omitted words do not affect the overall meaning of the sentence:

Abbreviated form: وزیر خارجه, وزیر داخله

Full form: وزیر امور خارجه, Minister of Foreign Affairs وزیر امور داخله, Minister of Interior.

In this expression the word (امور) has been omitted. This situation did not occur in Uzbek and Russian languages, but only in Dari in sentences related to the names of organisations.

As can be seen from the above examples, from the second half of the twentieth century to the present day, the scope of abbreviations in the Dari mass media and the press of the language is increasing. The use of these abbreviations in the Dari language is the result of the fact that many reporters and employees currently working in the Dari media and press have studied abroad, Afghanistan's relations with many foreign countries in the political, economic, social and cultural fields, including military activities. Examples of abbreviations are word combinations made from the sum of letters representing the first sounds of the words contained in them. The types of abbreviations in the Dari language have not yet been fully investigated, this topic is an urgent task for future researchers.

Bibliography:

1. Abdug‘aforovich K. A. ARABCHA O ‘ZLASHMALARNING DARIY VA FORS TILLARIDAGI MA’NO HOSILALARI //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – T. 5. – №. 4. – C. 45-49.
2. Karimov A. DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI ARABCHA O ‘ZLASHMALARNING MA’NO HOSILALARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 14.
3. Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари: В сопоставлении с персидским и другими близкородственными языками. Автореферат. М., 2006
4. Киселева Л.Н. Дари-русский словарь. М., 1986.
5. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. М., 1985.
6. روزنامۀ حقیقت انقلاب ثور 12.05.1367
7. روزنامۀ ملی انیس 11 جون 2023 شمارۀ مسلسل 24859
8. روزنامۀ ملی انیس 31 جولای 2023 شمارۀ مسلسل 24891
9. روزنامۀ ملی انیس 5می 1986 نمبر مسلسل 16839 خصوصی 39
10. سعید حقیقی. فارسی دری ۱۰سال پس از سقوط طالبان در افغانستان، کابل، ۲۰۱۱ 28.12.2014

THE COMMUNICATIVE METHOD IN TEACHING ENGLISH PRODUCTIVE SKILLS

Alımova Mukhabbat Quwanishbaevna

second year master student, Nukus State Pedagogical Institute, Uzbekistan, Nukus

Abstract: This article discusses the importance and effectiveness of using communicative methods in the process of forming B1 level learners' ability to carry out written and oral communication and teaching productive skills. There are given examples of exercises based on communicative methods are given that help increase interest in classes and motivation for further learning a foreign language.

Key words: Communicative method, Internet resources, English lesson, oral communication, written communication.

In modern society, the requirements have changed both for the of content education and to the effectiveness of the educational process. During training at school it is necessary to teach children to find and put into practice the knowledge they have acquired, so it is important to organize the learning process so that the learner is motivated and active in the lesson and can independently evaluate their results.

A competent combination of traditional teaching methods and modern communicative methods by including computer. Using Internet resources as the main means of the communicative methods is important at developing the basic language skills (speaking and writing) [2].

Nowadays the main task of the teacher is to teach the student to communicate in a foreign language. Vocabulary, grammatical structures, expressions of a foreign language are presented to the student in context of a real situation, which contributes to quick and lasting memorization of the studied material. Numerous game elements bring excitement to classes, support a positive emotional mood of students, and increase their motivation in teaching. Working "in pairs", "in groups", participation

in discussions on topics of interest allows teachers to take into account the individual characteristics of students, make classes more creative and exciting, while at the same time giving the teacher the ability to control the learning process unnoticed by students [1].

English teachers often face the problem of "student silence" in the lesson of developing speaking skills. How they can teach to speak English if the learner does not want to speak or speaks out only when the teacher asks him to?

The teacher's task is to create conditions that would facilitate learner to communicate. So specific features, such as motivation, purposefulness, live activity, connection with personality and mental activity, heuristics, independence and pace must be taken into account. The advantages of these techniques are that students, actively will participate in the learning process, begin think about, remember and use the studied language material [3].

The best techniques for activating learners' productive skills are included in communicative method as in this method students interact with each other. These techniques involve interaction subjects of the educational process at the "peer-to-peer" level, where the teacher and student are part of the same team, they work to achieve one goal. Interactive techniques help organize comfortable learning conditions in which all students actively interact with each other. The use of these techniques involves modeling life situations, role-playing games, and general solution of issues based on an analysis of circumstances and situations [5].

There are several techniques that are used to activate students in classes to develop speaking skill. It should also be especially noted that the development of topics and materials for practical classes should be based on the principle of connection between the general situation, topic and context, and not "jump" from one context or topic to another, which often happens in foreign language classes.

When studying grammar, one of the main goals should be to develop students' ability to use grammatical structures in speech. Using mini-dialogues containing personally oriented questions is one effective way to achieve this.

The next way to activate a student’s speech activity is personality-oriented replenishment. The student is given the task of completing sentences with missing elements (both lexical and grammatical), develop a speech situation, defend your point of view. Another equally effective way to develop productive skills is giving creative tasks. Creative tasks in the communicative method of teaching English include interactive role-play and open discussions [4].

In order to develop another productive skill (writing) it is more effective to interact with other interlocutors representing other cultures using Internet resources. There are two types of written communication on the Internet: synchronous (Chat) and asynchronous (E-mail).

Communication by email is best done in the form of E-mail projects. The success of a project depends on how well it is thought out and how interesting the topic is and corresponds to the level of knowledge learners. Before planning an e-mail project, students look for a partner, with whom the concept is further discussed. Next they need determine the duration of the project. Then you need to create a schedule when it will be convenient for all partners to get in touch. Finally, it is necessary to have an understanding of the product in its final form.

The great advantage of e-mail projects is that they organize foreign language communication with native speakers, thanks to which intercultural communication between representatives of different linguistic and cultural communities is realized. It is important for students to realize that projects are not created to show the teacher and get a good grade, but to share interesting information with their classmates or peers and discuss pressing problems. Thus, e-mail projects help develop students’ writing skill and increase motivation for further language learning.

All of the above mentioned techniques contribute to the interaction between participants in the educational process. While using these techniques in class, the teacher can ask questions, offer answers, make assumptions, express his opinion.

In conclusion, it should be noted that the ideas presented in this article are not completely new for teachers, and are widely used in teaching foreign languages. We

have presented only a small selection of those methods that have been proposed in the professional literature in recent years.

Reference:

1. Erenchinova E. B. Using the Internet when teaching a foreign language // Innovative pedagogical technologies: materials of the International. scientific conf. Kazan: Buk, 2014. pp. 325–327.

2. Fundamentals of mastering oral foreign speech: abstract. Sci. – M., 1988. – 18 p.

3. Krashen, Stephen. 1998. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – New York: Pegramon Press.

4. Mc,Laughlin, Barry. The Monitor Model: Some Methodological Considerations // Language learning. – 2011. – No. 28. – R. 309-332

5. Piter E. S. Internet in foreign language lessons // Foreign languages at school. 2005. No. 2. P. 13.

AYRIM GIDROLIZLANUVCHI TANINLARNING KALAMUSH AORTA SILLIQ MUSKULIGA VAZORELAKSANT TA`SIRINI TAVSIFLASH

Mutalipov Azizbek Abdullajon o’g’li
Andijon davlat universisteti 3-bosqich tayanch doktoranti.
azizbekabdullajonolivich@gmail.com
Zaynabiddinov Anvar Yerkinjonovich
Biologiya fanlari doktori,professor, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor
Usmanov Pulat Bekmuratovich
Biologiya fanlari doktori,professor, O’zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti, Hujayra fiziologiyasi laboratoriyasi mudiri
Raximov Raxmatillo Nurallievich
O’zR FA Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi(PhD)

Annotatsiya: Mavjud ma`lumotlarga ko’ra, qon tomirlarning me’yoriy funktsiyasi qon – tomir silliq muskul hujayralari membranasida va sarkoplazmatik retikulumda joylashgan turli xil ion transport tizimlari faoliyati orqali ta’minlanadi [1,2]. Bunda plazmalemmada joylashgan potentsialga bog’liq Ca^{2+}-kanallari muhim o’rin egallab, silliq muskul hujayralarida qisqarish funktsiyasini amalga oshishida Ca^{2+}-transport tizimlari markaziy komponentlardan biri hisoblanishi ta’kidlangan [4]. Yuqorida keltirilgan ma’luomtlarni hisobga olib, ushbu tadqiqot ishining maqsadi 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza (1-GT) gidrolizlanuvchi taninining relaksant ta’sir mexanizmini o’rganishdan iborat.

Kalit so’zlar: aorta silliq muskuli, gidrolizlanuvchi taninlar, vazorelaksant, ion kanallari, verapamil, fentolamin.

Material va metodlar. Tajribalar oq, zotsiz kalamushlarning (200 – 250 g) aorta prepartida olib borildi. Tajribalarda $NaHCO_3$, $CaCl_2$, $MgSO_4$, glyukoza,

verapamil, noradrenalin bitartrat, NaCl, KCl, NaH_2PO_4 reaktivlaridan foydalanildi. Tajriba hayvonlari servikal dislokatsiya usulida jonsizlantirildi va ko’krak qafasini ochilib, aorta qon tomiri jarrohlik usulida ajratib olindi va doimomiy holatda Krebs – Xenselayt fiziologik eritmasi (mM): NaCl 120,4; KCl 5; $NaHCO_3$ 15,5; NaH_2PO_4 1,2; $MgCl_2$ 1,2; $CaCl_2$ 2,5; $C_6H_{12}O_6$ 11,5, *pH* 7.4.) bilan perfuziyalangan maxsus kameraga (5 ml) joylashtirildi. Ayrim tajribalar uchun tarkibida kalьtsiy bo’lmagan eritmalar ham ishlatildi. Buning uchun Krebs eritmasidan Ca^{2+}- ionlari chiqarib tashlandi, uning izlarini yo’qotish uchun esa EGTA (1 mM) qo’shildi. Fiziologik eritmalar karbogen (95%O_2, 5% CO_2)bilan oksigenlandi, va harorati U-8 ultratermostati yordamida +37°Cda ushlab turildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bizga ma’lumki, KCl (50 mM) ta’sirida chaqirilgan aorta qon – tomir preparatining qisqarish faolligi silliq muskul hujayralari sarkolemmasida joylashgan potentsialga bog’liq faolllashuvchi Ca^{2+}-kanallar aktivatsiyasi bilan belgilanadi. Bunda $[K^+]_{in}$ kontsentratsiyasi ortishi sharoitida membrana potentsiali qiymati o’zgaradi va o’z navbatida, membrana depolyarizatsiyasi amalga oshadi va potentsialga bog’liq faollashuvi Ca^{2+}-kanallari faollashadi va $[Ca^{2+}]_{in}$ ortishi hisobiga qisqarish kuchi ortadi [7].

Shu nuqtai nazardan, tajribalarning dastlabki bosqichida 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining KCl (50 mM) bilan chaqirilgan kalamush aortasi preparatining qisqarishiga relaksant ta’siri o’rganildi. Bunda ushbu gidrolizlanuvchi tanin kontsentratsiyaga bog’liq holatda (10 - 200 mkM) kuchli relaksant ta’sirga egaligi aniqlandi. Jumladan, 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi tanini minimal 10 mkM kontsentratsiyada aorta preparati qisqarish faolligi amplitudasini nazoratga nisbatan 3,4±3,2% ga susaytirishi aniqlanib, maksimal 200 mkM kontsentratsiyada bu qiymat 65,2±3,2%ni tashkil qilishi qayd qilindi. 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi tanini yarim maksimal ta’sir kontsentratsiyasi EC_{50} = 112,2 mkM ni tashkil qildi va kalamush aorta silliq muskul preparati qisqarish faolligini 50±5,8% ga susaytirishi aniqlandi.

Yuqorida ko’rsatilgan tajriba natijalariga qo’shimcha qilish va oydinlik kiritish maqsadida navbatdagi tajribalarda 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining relaksant ta’sirini ta’minlashda L-tipdagi potentsialga bog’liq Ca^{2+}–kanallarining ishtroki baholandi va bunda 50 mM KCl bilan kalьsiysiz muhitga $CaCl_2$ kumulyativ qo’shish orqali chaqirilgan aorta prepartlari qisqarishiga uning ta’siri o’rganildi. Bu tajribalarda inkubattsiya muhitida $CaCl_2$ (0-2,5 mM) kontsentratsiyasini oshirish L-tip Ca^{2+}–kanallari orqali Ca^{2+} ionlarini kirishi natijasida aorta qisqarish kuchini pog’onali ko’tarilishiga sabab bo’ldi. Inkubatsiya muhitida o’rganilayotgan 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining mavjudligi $CaCl_2$ ni ortishiga javoban qisqarish kuchlarini rivojlanishini paralel ravishda sezilarli kamaytirgan. Ushbu natijalar o’rganilayotgan gidrolizlanuvchi taninining relaksant ta’siri L-tip Ca^{2+}–kanallari orqali Ca^{2+} ionlarini kirishini kamayishi hujayrada $[Ca^{2+}]i$ miqdorini pasayishi va bu qisqarish faolligining susayishi bilan bog’liq bo’lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Navbatdagi tajribalarda potentsialga bog’liq L – tip Ca^{2+}-kanallari blokatori - verapamil (0,1mkM) mavjud sharoitda 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining yarim maksimal kontsentratsiyasi aorta preparati qisqarish kuchi amplitudasiga ta’siri bo’yicha olingan natijalarda ham ushbu gidrolizlanuvchi taninining arkolemma Ca^{2+}-kanllari faolligini susaytiruvchi ta’siri mavjudgigini qo’shimcha tarzda tasdiqlaydi. Jumladan, bunda verapamil 0,1 mkM (EC_{50}) kontsentratsiyada aorta preparti qisqarish kuchi amplitudasi qiymtaini nazoratga nisbatan 50±4,1%ga susaytirishi aniqlandi. Inkubatsiya muhitida verapamil (EC_{50}) mavjud sharoitda 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining yarim maksimal kontsentratsiyasi 112,2 mkM (EC_{50}) qisqarish kuchi amplitudasini verapamil mavjud sharoitga nisbatan qo’shimcha ravishda 10,4±4,1%ga susaytirishi qayd qilindi.

Xulosa. Tajriba natijalari asosida 1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi taninining relaksant ta’siri qon tomir silliq muskul hujayralari sarkolemmasida joylashgan potentsialga bog’liq L – tip Ca^{2+}-kanallarini

bloklanishi natijasida sitozoliga Ca^{2+} ionlari kirishi susayishi bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

1-O-galloil-4,6-geksagidroksidifenoil-β-D-glyukoza gidrolizlanuvchi tanini kalamush aortasi preparati KCl (50 mM) yordamida qisqarishi sharoitida silliq muskul sarkolemmasida joylashgan potentsialga bog’liq L-tip Ca^{2+}-kanallari faoligini susaytirishini tahmin qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov L., Zaynabiddinov A., Adizov Sh., Khalilov E., Ahmedov F., Mutalipov A., Gayibov U. Vasorelaxant effect of Copsinine and N4-Iodine methylate alkaloids // Biotechnology & Microbiology. – Irvine, California, 2020. –V.15. – P.52-54.

2. Akhmedov F., Zaynabiddinov A., Gayibov U., Rakhimov R. Role of the Na+/Ca^{2+}-exchange system in the vasorelaxant effect of polyphenols 1-O-galliol-6-O-bisgalliol-2,4-valoneil-B-D-glucose and 1-ohalloil-2,3-hexahydroxydiphenoil-4,6 -valoneil-B-D-glucose on the muscle of the aorta // Norwegian Journal of development of the International Science. – Oslo, Norway, 2023. – № 115. – P. 3-7.

3. Kyle J.A.M., Duthie G.G. Flavonoids in foods. In: Flavonoids; chemistry, biochemistry and health implications. – 2006. – N. York, Taylor and Francis Group. – R. 219-263.

4. Ozaki H., Ohyama T., Sato K., Karaki H. Ca^{2+}–Dependent and independent mechanisms of sustained contraction in vascular smooth muscle of rat aorta // Japan J. Parmacol. – 1990. – V.52(510). – P.509–512.

5. Martinsen A., Baccelli C., Navarro I., Abad A., Quetin–Leclerc J., Morel N. Vascular activity of a natural diterpene isolated from Croton zambesicus and of a structurally similar synthetic trachylobane // Vascular Pharmacology. – 2010. – V.52. – P.63–69.

6. Cherkaoui–Tangi K., Israili Z.H., Lyoussi B. Vasorelaxant effect of essential oil isolated from Nigella sativa L. seeds in rat aorta: Proposed mechanism // Pak. J. Pharm. Sci. – 2016. – V.29(1). – P.1–8.

7. Hoe S.–Z., Lee C.–N., Mok S.–L., Kamaruddin M.Y., Lam S.–K. Gynura procumbens Merr. decreases blood pressure in rats by vasodilatation via inhibition of calcium channels // Clinics. – 2011. – V.66(1). – P.143–150.

8. Yunusov L.S., Zaynabiddinov A.E., Adizov Sh.M., Xalilov E.X., Axmedov F.Yu., Mutalipov A.A. Vazorelaksantnoe deystvie alkaloidov kopsinin i N4-yod metilat kopsinina v zavisimosti ot ximicheskoy strukturы // Universum. Ximiya i biologiya. – Moskva, 2020. – № 11. – B. 17-23.

SOYA NAVLARINING SUG’ORISH TEXNOLOGIYASINI AYRIMELEMENTLARI

Abdulxafizov Xalilillo Abdug‘ani o‘g‘li
Aqxai “Gidromeliorativ inshoatlar kafedrasi” stajiyor-o‘qtuvchisi
Aduvaxobov Muxammadali Zoxidjon o’g’li
Aqxai talabasi

Ta’kidlab o'tamizki respublikada yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90% qismi sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi. Qolaversa, O'rta Osiyo respublikalari orasida O'zbekiston sug'orish suvidan nisbatan ko'proq foydalanadi. Tobora suv manbalarining kamayishi hisobiga suv tanqisligi yildan-yilga sezilmoqda. Chunki Respublikamizning tabiiy-iqlim sharoiti dehqonchilikni asosan sug'oriladigan yerlarda amalga oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda sug'oriladigan mintaqada oqova suvlardan unumli, samarali foydalanish uchun ekinlarni, shu jumladan takroriy ekin sifatida ekilgan soyani sug'orish tartiblarini to'g'ri tashkil qilib, ilmiy asoslangan sug'orish tartiblarini qo'llash, sug'orish tarmoqlarida va dalalarda suvni isrof qilishga qarshi kurashish, sug'orish muddatlarini to'g'ri belgilash, sug'orish me‘yorlarini ekishni biologik xususiyatlariga qarab mos keladigan holda tashkil etish katta ahamiyatga egadir.

Barcha ekinlarniki kabi soya dalasining suv sarfi o'simlikni o'sib-rivojlanish davrlarida sug'orishga berilayotgan suv me‘yori, tuproq qatlamlaridagi namlik zaxirasi yer osti suvlari sathini past-balandligi va yog'ingarchilik miqdoriga bog'liq.

Tajriba dalasining suv sarfi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$E = Nh - Wk = O = Mo$$

Bu yerda: E – soya dalasining yalpi suv sarfi, m^3/ga

Nh – 0-100 sm tuproq qatlamida amal-o'suv davri boshidagi kam zahirasi, m3/ga;

Wn – 0-100 sm qatlamda amal-o'suv davri oxiridagi kam zahirasi, m^3/ga;

Soyanavlariningsug’orishtexnologiyasiniayrimelementlari(1-suvda)

3.4.1-rasm

Variant tartibi	Egatga berilgansuv, l/sek	Sug’orish me’yorlari,m^3/ga				Sug’orishvaqti, soat			Egat uzunligim
		Bir sug’o-rishda ketgan suv	Umumiy singish	Filtratsiyaga isrofi	oqava	Suvni egat oxiriga yetishi	Sug’orishni boshlash va tugatish	Umumiyvaqt	
Slaviya									
1	0,1	1050	794	60	196	3,9	28	31,9	100
2	0,1	900	700	61	139	3,9	29	32,9	100
3	0,1	600	402	66	132	3,9	28	31,9	100
Gavhar									
4	0,1	1050	791	58	201	3,9	28	33,1	100
5	0,1	900	704	60	136	3,9	28	31,9	100
6	0,1	600	406	62	134	3,4	28	31,9	100

Kuzgi bug’doydan keyin takroriy ekilgan soya navlarini sug’orish me’yorlari 1-suvda bir marta sug’orishda ketgan suv miqdori (1-variantda) 1050m^3/ga suv sarflandi shundan tuproqqa singigani 794m^3/ga ni tashil etgan bo’lsa filtratsiyaga 60m^3/ga ni tashlamaga chiqqani 196 m^3/ga tashkil etkani kuzatitildi.

(2-variantda) esa sugorish me’yori 900 m^3/ga, shundan tuproqqa singigani 704m^3/ga, filtratsiya va tashlamaga 60m^3/ga 136m^3/ga qiymatlar kuzatildi. (3-variantda) bo’lsa bu qiymatlar 600,402, 66, 132m^3/ga qiymatlar kuztildi.

Tajribalarimizni (4-5-6- variantlarida) gavhar navida sug’orish me’yorlari bir hil berilganda yuqoridagi qiymatlarimiz orasida kata farq kuztilmadi.

Xulosa

Soya o’simligini yetishtirishda mamalakatimiz soyashunos olimlari tavsiyalarga amalga qilgan holda agrotexnikani qo’llash va egat uzunligini 100 m dan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nematov.U.M. Isashov. A. Takroriy ekin soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda sug‘orish tizimlarini asoslash. Monografiya Toshkent 2021-yil.
2. Soya agrotexnikasi (fermerlar uchun tavsiyanoma) Toshkent-2017
3. Ahmet Nedim Nazlican, Soya yetiştiriciliği

IMOM AL BUXORIY HADISLARIDA AYOLLAR BILAN BOG‘LIQ HADISLARNING FALSAFIY GERMENEVTIK TAHLILI

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi
O‘zMU “Falsafa va mantiq” kafedrasi doktoranti

Jahonda tarixda samarali ijod qilib o‘tgan mutafakkir olimlarni ilmiy-madaniy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shunday mutafakkirlardan biri Imom Ismoil Al-Buxoriy bo‘lib uning ma’naviy-axloqiy va ilmiy-madaniy merosi nafaqat bugungi balki keyingi avlod yoshlari tarbiyasida ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida mutafakkir qarashlarida ayollar bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishdagi substansional yondashuvining asosi quyidagicha, Alloh taolo Odam Ato va Momo Havoni bir-biridan emas, balki ikkalasini bir mohiyatdan, tuproqdan yaratdi. U birini boshqasi uchun emas, balki ikkalasini ham yerni birgalikda rivojlantirishlari uchun yaratdi. Ikkoviga ham Alloh taoloning so‘zi bilan murojaat qildilar, ikkalasi ham birga shaytonga aldandilar, ikkisi ham bir-birini aldamadi, ikkalasi ham birga aldandilar. Ikkalasi birga pushaymon bo‘ldilar va birga tavba qildilar, dunyoda mas’uliyatni birga o‘z zimmalariga oldilar va ikkalasini ham xalifa qilib yubordilar.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va universitetlarida Al-Buxoriy qarashlarida ayollar bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishning ilmiy-metodologik asosi hisoblangan islom dinining mohiyati va ularda ilgari surilgan falsafiy g‘oyalar germenevtik nuqtai nazardan keng o‘rganilmoqda. 20-asrning so‘nggi o‘n yilligidan boshlab germenevtika, tarix, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, adabiyotshunoslik, semiotika, ijtimoiy falsafa, feministik metodologiya va boshqalar bo‘yicha bilimlar bilan qurollangan musulmon ayollar Qur’on va boshqa kitoblarni qayta mutolaa qila boshladilar. Jumladan, mavjud manbalarning tarjimalarini ikki marta tekshirish va aniq patriarxal talqindan aziyat chekadigan joylarni topish uchun muqaddas matnlarning ushbu oyatlarining genderga asoslangan talqinini taqdim etishga harakat qilganlar. Bunday chinakam ulkan vazifani faqat bilimli, ham aqliy, ham ma’naviy

jihatdan tayyor bo‘lgan elita qatlamidan bo‘lgan ayollar amalga oshirishi mumkin, chunki bunday vazifani bajarish ulkan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorlikni anglatadi. Biroq, gender bag‘rikenglik islomni qayta tiklash harakatida ishtirok etish istagi ko‘plab ayollar va unchalik oliy ma’lumotga ega bo‘lmaganlarni ilohiy bilimlarni egallashga majbur qiladi. Masalan, Indoneziyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ayollarning katta qismi muqaddas matnlarni o‘qish va talqin qilish bo‘yicha maxsus kurslardan o‘tadi, bu ularga ba’zi hollarda gender masalalari bo‘yicha ko‘proq konservativ qarashlarga ega bo‘lgan islomchilar bilan ochiq munozaraga kirishish imkoniyatini beradi.

Imom Al- Buxoriy merosida ayolarga tegishli hadislarning falsafiy asosi islom axloqshunosligi hisoblanadi. Allomaning ma’rifiy va diniy-falsafiy tafakkurining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan tabiiy omillardan birinchisi u tug‘ilgan muhit, ota-ona mehrining qudrati, uning qalbiga insoniylik fazilatlarini singdirganligidir. Uning ongi va tafakkuri islom tarixi va madaniyati bilan yo‘g‘rilgan. Mutafakkirning ayollarni ilmga, odob-axloqga chorlovchi diniy-falsafiy qarashlari Sharqning boshqa mashhur allomalari g‘oyalariga to‘la mos keladi.

Alloh taolo Qur’oni Karimni insonlarni to‘g‘ri yo‘lga ko‘rsatish, ularning shaxsiy va ijtimoiy muammolarini hal etish uchun yuborgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) Alloh taolo tomonidan yuborilgan bu muqaddas kitobni odamlarga yetkazish bilan birga, undagi oyatlarni ham odamlarga tushuntirib berdilar. Qur’on mukammal ilohiy kitob ekanligiga barcha musulmonlar yakdil. Biroq, bu yerda keltirilgan oyatlar har qanday masalani umumiy tarzda bayon qiladi va undagi hukmlarning barcha tafsilotlarini tushuntirmaydi. Shuning uchun bunday holatda musulmonlar Qur’on oyatlarini to‘g‘ri tushunish va bu yerga yuborilgan hukmlarga qanday amal qilish muammosiga duch keldilar. Bunday holatda musulmonlarning burchi nima degan savol tug‘iladi. Qur’oni Karim biz musulmonlarni shunday muammolarga duch kelganda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislariga amal qilishni buyuradi. Shuning uchun musulmon ulamolari sahih hadislar barcha musulmonlar uchun dalildir, degan xulosaga kelishgan va musulmonlarni Payg‘ambar (s.a.v.)ga itoat qilishga buyurganlar.

Ayollar muammosi G‘arb jamiyatlarida bo‘lgani kabi jamiyatimizda ham eng ko‘p muhokama qilinadigan masalalardan biridir. "Feministik Harakat" deb nomlangan kurash birinchi marta G‘arbda ayollar va ayollar huquqlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu mavzuda inson huquqlari, tenglik va erkinlik kabi qadriyatlarga asoslangan holda ko‘p aytilgan va yozilgan.

Sharqiy islomiy mamlakatlarda boshqa ko‘plab masalalarda bo‘lgani kabi, Islom dinining o‘z ta’limotlari bilan musulmon jamiyatlarida hukmron bo‘lgan fikrlar, tushunchalar va amaliyotlar o‘rtasidagi chuqur tafovutlar tufayli ayollarga nisbatan ham xuddi shunday kurash boshlandi. Biroq bugungi kunda ayollar muammosi hal yetilmagan. Chunki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda yerkak va ayol o‘rtasidagi tengsiz vaziyat ming yillar davomida o‘tib kelayotgan mafkura bo‘lib kelgan. Shu sababli, ayollar muammolarini hal qilish faqat uzoq muddatda mumkin bo‘ladi. Bu davrda ayollar haqidagi ijtimoiy tasavvur o‘zgarishi, ta’lim orqali ayollarning ijtimoiy mavqei oshishi kerak.

Hadis ilmida xotin-qizlarning o‘rnini ochib berish, ta’lim va tarbiya sohasida ayollarning o‘rnini ochib berish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.

U juda muhim vazifani bajaradi. O‘n besh asrlik hadis tarixida ayollar portretiga oid tadqiqotlarning yo‘qligi, yeng yaxshi holatda, hadis ilmi va hadis tarixi nuqtai nazaridan kamchilikdek tuyuladi.

Islom dinining eng asosiy manbalaridan biri bo‘lgan hadis materiallarini keyingi avlodlarga yetkazishda Hz. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davridan buyon ayollar ham o‘z imkoniyatlari doirasida turli xizmatlarni bajarganlar. Biroq ularning bu faoliyatini ochib beruvchi mustaqil asar hozirgacha yozilmagan.

SUG‘ORISH TARTIBLARINI SOYA O‘SIMLIGI HOSILDORLIGIGA TA’SIRI

Nematov Ulug‘bek Muxtarjanovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent
Abdulxafizov Xalilillo Abdug‘ani o‘g‘li
Aqxai “Gidromeliorativ inshoatlar kafedrasi”stajiyor-o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sifatli ozuqabop o‘simlik hisoblangan so‘ya o‘simligini sug‘orish tartiblarini vaqtida va to‘gri belgilash tog‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: transpiratsiya koeffisienti, evotranspiratsiya, chegaraviy dala nam sig‘imi, tuproqning to‘la dala nam sig‘imi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 14- martdagi “2017-2021-yillarda respublikada soya ekishni tashkil etish va soyali dukkakli ekinlar yetishtirishni ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2832- son qarori hamda 2017-yil 24- iyundagi PQ-3144- qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kirtish bilan to‘ldirilishi respublikada soyachilikni rivojlantirishga turtki bo‘ldi.

Soya o‘simligini ekishning yaxshi tamoni shundaki bu o‘simlik ekilgan tuproqning unumdorligi oshishi bilan birga soya ildizlaridagi azot to‘plovchi tuganak bakteriyalarning faoliyati natijasida tuproqqa biologik azot to‘planishiga va boshqa o‘simliklar yillar davomida o‘zlashtira olmagan tuproqdagi mavjud fosforli og‘itlarni o‘zlashtirishga erishiladi.

Bizningilmiy izlanishlarimiz Andijon viloyatidagi donli va dukkakli o‘simliklar ilmiy tekshirish institutining tajriba xo‘jalik yerlarida o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida takroriy ekilgan soyanining ertapishar navlarini sug‘orish tartiblarini aniqlash ustida o‘tkazildi. Tadqiqotlarimizni 1-2-3- variantlarida soyaning Slaviya navi 4-5-6-variantlarida esa Gavhar navlariadan natijalar olindi.

1-variantimizda sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-65, sug‘orish tizimi 1-1-0 qilib belgilanganda bir tupdagi gular soni 10dona bir tupdagi dukkaklar soni 44.2 donani, ming dona donning vazni 260 grammni tashkil etib o‘rtacha hosildorlik 20 sentnerni tashkil qildi

Sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 75-75-70, sug‘orish tizimi 1-1-1 qilib belgilanganda bir tupdagi gular soni 11.0dona bir tupdagi dukkaklar soni 49.1 donani, ming dona donning vazni 275 grammni tashkil etib o‘rtacha hosildorlik 24 sentnerni tashkil qildi. Qolgan variantlarimizda gavhar navi ekilgan variantizda 1-variantga yaqin natijalar olindi, eng yaxshi natija hosildorlik 2-variantda kuzatildi (1-jadval)

Sug‘orish tartiblarini soya o‘simligi hosildorligiga ta’siri

1-jadaval

Variant tartibi	Sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS % hisobida	Sug‘orish tizimi	Bir tupdagi gullari soni, dona	Bir tupdagi dukkaklar soni, dona	1000 dona donning vazni, gr	Hosildorlik s/ga
Slaviya						
1	70-70-65	I-I-0	10	44,2	260	20
2	75-75-70	I-I-I	11.0	49,1	275	24
3	75-80-75	I-II-I	11,5	49,2	250	21
Gavhar						
4	70-70-65	I-I-0	10.5	44,2	250	21
5	75-75-70	I-I-I	11.3	47,1	255	22
6	75-80-75	I-II-I	11,6	49,2	260	21

Xulosa.

Soya o‘simligini suv bilan ta’milanganligi yaxshi maydonlarda ekish yaxshi samara beradi va respublikamiz olimlari tavsiyalariga to‘la amal qilgan xolda soyani sug‘orish tartiblari va me’yorlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa yuqori hosil olishni garovi

bo‘lib hizmat qiladi,hamda sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS 75-75-70, sug‘orish tizimi 1-1-1 etib belgilanganganda yuqori hosil olinishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nematov.U.M. Isashov. A. Takroriy ekin soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda sug‘orish tizimlarini asoslash. Monografiya Toshkent 2021-yil.
2. Soya agrotexnikasi (fermerlar uchun tavsiyanoma) Toshkent-2017
3. Ahmet Nedim Nazlican, Soya yetiştiriciliği

ALEKSANDR FAYNBERG – BUYUK IJODKOR

Sobirova Asilabonu Aziz qizi
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek xalqining chin do’sti, shoir va tarjimon Aleksandr Faynberg haqida ma’lumotlar yoritiladi. Uning hayot yo’li, nodir asarlari-yu tarjimalari ta’riflanadi.

Kalit so’zlar: Taxtapul, Yelena Atlanova, Paxtakor, Ruboiy tori, rus shoiri.

O’zbek she’riyatining bog’i nihoyatda keng, tarovati ko’rkam, chek-u chegarasi yo’q. Shunday keng va bepoyon olamda voyaga yetgan va ikki xalqning: o’zbek va rus kitobxonlarining qalbidan joy olgan ikki millatning quyoshi Aleksandr Arkadevich Faynberg sanaladi. Shoir o’z she’rlari orqali yuraklarni larzaga soluvchi ma’no ifodalay olgan. Buyuk shoir Toshkent shahrida Taxtapulda dunyoga kelgan. Shoirning hayot yo’llarini kuzatadigan bo’lsak, u ko’p qiyinchiliklarga duch kelganini, shunday vaziyatlarda ham o’zining metin irodasi bilan yana qo’lga qalam tutganini ko’rishimiz mumkin. Bu esa uning jismi va ruhi birdek kuchli ekanligidan dalolat beradi. Buyuk shoir hayotida qalbi bilan bosib o’tilgan ijodiyot olamining sehrli yo’llarini ham ko’rish mumkin. Aleksandr Faynbergning ijodiy hamrohi Yelena Atlanova bo’lgan. 1999-yil “Paxtakor” futbol jamoasining fojiali aviahalokatdagi o’limining 12 yilligi munosabati bilan uning ssenariysi asosida “Ularning to’p maydoni osmonda” nomli film suratga olingan, filmda jaranglagan qo’shiq matni 1979-yil yozilgan bo’lib, Aleksandr Faynbergning qalamiga mansub. O’zbekistonning she’riyat gumbazida Aleksandr Faynberg, shubhasiz, eng yorqin yulduzlardan biri bo’ldi desak, adashmaymiz. A.A.Faynberg she’rlarida uchqunli hajviya mavjud. “Ruboiy tori” dostonida u kulgi orqali o’zbek choyxonasining o’zgarmas oshini shu darajada mahorat bilan tasvirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o’qib bo’lmaydi. “Etyud”(1967), “Soniya”(1969), “She’rlar” (1977), “Olis

ko’priklar”(1978), “Ijobat”(1982), “Qisqa to‘lqin”(1983), “Yoyma to’r” (1984), “Erkin sonetlar” (1990) va boshqa she’riy to‘plamlar muallifi. Aleksandr Arkadevich she’rlarini rus tilidan Rustam Musurmon, Oydin Suyundiqova va Sirojiddin Sayyid o’zbek tiliga tarjima qilganlar. Badiiy tarjima uning ijodida muhim jihatlardan biridir. O’zbek she’riyatini mukammal bilgan shoir Navoiy g’azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o’zbek shoirlarining she’r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Ham rus ham o’zbek shoiri bo’lgan Aleksandr Arkadevich Faynberg 2004-yil 23-avgustda vatan mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirish, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga qo’shgan salmoqli hissasi, erishgan umumxalq e’tirofi va hurmati uchun “O’zbekiston Respublikasi Xalq shoiri” va ko’p yillik samarali mehnati, fan, ta’lim, adabiyot, san’at, madaniyat, va hayotning boshqa sohalarini rivojlantirishga qo’shgan munosib xizmatlari uchun 1999-yil 25-avgustda “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi” unvonlari bilan taqdirlangan. Aleksandr Faynberg ijodini o’rganish bevosita “Mustaqillik davri o’zbek adabiyoti”, “Zamonaviy o’zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” va “Jahon adabiyoti” fanlarining bevosita subyekti hisoblanadi. Aleksandr Faynbergga bag’ishlangan hujjatli filmda o’zbek milliy adabiyoti va san’atining taniqli vakillaridan intervyular, shoir ijodiga mansub she’riy parchalar va xronologik ma’lumotlardan foydalaniladi. “Chig’ir” shoirning o’zbek tilidagi ilk kitobidir. Shoir 2009-yilda Toshkent shahrida vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Oltinbekova, D. (2022). Great writer's life. *Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch*, 130-132.

2.Ibrohimova, M. (2023). O'zbek adabiyoti durdonalari rusiyzabon shoir Faynberg talqinida. Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi, 45-46.

3.https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga

4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009

5.https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/2271/2147

IQTISODIY SUDLARDA YARASHTIRISH TARTIB-TAOMILLARINI QO‘LLASHNING AYRIM MASALALARI

Komiljonov Muslimbek Qobiljon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada iqtisodiy nizolarni hal etishda yarashtirish tartib-taomillarini qo‘llashning ahamiyati, bu borada olib borilayotgan islohotlar tahlili, iqtisodiy sudlar tomonidan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvni qo‘llash zaruriyati, afzalliklari, mazkur huquqiy institutning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim omillar hamda uni rivojlantirish istiqbollari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, qisqa muddatli Strategiya, Harakatlar dasturi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlaridan biri bu sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va sud jarayonlarini soddalashtirish hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda aholiga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu o‘z navbatida ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida turli xil tushunmovchilik va nizolar yuzaga kelishi ham tabiiy hol, albatta. Bunda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxona, muassasa, tashkilotlar o‘rtasidagi iqtisodiyot soxasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal etishda iqtisodiy sudlarga katta mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Xususan, hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiyot sohasida buzilgan va nizolashayotgan huquqlari yohud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so‘rab iqtisodiy sudlarga qilinayotgan murojaatlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, birgina 2023-yilning to‘qqiz oyi davomida iqtisodiy ishlar bo‘yicha birinchi instansiya sudlari tomonidan

ko‘rib tamomlangan ishlarning soni respublika bo‘yicha 217 914 tani tashkil etgan[7]. Bu faqatgina ko‘rib tamomlangan ishlar bo‘lib, bundan tashqari mazkur sudlar tomonidan qanoatlantirilgan, rad etilgan, ish yuritish tugatilgan, ko‘rmasdan qoldirilgan ishlar ham katta miqdorni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy sudlar ish hajmining tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi, bu esa qabul qilinayotgan hal qiluv qarorlarining sifatiga hamda yetarlicha asoslantirilganligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Bugungi kunda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud tomonidan himoya qilish, yuzaga kelgan nizolarni sud orqali hal qilish an’anaviy tus olgan. Kuchli va mustaqil sud hokimiyati hamda samarali faoliyat ko‘rsatadigan sud tizimi har qanday huquqiy davlatning ajralmas belgisi hisoblanadi. Lekin shu bilan birga fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni hal qilish maqsadida huquqni himoya qilishning faqat sud himoyasi shaklidan foydalanish hamma vaqt ham maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. Qolaversa, amaldagi qonunchilik va munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibining o‘ziga xosligi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish yoki nizolarni suddan tashqari boshqa huquqiy tartib-taomillar orqali hal qilish imkonini beradi. Jumladan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish bilan bir qatorda qonunda taqiqlanmagan barcha usullar, shu jumladan nizolarni muqobil hal qilish usullari bilan ham himoya qilish huquqi kafolatlanadi. Iqtisodiy protsessual kodeksining 163-moddasida esa sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida amalga oshiradigan harakatlardan biri sifatida taraflarni murosaga keltirish choralarini ko‘rishi lozimgi nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan da’vo arizasini qabul qilish va ishni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risidagi ajrimda sudning taraflarga nizoni kelishish yo‘li bilan hal etish haqidagi taklifi ko‘rsatilishi lozim. Bundan tashqari sudya sudgacha majlis o‘tkazish chog‘ida taraflardan

[7] https://stat.sud.uz/iib.html

kelishuv bitimini tuzish ehtimolini yoki nizoni hal qilishning muqobil usullari ehtimolini aniqlaydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.[8]

Ma’lumki, aslida taraflar nizolarni o‘zaro kelishuv asosida hal etishning umuman imkoniyati qolmaganda oxirgi zaruriy chora sifatida sudga murojaat qiladilar. Tadbirkorlar uchun har bir daqiqa qadrli bo‘lganligi sababli uzoq davom etadigan sud jarayonlari samarasiz hisoblanadi. Shu boisdan ham bugungi kunga kelib nizolarni nafaqat sud tomonidan, balki suddan tashqari holda tomonlarning o‘zaro roziligi asosida nizolarni muqobil usullardan foydalanib hal etish jarayonini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

So‘nggi yillarda sud-huquq sohasida olib borilgan islohotlar natijasida bu borada qonunchilikka katta o‘zgarishlar kiritildi va rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Dastlabki muhim qadamlardan biri 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida sudgacha nizolarni hal etishning mexanizmlarini belgilovchi “Yarashtirish jarayonlari (mediatsiya) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilanganligidir. Shu munosabat bilan 2018-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun kelgusida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shu jamladan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan, shuningdek, yakka mehnat nizolariga va oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda taraflarni murosaga keltirishga mo‘ljallangandir. Mediatsiya institutining kirib kelishi munosabati bilan protsessual mezanizmni belgilaydigan qonunlarga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining kelishuv bitimiga bag‘ishlangan XVI-bobi “Yarashtirish tartib-taomillari” deb qayta nomlanib, bir qator moddalari mediatsiyaga oid normalar bilan to‘ldirildi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[8] O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. 163^1-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, *27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son. https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3529348*

to‘g‘risida” Farmonida ham nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish odil sudlovga erishish borasidagi maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Ushbu strategiyada belgilangan vazifalarga muvofiq Prezidentimizning 2023-yil 16-yanvarda PF-11-sonli Farmoni bilan 2023 — 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli **Strategiyasi** va uni amalga oshirish bo‘yicha **Harakatlar dasturi** tasdiqlandi. Mazkur Farmonlar ijrosini ta’minlash maqsadida yuqoridagilardan kelb chiqib 2023-yil 16-yanvardagi PF-12-sonli “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bilan tegishli davlat boshqaruv organlariga fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo‘yicha taraflarni kelishtirish va mediatsiya institutini keng joriy etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Bir so‘z bilan aytganda endilikda kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvni tuzish sud jarayonlarini tezlashtirish, soddalashtirish yo‘llari bilan muammolarni hal etishning muqobil usullari sifatida tan olinmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, taraflarni kelishib olishga ko‘maklashuvchi tartib-taomillarning qonunchilikda belgilanilishi shubhasiz, inson va fuqarolik huquqlari, erkinliklarini tan olish, saqlash va himoya qilish bilan bog‘liq asosiy konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirish hisoblanadi. Odatda tadbirkorlik subyektlari o‘z hamkorlari bilan vujudga kelgan nizolarini o‘zaro munosabatlarini tugatmay, qisqa fursatlarda va kam xarajatlar bilan hal etishni istashadi. Biroq, shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, nima uchun hozirgi kunda nizolashayotgan tomonlar ortiqcha sarsongarchiliklarsiz, xarajatlarsiz muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish imkoniyatlari bo‘la turib hali ham sudga yoki boshqa davlat organlariga murojaat qilish holatlari ko‘p kuztilmoqda? Fikrimizcha, bunga bir necha omillarni sabab sifatida ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, yarashtirish tartib-taomillari, xususan mediatsiya milliy qonunchilik tizimida nisbatan yangi institut hisoblanadi va haligacha ko‘pchilik fuqarolar mediatsiya instituti haqida to‘liq yoki yetarlicha ma’lumotlarga ega emas. Mediatsiyani qo‘llash xorijiy davlatlarda nisbatan oldinroq boshlangan. Misol uchun,

Rossiya Federatsiyasida 2011-yil 1-yanvardan “Nizolarni vositachi ishtirokida hal qilishning muqobil taomillari (mediatsiya taomili) to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirgan bo‘lsa[9], Qozog‘istonda 2011-yil 28-yanvarda[10], Belarusda esa 2013-yilning 12-iyulida “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan[11]. Bizda esa bu qonun 2018-yil 3-iyulda qabul qilinib, 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

Ikkinchidan, yarashtirish tartib-taomillarini qo‘llash bo‘yicha amaliyotning yetarlicha to‘liq shakllanmaganligi. Bugungi kunda afsuski, sud hujjatlarini ijro etish bosqichida mediatsiya kelishuvi qilayotgan taraflarni uchratish juda qiyin. Buni ko‘pgina obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, undiruvchi va qarzdorning mediatsiya to‘g‘risida tushunchalarning yo‘qligi, mediatsiya kelishuviga erishsalar qanday afzalliklarga ega ekanligidan bexabarligi va shu kabi boshqa holatlar.

Uchinchidan, milliy qonunchilikda kelishuv bitimi tuzilganda tomonlar uchun rag‘batlantiruvchi normalarning kamligi. Bundan tashqari, davlat organlariga kelib tushgan nizoli vaziyatlar bo‘yicha ushbu organlarning tomonlarga mediativ kelishuvga erishib nizolarni hal qilishi samarali ekanligi haqidagi tushuntirishlar yetarlicha olib borilmayotganligi kabi holatlar.

Yuqorida ayrim kamchiliklargina nazarda tutildi. Bu borada o‘z yechimi kutayotgan muammolar yetarlicha topiladi. Shu boisdan iqtisodiy sudlarda yarashtirish tartib-taomillarini qo‘llash va undan samarali foydalanishga doir muammolarni o‘rganish, sud amaliyotlarini tahlil qilish va tahlil natijalaridan hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Yuqoridagi kamchiliklar bartaraf etilmas ekan nizolashuvchi tomonlar o‘rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvga erishishda samarali natijalarga erisha olmaymiz. Shu bilan birga bu boradagi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini ham oshirishga alohida ahamiyat qaratish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari

[9] http://services.government.ru/legal/
[10] http://ksrk.gov.kz/category/normativno-pravovaya-baza
[11] https://www.adu.by/ru/uchitelyu/normativnye-pravovye-dokumenty.html

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi PF-12-sonli “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni

II. Elektron manbalar:

2.1. http://www.lex.uz

2.2. http://www.sud.uz

2.3. http://services.government.ru

2.4. http://ksrk.gov.kz

HUQUQIY SAVODXONLIK, HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHALARI VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O’RNI

Shavkatjonova Saodatxon Shavkatjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy- gumanitar fanlar va san’at” fakulteti” Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizda huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyat tushunchalari ularning tutgan o’rni, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilimi va ko’nikmalari ni shakllantirish haqida yoritib o’tilgan.

Annotation: In this article, the concepts of legal literacy and legal culture, their role in the formation of legal knowledge and skills of the young generation, are highlighted in our society today.

Аннотация: В данной статье освещены понятия правовой грамотности и правовой культуры, их роль в формировании правовых знаний и умений молодого поколения в современном нашем обществе.

Kalit so’zlar: huquq, huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, demokratik davlat, qonun, fuqarolar, jamiyat, demokratiya.

Key words: law, legal literacy, legal culture, democratic state, law, citizens, society, democracy.

Ключевые слова: право, правовая грамотность, правовая культура, демократическое государство, право, граждане, общество, демократия.

Kirish. Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy sharti sifatida xalqimizning huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun va mohiyatini alohida chuqur anglatishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda.Respublikamizda yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.Ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim vazifa hisoblanadi.Mukammal ta’lim tarbiya olgan avlod

hech qanday huquqbuzarlik va jinoyatlar ko’chasiga kirmaydi. Shuningdek turli yot g’oyalar ta’siriga tushib qolmaydi.Yurtimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan xalqning huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat darajasiga bog’liqdir.

Asosiy qism: Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi,farovon turmush darajasi hohish irodasining amalga oshirilishi,ezgu maqsad niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim.Shu kafolat vatan taraqqiyotini davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini,millatlararo do’stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorligini ta’minlashga shart sharoit yaratadi. Yuqorida aytilgan kafolat respublikamiz konstitutsiyasida o’z ifodasini topgan. Bu haqida O’zbekiston respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq o’n birinchi sessiyasida so’zlagan nutqida : <<Davlatimiz O’zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya beradi.Fuqarolarning haq huquqlari burchlari konstitutsiyada belgilangan, tegishli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz erkin, demokratik huquqiy davlat qurish adolatli jamiyat barpo etish, hech bir insonni kamsitmaslik, e’tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta’minlash>>, - deb ko’rsatilgan edi.

Oldimizga qo’ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O’zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan,o’z so’zini aytishga qodir, o’z vazifa va burchlarini to’g’ri anglab yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni tarbiyalash zamon, taraqqiyotimiz talabi. Bunga qanday erishish mumkin? Demokratik huquqiy davlatning bunyodkorlari huquqiy madaniyat, tarbiyasini to’g’ri yo’lga qo’yish bilan maqsadimizga erisha olamiz. Mamlakatimizning har bir fuqarosi, siz va biz kabi yoshlar qomusimiz va boshqa qonunlarni o’rganib olishimiz zarurdir. Konstitutsiyani bilmagan, puxta o’rganmagan kishi o’z haq huquqlarini bilmaydi. Huquqini bilmagan odamning hayoti fojeali tus olishi mumkun. Buning yaqqol misoli Prezidentimizning quyidagi nutqida ham ko’rishimiz mumkin: <<Modomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan,- deb nutqini davom ettirgan edi O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom

Karimov - avlodlarimiz farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha’niga dog’ tushiradigan xatti-harakatlar qayerdan paydo bo’lyapti>>. Bu o’rinda bunday qaltis xatti-harakatlarga qo’l urgan kimsalarning qonunni bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi,hurmat qilmasligida ekanini,ularda huquqiy madaniyatning yo’qligi hamda yetishmasligi aytilmoqda. Huquqiy madaniyat bu qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta’minlash va har bir shaxsni, fuqaroni ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilib olish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni avvalo inson ichki dunyosi ichki madaniyati, umuminsoniy an’analarga va huquqiy bilimlarga ega bo’lgan munosabatlari belgilaydi. Shaxsning ichki madaniyati uning tashqi odobini ko’rsatadi. Huquqiy madaniyat egasi bo’lgan kishi jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, jamiyatni boshqarishda o’zining huquqiy malaka va bilimlarini ishga silib faol qatnashadi. Qonunlarni bilish, hurmat qilish jinoyatdan jinoiy olamdan yiroq yurishning birdan-bir yo’lidir. Qonunga hurmat inson madaniyati va ma’naviyatibo’lib qolganda bunday jamiyatni boshqarish ham adolatni qaror toptirish ham oson bo’lardi.

Xulosa: Mana shuning uchun ham huquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko’tarish tarbiya borasidagi asosiy ishlarimizdan bo’lishi kerak. Huquqiy savodxonlikni madaniyatni rivojlantirmay turib qonunni mensimaydigan buzg’unchilar, o’g’ri va yulg’ichlar, tovlamachilar, laganbardorlar, axloq-odobsizlar, qo’rqoqlar, qotilliklar kabi salbiy holatlarning oldini olish,tugatish anchayin mushkul ishdir. Bunday qonunbuzarlardan avvalo odamlarni, jamiyatni himoya qilish zarurdir. Birinchi prezidentimiz so’zlari bilan aytganda <<…davlat davlatligini qilmoqchi bo’lsa, fuqaroni o’z panohiga olishi zarur… Boshqacha aytganda davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida barcha barobardir. Mamlakat qonunlariga jami fuqaro -yoshidan, millatidan irqi, dinidan qat’iy nazar – barcha barobar bo’ysunmog’i farz>>. Qonun qog’ozda kelib ketsa jamiyat aslo ravnaq topmaydi, qonun amalda bo’lishi lozimdir. Fuqarolar huquqlarini himoya qilish adolatli davlatning ma’naviy ma’rifiy vazifasidir. Bizning vazifamiz esa fuqarolar manfaatini ko’zlovchi qonunlarga to’liq rioya etishdan iborat.Biz

jamiyatda qonun va qonunga hurmat har bir insonning shaxsiy ishonchiga aylanishi uchun harakat qilishimiz zarur.Huquqiy tarbiyaning maqsadi qonunlarga hurmatni shakllantirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o’n birinchi sessiyasi: 1995

2. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllari: Jarbekov.R O’rinboyev U: 2022.

3. http://www.lex.uz

4. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O’RNI. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).

5. Idrisov, K., Poziljonov, J., Ergashev, K., & Dekhkonov, O. (2022). VARIETY IN CREATING NEW VARIETIES OF SOYBEAN THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE AND PURPOSEFUL USE OF SAMPLES. Science and Innovation, 1(3), 273-279.

MARKAZIY OSIYODA ISHLAB CHIQARILGAN QOG‘OZLAR TARIXI

Telmanova Mexribonu Bahodir qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at
yo‘nalishining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada butun dunyoda pishiqligi va nafisligi bilan mashhur bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xirot va Qo‘qon qog‘ozlarining tarixi, uning yaralish texnikasi va xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Markaziy Osiyoda yaratilgan qog‘ozlarning mashhurligi, sifati va xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, Buxoro, Xirot va Qo‘qon qog‘oz, qog‘oz ustaxonalari, shoyi, yarim shoyi qog‘ozlar, qo‘lyozmalar.

Insoniyat tarixida buyuk kashfiyotlardan biri qog‘ozning ixtiro qilinishi hisoblanadi. Qog‘oz ixtiro qilingandan so‘ng bashariyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti keskin o‘zgargan, bilimlar avloddan avlodga aniq yozuvlarda o‘tishi evaziga ilm-fan rivojlangan, tamaddun shakllangan. Insoniyatning tarixi, tarixiy buyuk shaxslar, eng muhim voqea va hodisalar, tarixiy sanalar, ilmiy va badiiy asarlar va yana ko‘plab ma’lumotlar bugungi kunimizgacha aynan qog‘ozlardagi matnlar orqali yetib kelgani so‘zimizga isbot bo‘ladi. O‘zbekiston tarixida, xususan o‘rta asrlarda Samarqandda tayyorlangan qog‘ozlar dunyoda shuxrat qozongani bizgacha tarixiy qo‘lyozma kitoblardan yetib kelgan.

Qog‘oz ishlab chiqarish borasida Samarqand shaxrida tayyorlangan qog‘ozlar Buyuk ipak yo‘li orqali Arab va Yevropa mamlakatlarida ming yillar davomida shuhrat qozongan. Uning yuqori sifat va xususiyatlari adiblar, olimu-muttafakirlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgani bizgacha qadimiy qo‘lyozmalardan yetib kelgan. Samarqand qog‘ozining ming yillar davomida chirimaslik xususiyatini bugungi kunda miniatyurachi rassomlar, xattotlar va yurtimizda saqlanayotgan minglab qadimiy qo‘lyozma asarlarni ta’mirlashda ahamiyati katta.

R.G. Mukminova Samarqand qog‘ozi sifatini e’tirof etgan holda, bu mashxur qog‘ozning tayyorlanish sirini bilmagan. Ammo, qog‘ozning o‘simlik tolasiga muayyan tarzida ishlov berish va tartibsiz ravishda yupqa parda qilib biriktirish natijasida tayyorlanganligi aniqlangan [1]. Sharqshunoslik qo‘lyozmlar institutidagi qo‘lyozma kitoblarini ro‘yxatga olinayotganda ularga “shoyi qog‘ozga yozilgan”, “yarim shoyi qog‘ozga yozilgan” yoki “extimol bu shoyi qog‘ozi shoyi chiqitlaridan tayyorlangan” kabi qaydlar va izohlarni uchratamiz. Samarqand qog‘ozi – o‘simlik tolalaridan olinadigan ashyo, mahsus usulda ishlov berilgan va tolalar o‘zaro tartibsiz bog‘langan holda yupqa varaq xosil qiladi. Unda tolalar sirtqi kuch yordamida o‘zaro bog‘lanadi. O‘rta Osiyo hududida qog‘oz tayyorlash ashyosi bo‘lmish kanop (nasha novdasi), lub so‘ngra tolali matolardan ham foydalanilgan.

XX asr boshlarida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalarda Lulandagi qoravulxonalardan (IV-VI asr) So‘g‘d savdogarlarining qog‘ozga yozilgan xatini topiladi. Xat Samarqandda tayyorlangan qog‘ozga yozilgan. Arab olimi Ibn al-Hadim yozishicha, arablar 706-yili Samarqandga kelganlarida, qog‘oz ishlab chiqarish ustaxonalarini ko‘rib, xayratda qolganlar. Samarqandga kelgunga qadar arablar biror marta ham qog‘oz namunalarini ko‘rishmagan. Ibn al-Hadim “Samarqand qog‘ozi xitoyda tayyorlangan qog‘ozdan ancha marg‘ub va latifroq” deb ta’kidlab o‘tgan [2].

O‘rta Osiyoning Samarqanddan boshqa shaxarlarida ham qog‘oz ishlab chiqarish markazlari mavjud bo‘lgan. Bunday shaxarlar asosan qadimiy Buhoro va Xirot shaxri bo‘lgan. Shaxarlar ilm markazi bo‘lib bu yerda madrasalar ko‘p, olimlar, xattotlar, ko‘chiruvchilar, saroy va kutubxonalar faoliyat olib borgan. Buhoroda qachondan qog‘oz ishlab chiqarilganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Sharq mualliflari Buhoroda ipak qog‘ozi ishlab chiqrishni taxminan 1252-1253 yillardan boshlangan deb yozishgan. Buhorolik qariyalarning hikoya qilishicha bu shaxarda qog‘oz ishlab chiqarish uzoq yillar davom etgan va XVIII asrda Ashtarxoniylarning oxirgi xonlari va birinchi mang‘it xonlari vaqtida diniy va moddiy madaniyatning umumiy inqirozi davriga kelib to‘xtagan.

XV asrda Xirot shahri mashhur madaniyat markazlaridan biri edi. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, Xirotning qog‘oz ustaxonalariga teng keladigani

butun dunyoda topilmagan. Oxirgi temuriylardan Sulton Husayn Mirzo (1469-1506) va Alisher Navoiy davri adabiy-ijodiy, ma’rifiy uyg‘onish davri bo‘lgan va bu faol madaniy hayot tufayli poytaxt juda ko‘p miqdordagi qog‘ozga ehtiyoj sezgan. Buhoro va Xirot qog‘ozi ikkisi ham o‘zining oliy sifatlari pishiqligi, ajoyib jilosi yoki sarg‘imtir, oppoqligi va uning yengil yozilishi bilan farqlangan. Shuning uchun XV-XVI asrlardagi Buhoro va Xirot qo‘lyozmalari xattotlik san’atining asl manbalari albatta, uning qog‘ozining jilosiga bog‘liq. Buni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi quyidagi qo‘lyozmlar ham tasdiqlaydi.

O‘rta Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarilishi tartibsizlik va o‘zaro urushlar davrida tanazzulga yuz tutdi. Bu davrga kelib ustalar o‘z hayotlarini saqlab qolish va tinch yashash maqsadida boshqa joylarga ko‘chishga majbur bo‘ldilar. Bunday ko‘chmanchilik tufayli Qo‘qon shaxrida va uning atrofida yozuv qog‘ozi ishlab chiqarish rivojlandi. Samarqand va Buhoro kabi qadimgi markazlarda qog‘oz ishlab chiqarilishi butunlay to‘xtagach Qo‘qon turkistonning barcha markazlari (Orol dengizidan Xitoygacha) qog‘oz bilan yagona ta’minlovchi markaz bo‘lib qoldi. Qo‘qon qog‘ozi Qoshg‘arga va Shimoliy Afg‘onistonga olib borilgan. Bu qog‘ozlarga hamma maxalliy sharq qo‘lyozmalari, axamiyatli har xil mazmundagi elchilik xujjatlari, xonlar va amirlar farmonlari hamda savdo-sotiq xujjatlari yozilgan.

O‘rta osiyoda qo‘lda qog‘oz ishlab chiqarishning ko‘p asrlar davom etgan bosqichlarining umumiy belgilari uning navlari va maxalliy qog‘oz turlarida ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniynomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanuvchi qo‘lyozmalarning asosiy ko‘pchiligini shu Qo‘qon qog‘ozida yozilganligi tashkil etadi [3].

O‘rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgandan keyin qog‘oz tayyorlash markazlaridan faqatgina Qo‘qon xonligida davom etgan. Rus olimi Grigorevning yozishicha, Qo‘qon shaxridagi qog‘oz tayyorlash ustaxonalarida maxsus objuvozlardan foydalanilgan. Qog‘oz Qo‘qon shaxri va uning atrofidagi Chorku qishloqlarida ham tayyorlangan. Grigorev 1931-yilda Qo‘qon qog‘ozgarlari bilan uchrashadi va ular qo‘qon qog‘ozi tayyorlanish usullarini to‘play boshlaydi.

Grigorev o‘z to‘plamida qo‘qon qog‘ozgarlari tomonidan qo‘llanib kelinayotgan qog‘oz tayyorlash usulini va uning ifodalash mobaynida ayni sohaga oid ba’zi terminlar izohini keltirib o‘tadi.

Qog‘oz ishlab chiqarishda foydalanilgan tegirmonlarga fors-tojikcha “juvozi kog‘oz”, “obi juvoz”, “korxonai qog‘azbardori” degan terminlar qo‘llanilgan. Bunday ustaxonalarda tortilgan latta surpga solinib, yaxshilab chayilgan. Keyin suvi siqib tashlangan. So‘ngra 5 pud (1 pud =16.3805 kg) latta talqoniga 1 pud ishqor va ½ pud oxaktosh qo‘shib, yana objuvozda 1 soat davomida tortilgan. Tortilgan qorishma 10 kun mobayinida oftobga qo‘yilgan. Bunda qorishmalar rangsizlangan va quyosh tasirida yog‘sizlantirilgan. Shundan so‘ng qorishma yana objuvozda tortiladi va suvda chayiladi. Ikkinchi bora ham qorishmaga ishqor va oxaktosh qo‘shiladi. Tortilgan qotishma talqon yana 10 kun mobayinida oftobda saqlanadi. Kegin u yana objuvozga solib 15 kun mobaynida tortilgan. Shundn so‘ng qog‘oz tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan xom ashyo- “qog‘oz bo‘tqasi” deb ataluvchi massa tayyor bo‘ladi. Tayyor bo‘lagan maxsulot qamishdan qilingan idishlarga solib qo‘yilgan. Ba’zida uning rangini och sariq rang qilish maqsadida tuxmak, ya’ni sariq gulli o‘simlik gulidan tayyorlangan sariq rang qo‘shilgan. Qog‘ozni quyishda maxsus to‘r va tut novdasidan to‘qilgan chetandan foydalanilgan. Maxsus to‘r yasash uchun ko‘proq ot yollaridan ishlatilingan. Qog‘oz quyilishidan oldin chetan ustiga to‘r to‘shalgan va uning ustiga qog‘oz bo‘tqasi (massa) bir hil qalinlikda suzib chiqilgan. Qog‘oz qay qalinlikda kerak bo‘lsa qog‘oz bo‘tqasini ham shunga yarasha solishgan. Qalin qog‘oz tayyorlash uchun nisbatan ko‘proq massa sarflangan. So‘nggi jarayonda qog‘oz nok daraxtidan ishlangan taxtakachga qo‘yilib, tosho‘qlov yordamida pardozlangan. Zarur bo‘lganda pardozlash jarayoni ikki uch bor takrorlangan. Tayyor bo‘lgan qog‘ozlar 58x50 o‘lchamda kesib olingan [4]. Qog‘ozlarni kesishda o‘lchami 20-30 sm uzunlikdagi “miqraz” deb ataluvchi qaychilardan foydalanilgan [5].



XVI asr O‘rta Osiyoda tayyorlangan qog‘ozlarga Maxmud Muzahhib tomonidan chizilgan miniatyura asarlari

Foydalanilgan manbalar:

1. R.G. Mukminova / К Истории производства Самаркандской бумаги в XVI в. №103.

2. N. Norqulov I.Nizomiddinov. / Miniatyura tarixidan lavxalar. Toshkent. G’afur G’ulom nomli adabiyot va san’at nashriyoti. 1970. №36.

3. M.Sh. Salimov / Sharq qo’lyozmalari xazinasi. 4.2 Qog’oz. Toshkent.

4. P.d. Zotov / К истории бумажного производства на Востоке / Труди ИВ. Вып. IIIю Изд-во ФР Узбю 1954. №163, 164.

5. E. Axunjanov / Писмо и книгаю. Toshkent. “O’zbekiston” nashriyoti. 1983. №38. https://e-tarix.uz/maqolalar/1023-maqola.html

6. KULTASHEVA, N., 2023. O ‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI RANGTASVIR KOLLEKSIYASINING ELEKTRON KATALOG PLATFORMASINI YARATISH: ISTIQBOLLARI VA NATIJALARI. *Scientific Journal of Mathematical Knowledge and Applied Research*, *1*(01), pp.33-36.

7. KULTASHEVA, N., 2022. BAYAT MUKHTAROV AND HIS PLASTIC INNOVATIONS. *Art and Design: Social Science*, *2*(01), pp.6-8.

MOLIYAVIY MUSTAQILLIK BERILGAN DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY NATIJALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

TMI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirishning zamonaviy nazariyalari va ularning xususiyatlari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim tizimida to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan shakllantirilayotgan moliyaviy natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqotlar asosida moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy natijalarini takomillashtirilishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasalari, moliyaviy natijalar, moliyaviy hisobot, to‘lov-kontrakt mablag‘lari, tushumlar, xarajatlar tarkibi.

Аннотация: В данной тезисе анализируются современные теории финансирования государственных высших учебных заведений, которым предоставлена финансовой самостоятельности, и их особенности. Научные выводы сформулированы на основе финансовых результатов, формируемых в системе высшего образования за счет средств платно-контрактых средств. На основе исследований разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на улучшение финансовых результатов высших учебных заведений, которым предоставлена финансовая самостоятельности.

Ключевые слова: Государственные высшие учебные заведения которым предоставлена финансовой самостоятельности, финансовые результаты, финансовая отчетность, платно-контрактных средств, поступления, структура расходов.

Annotation: This thesis analyzes modern theories of financing of State Higher Education Institutions, for which financial independence is granted, and their features. In the higher education system, scientific conclusions were formed on the basis of financial results, which are being formed at the expense of payment-contract funds. On the basis of research, scientific proposals and recommendations were developed aimed at improving the financial results of higher educational institutions, which were given financial independence.

Keywords: State institutions of Higher Education for which financial independence is granted, financial results, financial statements, payment-contract funds, receipts, cost structure.

XXI asrda ilm-fan jahon iqtisodiyoti tub o‘zgarishlarni, o‘ta mahoratli yondashuv va tajribani talab qiladigan tizimga aylandi. Bu esa oliy ta`lim va yuqori malakalarni talab qilib, ayrim hollarda umuman o‘rganilmagan oliy ta’lim talablarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, qator davlat oliy ta`lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi va uni keng qo'llash tendentsiyasi oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqishning dolzarbligini ko'rsatdi.


Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2030 yilgacha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qator vazifalar o‘z ifodasini topgan. Oliy ta’limni qamrab olishni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini kuchaytirish va fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish.[1] Yoshlarning ochiq va sifatli ta’lim olishini ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olish bilan birga hududlarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Oliy ta’lim sohasidagi islohotlarning dastlabki natijalari sifatida oliy ta’lim muassasalarida qabul darajasini bosqichma-bosqich oshirish, tizimda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda yuqori

malakali xorijiy professor-o‘qituvchilarning bilim berish tajribalarini o`rganib, ilm-fanda innovatsion jarayonlarni joriy etilishidir. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ko`plan oliy ta`lim muassasalarida xorijiy oliy ta`lim muassasalari bilan qo`shma fakultetlarni joriy etilishi, yuqori reytingga ega bo`lgan xorijiy oliygohlar bilan tajriba almashinuv memorandumlarini imzolanishi buning yaqqol misolidir.

Bugungi kunda Respublikamizda 212 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, jumladan: davlat oliy ta’lim muassasalari – 116 ta yoki 55 foiz, shundan 40 ta davlat oliy ta’lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berilgan[2]. Oliy ta`lim muassasalarini bosqichma-bosqich o`zini-o`zi moliyalashtirish tizimiga o`tkazish hamda ularning moliyaviy barqarorlikni ta`minlashni zamonni o`zi taqozo etmoqda[3]. Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini tahlil etadigan bo‘lsak, o‘qishga qabul qilishning 29 foizi davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan, qolgan 71 foizi byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi, ularning asosiy qismi 59,6 foizi to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Oliy ta’lim muassasalarining asosiy moliyaviy manbasi to‘lov-kontrakt mablag`lari ulushi hisoblanadi.

Bu oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich moliyaviy, shuningdek, akademik mustaqillik berilishini nazarda tutadi, bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini, buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini, to`lov-kontrakt mablag`lari tushumi, ular hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar tarkibi, daromadlar hisobi hamda moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Yuqorida keltirib o`tilgan 40 ta moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasalari to`lov-kontrakt mablag`lari tarkibini tahlil etilib o`rganilganda quyidagi yo`nalishlarga bo`lib ajratilgan holda hisobga olish maqsadga muvofiq.



1-chizma. Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasalari to`lov-kontrakt mablag`lari tarkibi.[12]

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasalarining to`lov-kontrakt mablag`lari hisobining amaliyotda yurutilish tizimi o`rganilganda barcha tushum yo`nalishlari umumlashtirilgan holda olib borilayotganini ko`rishimiz mumkin. Bu esa o`z navbatida kelgusi davr uchun prognoz ko‘rsatkichlarni shakllantirish, daromadlarning turlari bo‘yicha mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlashga oid samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator noqulayliklar keltirib chiqaradi. To`lov-kontrakt mablag`lari tarkibini har bir yo`nalishi bo`yicha tushumlar, xarajatlar, daromadlar, moliyaviy natijalar va hisobotlarini shakllantirish imkoniyati mavjud emas.

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasalarining to`lov-kontrakt mablag`lari hisobidan shakllantiriladigan moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishning joriy holatini yaxshilash yo‘llarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

[12] Olib borilgan tahlillar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

1. To`lov-kontrakt mablag`lari tarkibini har bir tushum yo`nalishlari bo`yicha alohida hisobga olish va moliyaviy natijalarni ham shunga mos ravishda shakllantirish. Oliy ta’lim muassasasining kuzatuv kengashi a`zolari o‘rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlashda, ularning ijrosini muhokama qilishda to`lov-kontrakt mablag`lari tarkibini alohida hisobga olingan holdagi buxgalteriya axborot ma`lumotlaridan foydalanishini yo`lga qo`yish.

2. Oliy ta’lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati moliyaviy nazorat o‘tkazish va moliyaviy holat to`g`risidagi hisobotlari bo`yicha nazorat tadbirlarini olib borish jarayonida to`lov-kontrakt mablag`larini tarkibi har bir tushum turi bo`yicha alohida hisob-kitoblar nazorat tadbirlarini olib borish hamda moliyaviy natijalarni hisobga olishni tashkil etish.

Natijada, oliy ta’lim muassasasining uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o‘rinlaridan joy olish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash, uning amalga oshirilishini nazorat qilib borishda, oliy ta’lim muassasasini rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etishda hamda moliyaviy barqarorligini ta`minlashga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI to‘g‘risida”gi 158-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “ Davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi 61-son qarori.

3. Buzruxonov S.M. “Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish”. Doktorlik dissertatsiyasi. 2022 yil.

ЮСУФ САККОКИЙНИНГ “МИФТОҲУ-Л-УЛУМ” АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ МАТНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Исмоилов Бобур Худоярович

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

ismoilov_bobur@Internet.ru

Аннотация. Қўлёзмаэнг тўғри вариантни топиб манбалардаги матнларнинг қиёсий таҳлили жараёнида уларнинг баъзилари синоним бўлса, баъзилари умуман бир-бирига алоқадор бўлмай жумла мазмунига ўз тасирини ўтказган. Бундай матний тафовутлар орасидаэнг тўғри вариантни топиб мазмун-моҳиятига қараб муносибларини танлаб олиш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Вақтлар ўтиши билан қўлёзмалар матнида ҳам ўзгаришлар кузатилади шунинг учун қадимийроқ ва замонамизга яқинроқ матнлар ўртасидаги фарқни аниқлаш ҳам долзарб масала ҳисобланади.

Калит сўзлар: Юсуф саккокий, Мифтоҳу-л-улум, қўлёзма, таянч нусха, матнлардаги тафовут.

“Мифтоҳу-л-улум” асарининг қўлёзмаларидаги матнларни қиёслаш учун қуйидаги нусхаларни танлаб олинди. Таянч нусха сифатида Нуру Османия кутубхонасида 4478 рақам остида сақланадиган қўлёзма қабул қилинди ва уни **(НУ4478)** деб белгиланди**,** Истанбул Университети нодир қўлёзмалар бўлимида NEKAY00308 рақам остида сақланадиган нусха уни **(ИУ 00308)** деб белгиланди**,** Нуру Османия кутубхонасида 4478 рақам остида сақланадиган қўлёзма ва уни **(НУ4476)** деб белгиланди**,** Байрут Зарзур нашрини ва уни **(БЗН)** деб белгиланди**.**

“Мифтоҳу-л-улум” асари қўлёзма ва нашр матнларининг қиёсий таҳлили жараёнида қуйидаги асосий фарклар кузатилди:

Асар матни бошида таянч нусха ва (ИУ 00308), Нуру Османия 4476 (НУ4476) нусхаларида القسم الثالث من الكتاب في علمي المعاني و البيان و فيه مقدمة لبيان حدي

العلمين و الغرض فيهما و فصلان لضبط معاقدهما و الكلام فيهما. - (китобнинг учунчи қисмида икки бўлимнинг бири баён илми ва муқаддимаси ҳамда бу икки илмнинг мақсади ва у икки илмдаги гап, унинг ўринларини белгилаш ҳақида 2 та фасл бор) жумлсидаги من الكتاب - (китобнинг) сўзлари бор бўлсада, нашрда мавжуд эмас.[13]

ذلك التركب (ўша таркиб) - сўзлари НУ4476 да **التراكب** ذلك- тарзида берилган, бу грамматик жиҳатдан хато ҳисобланади, чунки التراكب сўзи ғойри оқил синиқ кўпликда турибди бу араб тили грамматик қоидасига кўра аёл жинсида ҳисобланади ва унинг аниқловчиси ذلكэмас аёл жинсида яъни تلك бўлиш керак эди лекин бу ерда эркак жинсида турибди бу эса грамматик хато ҳисобланади.[14] Кейинги қаторда ҳам худди шу ҳолатни кузатиш мумкин яъни ذلك التراكب сўзлари грамммматик хато келган.

НУ4478 нусхаси, ИУ 00308 нусхаси ва БЗН او لازما له هو هو حيناً (Ёки ўша таркибнинг шахсан ўзига лозим бўлган маъно) - тарзида келган, лекин НУ4476 нусхасида жумладаги او ва له-сўзлари тушиб қолган, яъни لازما هو هو حيناً - деб ёзилган бундай ҳолатда жумланинг маъносини тўлиқ чиқариб бўлмайди.[15]

НУ4478, ИУ 00308, НУ4476 қўлёзма нусхаларида منطلق **زيدا** إنّ - (албатта Зайд кетувчидир) жумласи БЗН да منطلق **زيد** إنّ - тарзида келган,[16] бу эса араб тилида грамматик жиҳатдан қўпол хато ҳисобланади, чунки إنّюкламаси гапнинг эгаси (мубтадо) ни насб (фатҳа) ҳолатда, кесими (хабари) ни роф (замма) ҳолатда келтиради. Яъни Зайдун сўзи Зайдан тарзида талаффуз қилиниш керак.

НУ4478, НУ 4476 қўлёзма нусхаларида ва БЗН нашрида لنزولها في صناعة البلاغة منزلة اصوات حياونات تصدر عن محالها يحسب ما يتفق - (балоғат илмида балиғ (нотиқ) бўлмаганлар ишлатган жумлалар, ҳайвонлардан чиққан саслар тасодифийдир) жумласи ИУ00308 нусхасида لنزولها في صناعة **البلغآء** منزلة اصوات حياونات تصدر عن محالها

[13] “Мифтоҳу-л-улум” Наиъим Зарзур. -Ливия- Байрут.: .”Дарул кутубил аламиййа гашри” . -161 б
[14] Мирқобил Ҳасанов. Араб тили. -Т.: “Наврўз нашриёти” 2018, -359 б
[15] “Мифтоҳу-л-улум” Нуру Османиййа кутубхона қўлёзма нусхаси.Туркия.инв.4476.-1а б
[16] “Мифтоҳу-л-улум” Наиъим Зарзур. -Ливия- Байрут.: .”Дарул кутубил аламиййа гашри” . -161 б

يحسب ما يتفق - тарзида келган, البلاغة (нотиқлик) сўзи ўрнида البلغآء (нотиқ) сўзи келган.[17]

Фойдаланилган адабиётлар:

1. دروس النحو. حفنى ناصف, محمد دياب, مصطفى طموم, محمد صالح, محمد عمر.دار ايلاف الدولية ص 414.

2. Мирқобил Ҳасанов. Араб тили. -Т.: “Наврўз нашриёти”2018,-359 б

3. Содиқов Q. Маиншунослик ва адабий манбашунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2017. 255 б

4. Ҳасаний М, Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва мвтншуносликнинг назарий масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2012. 230 б

5. ابو يعقوب سوسف السكاكى. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت.1987. ص. 621

6.226 ابو يعقوب سوسف السكاكى. مخطوطة مفتاح العلوم. مكتبة نور أثنانية. ص.

7. حفني ناصف-محمد دياب-سلطان محمد-مصطفي تميم. دروس البلاغة.شموس البراعة.مكتبة البشري.كراستي باكستان. 2009ه. 11430م.

8. http://|www.shamela/ws,ج من تاج العروس . ابو الفيض المقلب بمرتضى البيدى

[17] “Мифтоҳу-л-улум” Истанбул Университети кутубхонаси нодир китоблар фонди қўлёзма Туркия.инв.ИУ 00308. - 08-1а б

INDIGOFERA O’SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA QO’LLANILISHI

To‘raboeva G.N.

Annotasiya: Xalq ho‘jaligi uchun istiqbolli o‘simliklarni o‘rganish, ularni ishlab chiqarishga jalb etish va turli hududlarda yetishtirish va ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday istiqbolli bo‘yoq beruvchi o‘simliklardan biri *Indigofera tinctoria* turi bo‘lib, hozirda uni 30 ga yaqin davlatlarda yetishtirilib, xom-ashyosi eksport qilinmoqda. O‘simlikni qimmatli dorivor va bo‘yoqbop manba ekanligi bois, turli tuproq - iqlim sharoitlarida eksportbop xom-ashyosini yetishtirish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.


Kalit so‘zlar: a**ntiseptik, aglikon**, bo‘yoqbop, **basma, glikozid,** dorivor, eksport, **indigo, indoksil**,**sintetik, stereoisomer, sis va trans,** xom – ashyo**.**

Xalq ho‘jaligi uchun istiqbolli o‘simliklarni o‘rganish, ularni ishlab chiqarishga jalb etish va turli hududlarda yetishtirish va ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday istiqbolli bo‘yoq beruvchi o‘simliklardan biri *Indigofera tinctoria* turi bo‘lib, hozirda uni 30 ga yaqin davlatlarda yetishtirilib, xom-ashyosi eksport qilinmoqda. O‘simlikni qimmatli dorivor va bo‘yoqbop manba ekanligi bois, turli tuproq - iqlim sharoitlarida eksportbop xom-ashyosini yetishtirish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Indigofera tinctoria tropik mintaqa o‘simligi bo‘lib, burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, ildizi o‘q ildiz, rangi qo‘ng‘ir, yer ostiga 0,3-0,4 m chuqurlikgacha o‘sadi. Ildizidagi tuganak bakteriyalar bitta o‘simlik tupida 40-80 donagacha bo‘lib, kattaligi o‘rtacha 0,7-1,0 sm keladi. O‘simlik bo‘yi o‘rtacha 1,0-1,5 metrgacha bo‘ladi. Poyasining rangi och yashil rangda, mayda tuklar bilan qoplangan. Barglari poyada navbatma-navbat joylashadi, shakli yarim ovalsimon oddiy va murakkab bargdan iborat. Oddiy barglari o‘simlikni o‘suv davri boshlarida va o‘rtalarida hosil bo‘ladi, ammo o‘suv davrining oxiriga kelib to‘kilib


ketadi. Murakkab barglari esa toq patsimon bo‘lib, poyasining pastki qismidagilari 3-5 ta yaproqchadan, o‘rtasidagilari 5-9 yaproqchadan iborat. Gulkosachasi qo‘ng‘iroqsimon, ikki jinsli. Gullari qizil-sarg‘ish rangda, qiyshiq gul tuzilishiga (zigomorf) ega, gullari barg qo‘ltig‘ida to‘pgul hosil qilib joylashadi. To‘pgullari kallakcha shaklida [3].

Indigoferaning barglarida rangsiz glikozid-indikan mavjud. Fermentlarning harakati tufayli glikozid glyukoza va aglikon indoksilga parchalanadi. Aglikon ham rangsiz, havoda tezda oksidlanadi va indigotinga – ko`k indigoga aylanadi.



Indigo

Bo`yoqchi moddalar sinfining asoschisi bo`lgan Indigo qadim zamonlardan beri ma`lum (2000-4000 yil oldin bizning eramizga qadar). XIX asrning oxirlarigacha Indigoni tropik mamlakatlarda o`sadigan indigofera o`simlik turining poya va barglaridan olishgan Indigo birinchi marta 1883 yilda A.Bayer tomonidan sintetik yo`l bilan olingan. A.Bayer shuningdek ushbu indigoning tuzilishini ham aniqlagan. Sintetik Indigoning sanoatda ishlab chiqarish 1897 yildan boshlangan.Indigoid bo`yoqchilar ikkita stereoizomer, ya`ni, sis va trans formalarga ega [1,4]



sis - forma Indigo

trans - forma Indigo

Fermentlangan barglardan tushgan cho`kma hohlagan bir kuchli asos bilan aralashtiriladi, masalan, ishqor bilan, tugmachagacha presslanadi, keyin poroshokka

aylantirishadi. Poroshokni turli moddalar bilan aralashtiriladi va ko`k va binafsha ranglarni olishadi. Rangining nomlanishi o`simlikning vatani bo`lmish Hindistondan kelib chiqqan, indigofera o`simligining nomlanishi esa lotinchadan - indigo‖ va - ferre‖(keltirmoq). Inglizchada bu rang - Indian blue‖ - Hindcha ko`k deb nomlanadi. Indigoni yeti xil rangli optik spektr ichiga tarkibiga qo`shishadi, biroq zamonaviy olimlarning ta`kidlashicha uni alohida rang sifatida qo`shishmaydi va binafsha rang deb belgilashadi [2].

Indigofera barglari poroshoklaridan ikkita bo`yoq olishadi – matolar uchun juda mustahkam to`q - ko`k bo`yoq indigo sochlar uchun bo`yoq basma. Indigofera barglari bo`yoqlaridan ilk djensilar bo`yalgan[2].

Oddiy yo`l bilan matolarni bo`yash jarayoni juda mehnat talab etadi va ko`proq jismoniy va vaqt talab etadi. Indigofera barglarini kattakon chanlarda ivitiladi, quyuq ko`k suyuqlik ni maksimal miqdorda olish uchun bir qancha sutka davomida pishitiladi. So`ngra suv quyiladi, hosil bo`lgan bo`yoq moddani esa katta bo`lmagan porsiyalarda quritiladi. Indigoning olinadigan poroshokini qirqilgan limon bilan aralashtiriladi va ma`lum vaqt qoldiriladi, masalan bir haftacha achiguniga qadar. Judayam qimmatbaho, serunum bo`yoqlar – bu ko`p yillik achishdan keyin olingan bo`yoqlar hisoblanadi. Bo`yoqning kam uchraydigan rang turini olish uchun bo`yoqni chanlarda yer ostiga ko`mib qo`yiladi. Bu bo`yoqni -yetilishiga qadar qulay haroratni beradi. Bo`yoqni matoga surtilganda u oldiniga - keng qo`llaniladi. Indigofera tarkibida indirubin, ratenoidli deguyelin, legidrodegulin, rotenol, teforsin va sumatrol kabilar mavjud. Tibbiyotda uning uldizi va o`simlik barglari q`ollaniladi [1,2].

Indigoferaning davolash hususiyatlari quyidagicha qo`llaniladi :

- Turli teri kasalliklari, furunkullar, ekzemlarni davolash uchun
- Tiklanmaydigan shilinishlar va yaralarni davolash uchun
- Tomoq, hiqildoq, milklarning yallig`lanishi va anginani davolash uchun
- Rak kasalliklarini davolash uchun
- Leykemiyani davolash uchun
- It tishlashi yoki ilon chaqishini davolash uchun

- Jigar kasalliklarini davolash uchun Indigofera kosmetologiyada quyidagilar tufayli qo`llaniladi:

- Yallig`lanishga qarshi hususiyatlari

Qichimani yo`qotadi, yallig`lanishni davolaydi va bosh terisini qichishidan halos etadi - Antiseptik hususiyatlari Bosh terisiga antiseptik himoya beradi, tozalaydi, qazg`oqni yo`qotadi [4].

- Yumshatuvchi hususiyatlari Yumshatadigan effekt beradi, sochlarni mayin, yumshoq, aqlli va hajm jihatdan yordam beradi Xna va basma sochlarni bo`yash uchun yagona tabiiy vosita hisoblanadi, sochlarni ildizidan boshlab uchigacha parvarishlaydi. Shunday qilib, indigofera barglari poroshokiga ega sochlar uchun bo`yoq ekologik toza hisoblanadi, nafaqat sochlarni bo`yash, balki ularni sog`lomlanishi uchun ham ta`sir qiladi. Shunday bo`yoqlardan tez-tez foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Indogofera sochlarni ildizini mustahkamlaydi va ularning strukturasini yaxshilaydi, sochlarni oziqlantiradi, ularni to`g`ri o`sishini ta`minlaydi va himoya qobig`ini paydo qiladi. Sochlarni yumshoq, mayin va aqlli qiladi. Tarashni osonlashtiradi. Sochlarga hajm beradi va ularni yumshoq qilib qo`yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Anitha R., Murugan A., Gnanendra S. Anti-Psoriatic Activity of *Indigofera tinctoria* Leaves Extract on Staphylococcus Aureus Embedded Hacat Cells: ASystematic Approach // Journal of University of Shanghai for Science and Technology. – 2020. – Vol. 22. – P. 738-745.

2. Мирзаахмедов Р., “Табиий ранглаш технологияси”. ЮНЕСКО, 2007.-80 б.

3. Муравьёва Д.А. Тропические и субтропические лекарственные растения. – М.: Медицина, 1983. – С. 336.

4. Turabaeva G., Matkarimova A., Turaboev A., Turdiyeva O. Bioekological traits of the plant indigofera tinctoria L. Under introduction conditions // International Journal of Pharmaceutical Research – 2021. Vol. 13. ISSN. 0975-2366. P. 3814-3819.

O‘ZBEKISTONDAGI ULUG‘VOR HAYKALLAR TALQINI

Qodirova Zilola Ro’ziboyevna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
1 kurs tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistondagi ajoyib haykallarning talqiniga qaratilgan. Bu haykallarning tarixiy, madaniy va badiiy jihatlarini o‘rganib, ularning mohiyati va mazmunini o‘rganadi. Maqolada haykallar O‘zbekistonning boy merosi va an’analarini qanday aks ettirgani, ularning ramziyligi va estetik qiymatiga oydinlik kiritishi ko‘rib chiqiladi. Bu haykallarni tushunish va qadrlashning O‘zbekistonning madaniy o‘ziga xosligini saqlash va targ‘ib qilish yo‘li sifatida muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: talqin, muhtasham haykallar, O‘zbekiston, tarixiy ahamiyat, madaniy meros, badiiy qadriyat, ramziylik, estetika, an’analar, madaniy o‘ziga xoslik.

Ilmiy muammolarni sharhlash uchun ajoyib haykallarni yaratish jarayoni odatda bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, tadqiqotchilar haykal orqali ifodalamoqchi bo'lgan ilmiy tushuncha yoki muammoni aniqlaydilar. Bu molekula tuzilishidan tortib fizik tizimdagi zarrachalarning harakatigacha bo'lgan har qanday narsa bo'lishi mumkin.

Ulug‘vor haykallar O‘zbekistonning boy madaniy va tarixiy merosidan dalolat beradi. Ushbu haykallarning go'zal va murakkab detallari tadqiqotchilar va olimlarni hayratda qoldirib, ularning tarixiy, madaniy va badiiy ahamiyatini talqin qilish va tushunish uchun katta kuch sarflagan. Biroq, bu talqin jarayoni ilmiy muammolardan xoli emas.

O‘zbekistondagi ulug‘vor haykallarni talqin qilishdagi asosiy muammolardan biri bu to‘liq tarixiy yozuvlarning yo‘qligidir. Bu haykallarning aksariyati qadimgi davrlarga borib taqaladi va ularning asl kelib chiqishi va maqsadlari sir bilan qoplangan. Yozma yozuvlar yoki hujjatlarsiz tadqiqotchilar ushbu haykallarning

ma'nosi va ahamiyatini birlashtirish uchun arxeologik dalillar, qiyosiy tahlil va madaniy kontekstga tayanishi kerak. Tarixiy yozuvlarning yo'qligi muhim ilmiy qiyinchilik tug'diradi, chunki u tadqiqotchilardan mavjud dalillarga asoslangan bilimli taxminlar va taxminlar qilishni talab qiladi.

O‘zbekistondagi ulug‘vor haykallar talqinidagi yana bir ilmiy muammo bu osori-atiqalarni saqlash va tiklashdir. Vaqt o‘tishi bilan ob-havo sharoiti, buzg‘unchilik va atrof-muhit omillari bu haykallarga ta’sir ko‘rsatib, ularning asl shakli va xususiyatlarini aniqlashni qiyinlashtirdi. Qolaversa, restavratsiya jarayonining o‘zi ham noxolislik va xatolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa haykallarning asl ma’nosini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi. Uglerodni aniqlash, rentgen-fluoresans va mikroskopik tahlil kabi ilmiy usullar ushbu haykallarning tarkibi va yoshi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin, ammo ularni saqlash va talqin qilish muammolari muhimligicha qolmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistondagi ulug‘vor haykallarni talqin qilish mintaqada asrlar davomida yashab kelgan madaniyat va tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi bilan murakkablashadi. Har bir madaniyat O‘zbekiston badiiy va me’moriy landshaftida o‘z izini qoldirgan, natijada ta’sir va uslublarning murakkab gobelenlari shakllangan. Tadqiqotchilar ushbu haykallar ortidagi ma'no va ramziy ma'noni to'g'ri talqin qilish uchun madaniy ta'sirlar va tarixiy voqealarning ushbu murakkab tarmog'ida harakat qilishlari kerak. Ushbu fanlararo yondashuv tarixchilar, arxeologlar, san'atshunoslar va boshqa mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi, bu esa ilmiy talqin qilish jarayoniga yana bir murakkablik darajasini qo'shadi.

Ushbu ilmiy qiyinchiliklarga qaramay, tadqiqotchilar O‘zbekistondagi ulug‘vor haykallarni talqin qilishda salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritishda davom etmoqda. Ko'p tarmoqli tadqiqot harakatlari, ilg'or ilmiy texnika va xalqaro hamkorlik ushbu haykallarning madaniy va tarixiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Davom etayotgan izlanish va izlanishlar natijasida olimlar bu ulug‘vor haykallar atrofidagi sirlarni asta-sekin ochib, ularning badiiy, diniy va ijtimoiy ahamiyatiga oydinlik kiritmoqda.

Kontseptsiya tanlanganidan so'ng, tadqiqotchilar haykal uchun foydalanmoqchi bo'lgan materiallar haqida ham qaror qabul qilishlari kerak. Bu loy va tosh kabi an'anaviy haykaltaroshlik materiallaridan metall yoki 3D-bosma qatronlar kabi zamonaviyroq materiallargacha bo'lishi mumkin.

Keyinchalik, tadqiqotchilar o'zlari etkazmoqchi bo'lgan ilmiy kontseptsiyani to'g'ri ifodalovchi haykal uchun dizayn yaratishlari kerak. Bu yakuniy asar ilmiy jihatdan aniq va vizual jihatdan jozibali bo'lishini ta'minlash uchun rassom yoki haykaltarosh bilan ishlashni o'z ichiga olishi mumkin.

Dizayn yakunlangach, tadqiqotchilar haykalni yaratish jarayonini boshlashlari mumkin. Bu tanlangan materiallarga qarab haykaltaroshlik, o'ymakorlik, payvandlash yoki boshqa tegishli texnikani o'z ichiga olishi mumkin. Jarayon juda texnik bo'lishi mumkin va maxsus asboblar va jihozlarni talab qilishi mumkin.

Nihoyat, haykal qurib bo'lingandan so'ng, u ifodalagan ilmiy kontseptsiyani tushuntirish va ko'rsatishga yordam berish uchun ommaga namoyish etilishi mumkin. Bu odamlarni ilm-fanga jalb qilish va ularni ilmiy muammolar haqida yangi va ijodiy yo'llar bilan o'ylashga undashning kuchli usuli bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi ulug‘vor haykallar talqini o‘ziga xos ilmiy muammolar majmuasini taqdim etadi, jumladan, tarixiy yozuvlarning yo‘qligi, saqlash va tiklash muammolari, madaniy ta’sirlarning murakkabligi. Biroq, ilg'or ilmiy usullarni qo'llash va fanlararo hamkorlik orqali tadqiqotchilar ushbu qadimiy artefaktlarning ma'nosi va ahamiyatini ochishda muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Ushbu ulug‘vor haykallarni ilmiy tadqiq etishning davom etishi nafaqat O‘zbekistonning boy madaniy merosini tushunishimizga, balki san’at, arxeologiya va tarixga oid keng bilimlarimizni ham boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikrom, X. (2023). O'ZBEKISTONDA ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI.

2. Saitovich, R. R. (2022). YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY HAYKALTAROSHLIK SAN’ATI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 418-420.

3. Mamatov, I. (2023). O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY HAYKALTAROSHLIKNING O'RNI. Молодые ученые, 1(9), 71-73.

4. Mirpulatovna, I. U. (2023). MUSTAQILLIK DAVRIDA HAYKALTAROSHLIK SAN’ATINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI. Journal of new century innovations, 27(5), 37-42.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	THE CHARACTERISTICS OF MODERN FAIRY TALES Jurayeva Dilorom Rakhmonovna Jalilova Lola Jalilovna	4
2.	O’ZBEKISTONDA BOSHLANG’ICH TA’LIM MODERNIZATSIYASIGA YO’NALTIRILGAN DAVLAT SIYOSATI VA UNING ASOSIY JIHATLARI Abdujalilova Ruxsora Nodirbek qizi	6
3.	UMUMIY O`RTA TA’LIM MAKTABLARDA TA’LIM TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH Abdurazzoqova Dildora Otabek qizi	10
4.	IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI Axmedova Ummu Gulsum Shermatjon qizi	17
5.	ARAVACHADA O‘YNALADIGAN BASKETBOL TARIXI VA UMUMIY QOIDALAR Yusupova Muharramoy Nuriddin qizi	21
6.	TEXNOLOGIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTLARNING XUSUSIYATLARI Isaqova Zuxra Rafikovna	25
7.	BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’ZLASHTIRISHDA ORTDA QOLUVCHI O’QUVCHILARNING YUZAGA KELISHIGA OLIB KELUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR Ernazarova Vazira Valijon qizi	31
8.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH Maxmudova Oybarchin Axatovna Xaydarova Iroda O'tkurovna	35
9.	ERTAKLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI Esonov Rustam Raxmonali o‘g‘li	41
10.	“NAHJ-UL-FARODIS” ASARIDA HIKOYAT JANRI Sulaymanov Zaxiriddin Ural o‘g‘li	45
11.	TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH Муликова Азиза Эркиновна	51
12.	TIOEFIRLARNING OLINISHI, XOSSALARI VA TIRIK ORGANIZMLARDAGI AXAMIYATI Erkinov Rasuljon Baxtiyor o’g’li	55
13.	CHANGE OF CYTOKINES IN ORAL FLUID IN PERIODONTAL DISEASE Хаджиметов А.А. Рустамова С.М.	59
14.	FINLANDIYA, YAPONIYA VA O’ZBEKISTON MAMLAKATLARI BOSHLANG’ICH TA’LIM TIZIMLARINING O’ZIGA XOSLIGI VA QIYOSIY TAHLILI Ma’murova Zulayho Oybek qizi	62
15.	ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА STEAM ТАЪЛИМИНИ ТАДБИҚ ЭТИШ Собиров Авазбек Абиджанович	67
16.	ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ Аккулова Юлдуз Алимовна	72
17.	ABU RAYHON BERUNIY SIYMOSI RASSOM NIGOHIDA	75

	Xomidova SH.R.	
18.	O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OKKAZIONALIZM HODISASINING NAMOYON BO’LISHI Alimova Ferangizbonu Baxodir qizi	81
19.	A BROAD CLARIFICATION OF POLITICAL TEXTS Boltayeva Nargiza Rakhmatovna	84
20.	IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING MOBILE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING "INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES" IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS Mamasoliyev Akmaljon	88
21.	KURBANBOY BEKCHANOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA Bekberganov Javohir Erkinboy o‘g‘li	93
22.	THEORETICAL FOUNDATIONS OF VALUE CHAIN FORMATION Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	96
23.	MATEMATIKA DARSLARIDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI O’RGATISH Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi	100
24.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI DIZAYN ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI Zuparova Dilnoza Dadaxonovna	104
25.	KORXONALARDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI Teshaboev Abduvahob Marifovich Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi Mannobova Anziratxon Kenjatoy qizi	109
26.	YORITGICHLAR VA ULARNING JOYLASHTIRISH Nazirjon Nabijonovich Abdug‘aniev Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi Mannobova Anziratxon Kenjatoy qizi	111
27.	PSIXOLOGIYANING INSON HAYOTIDA TUTGAN O’RNI Tursunaliyev Ismoiljon Abduraxmanova Aygul Taxirovna	113
28.	O’QUVCHINING TARBIYASIDA OTA-ONASINING PSIXOLOGIK O’RNI Nabijonov Dilshodbek Abdurahmanova Aygul Tahirovna	115
29.	RADIOAKTIV MODDALARNING HARBIY SOHADA QO'LLANILISHI VA UNING NATIJASIDA YUZAGA KELADIGAN XAVFLI HOLATLAR Latifjonova Dinoraxon Nazarjon qizi	117
30.	ABBREVIATION IN THE DARI NEWSPAPER Abdulatif Karimov Abdughaforovich	119
31.	THE COMMUNICATIVE METHOD IN TEACHING ENGLISH PRODUCTIVE SKILLS Alımova Mukhabbat Quwanishbaevna	123
32.	AYRIM GIDROLIZLANUVCHI TANINLARNING KALAMUSH AORTA SILLIQ MUSKULIGA VAZORELAKSANT TA`SIRINI TAVSIFLASH Mutalipov Azizbek Abdullajon o’g’li Zaynabiddinov Anvar Yerkinjonovich Usmanov Pulat Bekmuratovich Raximov Raxmatillo Nurallievich	127
33.	SOYA NAVLARINING SUG’ORISH TEXNOLOGIYASINI AYRIMELEMENTLARI	132

	Abdulxafizov Xalilillo Abdug‘ani o‘g‘li Aduvaxobov Muxammadali Zoxidjon o’g’li	
34.	IMOM AL BUXORIY HADISLARIDA AYOLLAR BILAN BOG‘LIQ HADISLARNING FALSAFIY GERMENEVTIK TAHLILI Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi	135
35.	SUG‘ORISH TARTIBLARINI SOYA O‘SIMLIGI HOSILDORLIGIGA TA’SIRI Nematov Ulug‘bek Muxtarjanovich Abdulxafizov Xalilillo Abdug‘ani o‘g‘li	138
36.	ALEKSANDR FAYNBERG – BUYUK IJODKOR Sobirova Asilabonu Aziz qizi	141
37.	IQTISODIY SUDLARDA YARASHTIRISH TARTIB-TAOMILLARINI QO‘LLASHNING AYRIM MASALALARI Komiljonov Muslimbek Qobiljon o‘g‘li	143
38.	HUQUQIY SAVODXONLIK, HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHALARI VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O’RNI Shavkatjonova Saodatxon Shavkatjon qizi	149
39.	MARKAZIY OSIYODA ISHLAB CHIQARILGAN QOG‘OZLAR TARIXI Telmanova Mexribonu Bahodir qizi	153
40.	MOLIYAVIY MUSTAQILLIK BERILGAN DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY NATIJALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna	158
41.	ЮСУФ САККОКИЙНИНГ “МИФТОҲУ-Л-УЛУМ” АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ МАТНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ Исмоилов Бобур Худоярович	163
42.	INDIGOFERA O’SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA QO’LLANILISHI To‘raboeva G.N.	166
43.	O‘ZBEKISTONDAGI ULUG‘VOR HAYKALLAR TALQINI Qodirova Zilola Ro’ziboyevna	170

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Mas’ul muharrir

I.I.Abdumannonov

Nashrga tayyorlovchi

R.I.Abdullayev

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 21-sonli respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 10-dekabr, 2023-yil. – Farg‘ona viloyati: talqinvatadqiqotla.uz – 177 bet.